

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ChIRChIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SAN’ATShUNOSLIK FAKULTETI
“TASVIRIY SAN’AT VA DIZAYN” KAFEDRASI**

SULTANOV XAYTBOY ERALIEVICH

**BADIIY TA’LIMDA MILLIY QADRIYaTLARGA ASOSLANGAN
ZAMONAVIY INNOVATSIYALAR TATBIG‘I**

Monografiya

CHIRCHIQ-2024

UDK: 348; 73/76

KBK: 87.7.

N 17

N 17 Badiiy ta'limda milliy qadriyatlarga asoslangan zamonaviy innovatsiyalar tatbig'i / monografiya. Sultanov Xaytboy Eralievich. – T: «Zebo Prints» 2024. 134 b.

Taqrizchilar:	Baymetov B.B.	ChDPU, “Tasviriy san’at va dizayn” kafedrası professori, p.f.n.
	Nurtaev O‘.N.	Nizomiy gomidagi TDPU, “Tasviriy san’at” kafedrası dotsenti, p.f.n.

ISBN 978-9943-4542-6-2

Ushbu monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Kengashining 2024 yil “27”- ноябрь № 6 -son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Sultanov X.E., 2024 y.

Annotatsiya: Monografiya muallifning turli jurnallarda chop etilgan imiy maqolalari to‘plami bo‘lib, unda hozirgi globallashuv davrida tasviriy san‘at sohasida vujudga kelayotgan muammolar, San‘atshunoslik fakultetida PTIK, fanlararo tadqiqotlar va ta‘lim tarmoqlari integratsiyasi, individual ta‘limni tashkil etish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ta‘lim tizimida yuzaga kelaётgan ma‘naviy bo‘shliqlarni to‘ldirishda tasviriy san‘at ta‘limida klaster èndashuvini tatbiq etishning ahamiyati, uning mazmuni, strukturaviy modeli, innovatsion faoliyatning pedagogik tavsifi hamda tatbiqiy mexanizmlarining afzalliklarini “Ustoz-shogird” an‘analari bilan uyg‘unlikda qo‘llashning nazariy va amaliy xususiyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim, uzviylik, klaster yondashuvi, hamkorlik, integratsiya, ijodiy qobiliyat, tasviriy san‘at, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya, ijodkorlik, badiiy ta‘lim, to‘garak, ko‘rgazma, tanlov.

MUNDARIJA

KIRISH	5
San’atshunoslik fakultetida PTIK, individual ta’lim yo‘nalishlarida amalga oshirilgan ishlar samaradorligi	7
Klaster usuli orqali tasviriy san’at ta’limini integratsiyalash imkoniyatlari..	15
Pedagogik innovatsion klaster hamkorligida ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etishning ahamiyati	27
Klaster yondashuvi fanlararo tadqiqotlar va ta’lim tarmoqlari integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida	39
O‘quv jarayonidagi integratsiyani ta’minlashda klaster yondashuvidan foydalanish	48
Ustoz ko‘magi va maslahatining yosh tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati	56
Umumta’lim maktablari tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish	61
Tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvi ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish omili	68
Maktablardagi tasviriy san’at to‘garaklarini tashkil etishda ko‘rgazma va tanlovlarning ahamiyati	77
Tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuvi orkali yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish	Ошибка! Закладка не определена.
Zamonaviy klaster yondashuvi va “ustoz-shogird” an’analari uyg‘unligida tasviriy san’atdagi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	84
Tasviriy san’atda mavjud ta’lim klasterlari modellari va ularning samaradorligi	108
Oliy ta’lim muassasalarida klaster yondashuvi asosida fanlararo va ta’lim tarmoqlarini integratsiyalash amaliyoti	115
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	122

KIRISH

Dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimini tatbiq etishning samarali usul va yo'llari, amalga oshirish mexnizmlari, qo'llanish tamoyillarini aniqlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Turli soha mutaxassislari tomonidan chuqur tadqiq qilinib, rivojlangan mamlakatlarda amaliyotga joriy etilgan bunday ilg'or tajribalar jahon ta'lim tizimi, pirovardida, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatdi. Klaster yondashuvini ta'lim sohasiga keng tatbiq etish orqali ta'lim bo'g'inlarining samarali hamkorlik shaklini qaror toptirish umumiy maqsadning to'g'ri belgilanishi va xususiy manfaatdorlikning oshishini ta'minlaydi. Oliy ta'limda innovatsion o'qitish usullari o'quv jarayonini rivojlantirish va bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Innovatsiya" atamasi yangilik yoki o'zgarishlarni kiritishni anglatadi. Shu jihatdan olib qaralganda pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at ta'limini o'qitish texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari va pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Monografiya muallifning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan (2023) dissertatsiya himoyasidan keyingi turli jurnallarda chop etilgan imiy maqolalari to'plami jamlanmasi hisoblanadi. Unda hozirgi globallashuv davrida tasviriy san'at sohasida vujudga kelayotgan muammolar, San'atshunoslik fakultetida PTIK, fanlararo tadqiqotlar va ta'lim tarmoqlari integratsiyasi, individual ta'limni tashkil etish bo'yicha olib boilgan tadqiqot ishlari va uning natijalari tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ta'lim tizimida yuzaga kelaётgan ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirishda tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini tatbiq etishning ahamiyati, uning mazmuni, strukturaviy modeli, innovatsion faoliyatning pedagogik tavsifi hamda tatbiqiy mexanizmlarining afzalliklarini "Ustoz-shogird" an'analari bilan uyg'unlikda qo'llashning nazariy va amaliy xususiyatlari tadqiq etiladi.

Monografiyada insoniyat taraqqiyotida badiiy ta'limning ahamiyati, zamonaviy ta'limdagi o'rniga alohida urg'u berilgan holda, klaster yondashuvi vositasida takomillashtirilgan o'qitish texnologiyalarini o'ziga xos pedagogik kafolat sifatida badiiy ta'lim amaliyotiga samarali tatbiq etish mumkinligi hamda bu ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlashi ta'kidlanadi. Shuningdek, Klaster yondashuvi bilan birga ajdodlarimizdan meros sifatida "Ustoz-shogird" an'alarining uyg'unligini ta'minlash orqali talabalarning o'quv, uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay "ijodiy muhit" yaratish mumkinligi, tayyorlanayotgan kadrlar kompetentligini mutaxassis, buyurtmachi va jamoatchilik malaka darajasiga moslashtirish orqali ta'lim sifati va samaradorligida keskin

ijobiy o'zgarishlarga erishilishi asoslab beriladi. Shu jihatdan olganda, Sultanov Xaytboy Eralievichning "Badiiy ta'limda milliy qadriyatlarga asoslangan zamonaviy innovatsiyalar tatbig'i" mavzusidagi monografiyasi bugungi kun uchun dolzarb va pedagogik ta'lim rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy izlanishdir.

Monografiya pedagoglar, tasviriy san'at sohasi mutaxassislari, magistr va bakalavr yo'nalishi talabalari hamda boshqa o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, qiziqarli, ravon tilda bayon etilgan. Ushbu monografiya muallifning ko'p yillik pedagogik faoliyatida to'plagan tajribalari orqali bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari yuzasidan chop etilgan maqolalarda aks etgan nazariy va bevosita amaliyotda bajarilgan ishlar natijasining jamlanmasi desa bo'ladi.

Biz pedagog olimning ijodiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlaymiz, chunki haqiqatan ham pedagogik nuqtai nazaridan yangi innovatsiya sifatida zamonaviy klaster yondashuvi va kasbga o'rgatish borasida qadimdan shakllanib kelgan an'anaviy ta'lim-tarbiya usullarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Ustoz-shogird" an'analari uyg'unligida talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishi mumkin degan fikriga qo'shilamiz.

*ChDPU, San'atshunoslik fakulteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrası
professori, p.f.n. Oliy ta'lim a'lochisi, Badiiy akademiya ijodkorlar uyushmasi
a'zosi Baymetov B.B.*

San'atshunoslik fakultetida PTK, individual ta'lim yo'nalishlarida amalga oshirilgan ishlar samaradorligi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning amaliy mexanizmi sifatida pedagogik ta'lim innovatsion klasterini o'zining strategik ilmiy tadqiqot yo'nalishi sifatida belgilab olgan. San'atshunoslik fakulteti rahbariyati davlatimizda joriy etilayotgan qonunchilik, farmon va qarorlar hamda universitetimizning strategik maqsadlariga hamohang faoliyat yuritishga intiladi. Klaster yondashuviga asoslangan "Ustozshogird tizimi" va individual ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish esa jamoaning ustivor vazifalaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda sodir bo'layotgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi tadrijini kuzatish bizga uning mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda. Bu uchala sohaning o'zaro integratsiyasini ta'minlash va u orqali ta'limning fanga, fanning ishlab chiqarishga "xizmat qilishi"ga erishish, juda muhim.

Darhaqiqat, besh yil davomida universitetimiz jamoasi tomonidan **pedagogik ta'lim innovatsion klasteri**, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bo'yicha juda katta ishlar qilindi. Lekin, butun jamoada barchamiz ham buni mukammal tushunib yetganmiz desak xato qilgan bo'lamiz. Bugungi kunda asosiy vazifamiz yetakchi olimlarimiz tomonidan o'rganilgan muammoalar va ularning yechimini o'rganish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo'lishi lozim. Bu muammolarni tor doiralarda sinchiklab o'rganish, avval bajarilgan ishlarni yanada takomillashtirishga olib keladi. Shundan kelib chiqib, klaster tizimini uning mavjud imkoniyatlari, munosabatlari, xususiyatlariga ko'ra aniqlash va tasniflash, tahlil qilish maqsadida har ikki oyda fakultet kengashida jamoaga klaster yondashuvining afzalliklari va mohiyati, undagi yangiliklar tushuntirib borilmoqda. OTM jamoasining asosiy maqsadi esa barcha talabalarni faollashtirishdan iborat.

Biz uchun yuqorida ta'kidlanganidek, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash orqali ta'limning fanga, fanning ishlab chiqarishga "xizmat qilishi"ga erishishimiz juda muhim vazifa sanaladi. Bu esa OTMdagi ta'lim mazmunini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish zaruratini paydo qilmoqda. Talabalarning o'quv ishlari, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-tadqiqot, ijodiy yaratuvchanlikdagi faolligini ta'minlash orqaligina ushbu maqsadga erishish mumkin. Bilamizki, universitetda barcha talabani o'quv mashg'ulotlardan tashqari faoliyatlar: ma'lum bir tadbir yoki loyihalarga 100% jalb qilish juda qiyin. Ma'naviy tadbir, tanlov, sport musobaqalari, to'garaklar va loyihalarda doimo yaxshi o'qiydigan, ustoziga nisbatan hurmati bor, ma'suliyatni his qiladigan talabalar guruhi bajonidil ishtirok etishini kuzatish mumkin. Aslida ular butun

jamoaning juda borsa 20-25% ini tashkil etadi. 50-60 foiz talabalar qisman befarq bo'lib, tadbirlarga t'yutor yoki o'qituvchi hamrohligida ba'zilari istar-istamas ishtirok etishadi. Qolgan talabalarda jamoat tadbirlarida qatnashmaslik uchun har doim biron-bir bahonasi tayyor bo'ladi.

Buning ustiga kasbiy yuklama hisoblangan o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt topa olmayotgan professor-o'qituvchilar uchun ortiqcha vaqt talab qiladigan, natija bermaydigan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tish ham malol kelishi aniq. Mana shunday sharoitda muammoning yechimini topish masalasi anchadan beri mutaxassislarni qiynab keladi. Shunday muammolarning optimal yechimini topish maqsadida universitetimizda joriy etilgan ta'lim klasteri moduli va texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Faqat o'quv dasturlari orqaligina ko'zlangan natijalarga erishishning imkoni yo'qligi sababli, fakultetda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish, ta'lim sifati, tarbiya samaradorligi va talabalarni faollashtirishning eng maqbul mexanizmini ishlab chiqish kerak degan xulosaga kelindi. Bunda avvalo fakultetdagi butun jamoa ishini yengillashtiradigan, barchani faollashtirib, bir maqsad sari intilish uchun qulay muhit yaratish maqsadga muvofiq deb topildi.

Bunday muhitni qanday yaratish mumkin? Bu jarayonga talabalarni, nafaqat talabalar, balki o'z xohishi, fidoyiligi va mas'uliyat bilan yondashadigan professor-o'qituvchilarni qanday jalb qilamiz? – degan savollar paydo bo'ldi. Bu vaziyatda shunday yo'l tutish kerakki, talaba ham pedagog ham mashg'ulotga o'z xohishi bilan kelsin, turli tadbir va loyihalarda qiziqish bilan ishtirok etsin va mashg'ulotlarda bilim olishi, tadbir va loyihalardagi ishtirokidan mamnun bo'lib, yangi g'oyalar, yangi orzu-istaklar og'ushida uyiga qaytsin. Pedagog o'z shogirdining yutug'idan, o'z mehnati samarasidan qoniqib, kelajakdagi kasbiy va hayotiy faoliyatida o'zini eplab keta olishiga ishonch hosil qilsin. Hafta davomida shu mashg'ulot va loyihalarda shogirdlarining natijasini kutib yashasin. Bunday muhitni yaratish uchun qanday omillarga tayanish mumkin? Avvalo mana shu masalani o'rganishdan boshlaymiz.

Bizning fikrimizcha, quyidagi omillar talabani o'z xohishiga ko'ra mashg'ulotga, turli tadbir va loyihalarda bajonidil ishtirok etishga yetaklaydi.

Talabalarni qiziqtiradigan omillar:

- mashg'ulotlar, tadbirlarning rang-barang va qiziqarli tashkil etilishi, loyihalarning yangiligi hamda uni bajarish imkoni borligi;
- ushbu faoliyatda talabani tayziqsiz erkin harakatlantirish imkoniyatining mavjudligi, orzu-istagi, moyilligi va dunyoqarashi bilan muvofiqligi;
- rag'batlantirishning mavjudligi, talaba o'z faoliyatida qoniqishi, erishgan yutug'idan ko'ngli to'lishi;

- bundanda yaxshi natijaga erisha olaman degan ishonchning hosil qilinishi;

Tyutorlarni rag‘batlantiradigan omillar:

- fakultet, professor-o‘qituvchi va talabalar jamoasida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish uchun qulay muhitning mavjudligi;

Professor-o‘qituvchini qiziqtiradigan omillar:

- bilimga tashna, kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qiziqadigan talabalar bilan ishlash;
- o‘z mehnatining samarasini tezkor ravishda ko‘rish, his qilish;
- shogirdning yutug‘idan g‘ururlanish, uning kelgusi faoliyati istiqbolli bo‘lishi uchun poydevor qo‘yishda o‘zining munosib hissasi borligidan qoniqish.

OTMda bunday omillarni qanday yaratish mumkin?

1. Tartib, talabchanlik va qat’iy intizomning yo‘lga qo‘yilishi;
2. Yangilikka, yaratuvchanlikka bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi;
3. Ustozning shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishi;
4. Samimiy munosabat va ishonch;
5. Ijodiy g‘oyalarning rag‘batlantirilishi va ijodiy muhitning mavjudligi.

Jamoadada yaratilgan mana shunday muhit va hamjihatlik o‘qituvchi hamda talabalarni faollashtirish, yangilikka intilishini yanada oshirishiga xizmat qiladi. Bunda rahbariyatning to‘g‘ri qaror qabul qilishi, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlashi, odilligi, o‘qituvchilarning ma’suliyatliligi, tyutorlarning tashabbuskorligi, talabalarning xayrixohligi juda muhim.

Fakultetda belgilangan ustivor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida rahbariyat-o‘qituvchi-tyutor-talaba subektlarining o‘zaro ta’sirini yaratishdan iborat vertikal ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, “O‘rgatib, o‘rganamiz” loyihasi doirasida “Talaba talabaga - Ustoz, talaba talabaga - shogird” tamoyiliga asoslangan talabalarning bir-biriga ta’sir ko‘rsatadigan gorizontaal tizimda ishlashga ham alohida e’tibor qaratib kelinadi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi talabalarni mustaqil va kreativ fikrlash, yangi g‘oyalar bilan ishlash uchun faollashtirishdan iborat. Mana shunday mexanizm ishtirokchilarning umumiy vazifani bajarishida faqat bir sub’ektga yuk tushishining oldini oladi. Talabalarga ko‘proq yangi g‘oyalarni amalga oshirish, nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu yerda asosiy vazifa:

- talabalardagi nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish mexanizmini ishlab chiqish;
- talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish;
- talabalardagi tanlagan kasbiy faoliyati va uning ma’suliyati haqida tasavvurini shakllantirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatishdan iborat. Faoliyat shunday tashkillashtirilib, “Ustoz-shogird” tizimini yaratish orqali:

- o'qituvchi-tyutor-talaba o'rtasida "teskari aloqa" o'rnatilib, yosh mutaxassislarda turli vaziyatlarga tez moslashuvchanlik, hayotiy va kasbiy faoliyat uchun zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi;

- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari rivojlantiriladi;

Turli loyihalarga yo'naltirilgan talabalarda jamoa bilan hamkorlikda ishlash va o'z g'oyalarini mustaqil amalga oshirish ko'nikmalari rivojlanadi. Bajargan ishlaridagi erishilgan natijalar, yutuqlar talabalarni rag'batlantiradi, boshqalarning ijobiy fikrlari ularni yanada faolroq bo'lishga undaydi. Ulardagi tortinchoqlik odatlari yo'qolib o'zligini isbotlashga bo'lgan istagi kuchayadi. Vertikal tizimda ishning to'g'ri tashkil etilishi talabalarning pedagogik ko'nikmasi, xulq-atvorida ijobiy fazilatlar shakllanib borishini ta'minlaydi. Birgalikda bajarilgan vazifalar va samimiy berilgan maslahatlar ustozlarga nisbatan ishonch va hurmat paydo bo'lishiga olib keladi.

Loyihalarni birga bajarish, tyutorlarni talabalarga yanada yaqinlashtiradi. Vazifani bajarishdagi o'z imkoniyatlarini ko'rsatishi, talabalar orasida ularning obro'sini oshiradi. O'qituvchilar bilan hamkorlik ularni ilmiy-tadqiqot ishlariga qiziqishlariga sabab bo'lishi mumkin. Loyihalar mazmunini chuqur anglagan talabalar uchun nafaqat o'qish davrida balki, o'qishni tamomlagach ham ushbu tajriba o'zining maqsadli hayot yo'liga ega bo'lishida dasturiy amal bo'ladi. Jamoada kreativ fikrlashga o'rganish tajribasi u hoh maktablar yoinki tashkilotlarda ish faoliyat ko'rsatishidan qaty nazar kelajakda albatta asqotadi. Bugunning davr talabi asosida innovatsion g'oya va loyihalarni taklif eta olib, uni amaliyotga joriy eta oladigan mutaxassis hech qaerda qoqilmaydi. Talabalarda ana shunday bilim, ko'nikma va tajriba hosil qilish muammosining yechimini topish zarurati jamoamiz uchun bugungi kunda asosiy vazifalardan biri bo'lishi lozim.

Ma'lumki, mashg'ulotlardan tashqari pedagogik faoliyatga oid kundalik yuklamalarni bajarish, ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish ma'suliyati yuqoriligi, o'qituvchilar uchun talabalar bilan turli tadbirlarda doimiy ishtirok etish imkoniyatlarini cheklaydi. Talabalar faollashtirilganda va tyutorlarning yordami ularning ishlarini biroz bo'lsa ham yengillashtiradi. Jamoaning hamkorlikdagi faoliyati, hamjihatligi fakultet rahbariyati uchun boshqaruv imkoniyatlarini kengaytiradi, yuqoridan kelgan topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi. Butun jamoada o'zaro tushunib ishlash, samimiy munosabatni kuchaytiradi. Faqat rahbariyatdan kelgan ko'rsatmalarni ko'r-ko'rona bajarishga moyilligi bor o'qituvchi-tyutor va talabalarni vazifalarni mustaqil bajarishga o'rgatadi.

Shundan kelib chiqib, fakultetda "Ustoz-shogird" tizimida rahbariyat-o'qituvchi-tyutor-talaba faoliyati muvofiqlashtirildi. Iqtidorli talabalarning qiziqishi, imkoniyatlari hamda ular bilan individual ishlash yo'nalishlari aniqlanib,

ularni ilmiy-ijodiy tadqiqotga yo'naltirildi, talabalarning alohida yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilim olishi uchun sharoit yaratildi. Kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun talabaning individual ta'lim traektoriyasi rejalashtirildi va "O'rgatib-o'rganamiz", "Bilim - harakat - natija", "Talimda innovatsiya (STEAM)" loyihalari asosida amaliyotga tatbiq etildi.

"Ustoz-shogird" an'analari asosida individual ta'limni amalga oshirishga qaratilgan "O'rgatib-o'rganamiz" loyihasi:

Loyihaning maqsadi: talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish;

- o'qituvchi-talaba-o'quvchi tizimida "o'zaro ta'sir kuchi"ni paydo qilish, nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish mexanizmini ishlab chiqish;

- ijodiy fikrlash, muammolarni aniqlash, uning eng optimal yechimlarini topishga o'rgatish natijasida:

- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari rivojlantiriladi;

"Bilim, harakat, natija" loyihasi

Muammo: Talabalarda o'ziga va imkoniyatiga bo'lgan ishonchning sustligi.

Loyihaning maqsadi: talabalarni mustaqil bilim olishga rag'batlantirish, ijodiy va kasbiy faolligini oshirish.

Yechim: talabalarning iqtidori va layoqatini aniqlash, ularning qiziqishi bo'yicha ilmiy-ijodiy hamda tashkiliy faoliyatga jalb etish.

Natija: talabalarda o'z imkoniyati va iqtidoriga ishonch hosil qilinib, mavjud muammolarni jamoa bilan hamkorlikda bartaraf etish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Talimda innovatsiya (STEAM) 3D loyihasi

Maqsad: PTK doirasida fanlar ichida va fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijasini amaliyotga joriy etish, talabalarni ijodkorlikka o'rgatish, o'quv jarayonini amaliyotga yo'naltirish

Vazifalari:

- professor-o'qituvchilar rahbarligi hamda nazoratida tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar, texnologiya, muhandislik grafikasi, matematika va tasviriy san'at yo'nalishi talabalari bilan hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash,

- 3d modellashtirish, robototexnika bo'yicha amaliy ishlanmalar bajarish, ulardagi sun'iy intellektni rivojlantirish.

- Har soxada kreativ fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega bo'lgan talabalarni aniqlash;

- Ko'zlangan natija: - yoshlar tomonidan yaratilgan yoki taqdim etilgan suniy intellekt, robototexnika, 3D modellashtirish takliflari orqali talim sohasida jamiyatga foydasi tegadigan g'oya, tashabbus, amaliy va innovatsion ishlanmalarni ommalashtirish;

- pedagogik ta'lim mazmuniga yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, STEAM ta'limi orqali fanlar integratsiyasini mustahkamlash;

- ilm va sanat yo'nalishi maqsadlarini birlashtirish orqali talabalarning kasbiy faoliyat ko'lamini kengaytirish, bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Mana shunday klaster yondashuviga fakultet jamoasining o'zaro hamkorligini ta'minlaydigan hamda fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini qaror toptiradigan samarali mexanizm deb qarash mumkin. Ushbu jarayonda barcha subektlarning tabiiy aloqadorlik tamoyili asosidagi hamkorligi rivojlantiriladi.

Yo'naltirilganlik tamoyili asosida amalga oshirilayotgan har bir faoliyat turi kutilayotgan natijalarni oldindan chamalash va baholash imkoniyati mavjud bo'lgan aniq maqsadga yo'naltiriladi.

Manfaatlar xususiyliigi tamoyili asosida har bir sub'ektning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo'lishi ta'minlanadi.

Hamkorlik o'zaro nazorat tamoyiliga tayanilgan holda tashkil etilib, har bir sub'ektning faoliyatni mustaqil baholash imkoniyati mavjud. Fakultetda hosil qilingan rahbariyat-o'qituvchi-tyutor-talabadan iborat ta'lim subektlarining o'zaro yagona tizimining nuqsonsiz ishlashi har bir ishtirokchi uchun manfaatli hisoblanadi. Ma'lum sub'ektning sustkashligi boshqa subektlar faoliyat samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Fakultetda birinchi qilingan vazifa: "Ustoz-shogird" tizimida moyilligi va layoqatiga qarab turli yo'nalishlarda talabalarni professor-o'qituvchilarga biriktirildi.

Universitet TA fakultet tarkibida Talabalar ijodiyoti klubi tashkil etildi. Klubning boshqaruv faoliyatini tizimlashtirish maqsadida 9 nafar iqtidorli, faol va yetakchi talabalar aniqlandi. Ulardan 1 nafari klub raisi hamda ilmiy tadqiqot va intellektual faoliyat, Musiqiy tadbirlar, Badiiy ko'rgazmalar, Sport ishlari, Art-terapiya ta'limi, Integratsion to'garaklar, Matbuot (bloggerlik), Ijodiy akademiya" jurnali talabalar bo'limi muharriri vazifalariga 8 nafar sektor yetakchilari tarkibi shakllantirildi. Bu bilan fakultetdagi iqtidorli, faol va yetakchi talabalarni jamoa bilan ishlash faoliyatiga yo'naltirishga erishildi. TIK yetakchilarini seminar-treninglar, ko'rgazma, tanlov, konsert, teatr, sport tadbirlari, zakovat, nima, qachon, qaerda? o'yinlari, Breyn-ring va h.k. ni tashkillashtirishga jalb etish orqali talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qo'rqmasdan, emotsional barqaror holatda yondashishiga imkoniyat yaratildi, boshqa fakultet, OTM talabalari bilan tajriba almashishi yo'lga qo'yildi.

Aynan, talabalar ijodiyoti klubi orqali talabalarni faollashtirish fakultet faoliyatini rivojlantirish uchun katta qadam bo'ldi deyish mumkin. Bundan tashqari, turli loyihalarga yo'naltirish talabalarni jamoa bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatdi. Tasviriy san'at va dizayn yo'nalishida TTJ uchun rantasvir

kompozitsiyalari, universitetimizga keladigan mehmonlar uchun suvenirlar tayyorlash bo'yicha avvaldan tajriba bor edi. Talabalarning qiziqishi kuchaygani bois ushbu faoliyat yanada kengaytirildi. Bir guruh talabalar qiziqishlariga ko'ra yangi g'oyalar ustida ishlab, kompyuterda tarixiy binolar, ko'rgazmali qurollar, maishiy buyumlar, klub emblemasi va ko'krak nishonini yaratishda ishtirok etishdi. Ular yaratgan tayyor loyihalar asosida boshqa talabalar 3D printerda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va bezatish bilan band qilindi.

O'tgan yillarda tamal toshi qo'yilgan badiiy kulolchilik to'garagi toboro talabalar bilan gavjumlashib bormoqda. Bunga sabab mana shu yilda bu to'garakning 3D modellashtirish va gumanitar fanlar yo'nalishi bilan integratsiyasi kuchaytirilishi bo'lsa kerak deb o'ylaymiz. Libos dizayniga moyilligi bor qizlardan fakultet talabalaridan iborat musiqiy orkestr, ansambl va raqqosalar uchun kiyimlarini loyihalashtirish va tikishga jalb qilindi hamda ular faoliyati uchun 2-TTJda qulay sharoit yaratib berildi. Musiqiy tadbirlar sektori tashabbusi bilan "Karaoke" studiyasida universitetdagi boshqa yo'nalish talabalarning ishtiroki yanada kengaytirildi. Mana shu o'quv yilida badiiy kulolchilik to'garagi ancha gavjumlashdi, chiqaradiga mahsulotlar ko'lami kengaydi. Talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlar ko'rgazmasini tashkillashtirish klubning badiiy ko'rgazmalar sektori yetakchisi hamda safdoshlari uchun zavqli mashg'ulotga aylandi. Ilmiy tadqiqot va intellektual faoliyat sektori yetakchisi hamda Ijodiy akademiya" jurnali talabalar bo'limi muharririning sa'yi harakatlari ilmiy to'garakda qatnashadigan talabalar sonining oshishiga sabab bo'ldi. Talabalarning yuqoridagi sektorlar va Art-terapiya ta'limi sektoridagi ishtiroki fakultetda ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlanishiga olib kelmoqda.

Integratsion to'garaklar sektorida talabalar tashabbusi bilan boshqa yo'nalish va maktablar bilan hamkorlik o'rnatilayotgan bo'lsa, sport ishlari sektori talabalar jamoasining sportga qiziqishini oshirdi. Matbuot (bloggerlik) sektori universitet saytlari, feyzbuk, instagram va telegram kabi ijtimoiy tarmoqlarda fakultetda amalga oshirilayotgan ishlar va yangiliklarning yoritilishi uchun xizmat qilmoqda.

"Har bir vazifa - foydali mahsulot" tamoyili asosida o'quv jarayoni, to'garaklar faoliyati amaliyotga yo'naltirildi. Amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, barcha kurs talabalari birgalikda ijod qiladigan "Ijodiy ustaxona" mashg'ulotlari, kompyuter grafikasi, badiiy kulolchilik, hayaltaroshlik, amaliy san'at, miniatyura to'garaklarida talabalarning ijodiy ishlari universitet, fakultet, kafedra, qolaversa talabaning o'zi uchun foydali mahsulotga aylantirib kelinmoqda. Ya'ni, aniq maqsad asosida talabalarning nazariy va amaliy bilimlari hamda ijodiy salohiyati orqali universitetdagi o'quv jarayoni yoki boshqa ob'ektlar uchun kerakli mahsulotlar ishlab chiqarila boshlandi. Masalan: universitet binosi, TTJ uchun

kartinalar, xorijiy va mamlakatimizdan kelgan mehmonlar hamda mahalliy aholi uchun suvenir mahsulotlari, OTM va maktablar uchun ko'rgazmali qurollar va h.k.

Foydali mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan faoliyat fakultetdagi fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlab berdi. "Ijodiy g'oyalar" yo'nalishida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohalarida ikki yildan buyon ijodiy ishlar yarmarkasi o'tkazish an'anaga aylandi.

Ko'rib turganingizdek fakultetdagi asosiy ishlarni talabalar o'z zimmasiga olgan desak bo'ladi. Lekin bu, butun jamoa uchun faqat talabalar ishlayapti degani emas. Tashkil etilgan har bir faoliyatda rahbariyat bilan birga o'qituvchi va tyutor sub'ektlarining ham alohida o'rni bor. To'g'ri tashkil etilgan vertikal tizim butun jamoa faoliyatining uyg'unligini ta'minlab berdi desak bo'ladi. Vazifalarning tajribali ustozlar va jonkuyar tyutorlar bilan birgalikda bajarilishi hamda samimiy berilgan maslahatlar talabalar uchun katta motivatsiya berdi. Bu bilan ustozlarga nisbatan ishonch va hurmat paydo bo'lidi, o'zaro munosabat mustahkamlandi. Umumiy faoliyat talabalarning pedagogik ko'nikmasi, xulq-atvorida ijobiy fazilatlar shakllanib borishiga ham ta'sir qildi. Faoliyat bo'yicha bajarilgan ishlaridagi erishilgan natijalar, yutuqlar talabalarni rag'batlantirib, yanada yanada faollashishiga olib keldi. Jamoada hamjihatlik kuchayishiga sabab bo'ldi. Iqtidorli, faol va yetakchi talabalarda o'ziga ishonch kuchaydi, tashkiliy ishlarda ma'suliyati oshdi va faollashdi, loyihalarda ishtirok etish uchun motivatsiya paydo bo'ldi, jamoa bilan ishlash, turli tadbirlarni tashkil etish, hujjatlarni yuritish bo'yicha ko'nikmasi shakllana boshladi;

San'atshunoslik fakultetida "Ustoz-shogird" an'analari bo'yicha "universitet-maktab" tizimida maktab o'quvchilari uchun talabalar rahbarlik qiladigan mini to'garaklar, o'quv kurslari, **KAMALAK-ART** festivali muntazam tashkil etib kelinmoqda. Bu festivalni tashkil etishda ham magistr va bakalavr ta'limida tahsil oladigan talabalarimizning hissasini alohida e'tirof etish mumkin. Bu tadbirlar juda ko'plab iqtidorli o'quvchilarning universitetga o'qishga qiziqishi, seleksiya ishlari amalga oshirilishiga olib keldi.

Yaqinda San'atshunoslik fakultetida "**3D modellashtirish va loyihalash (STEAM) ilmiy tadqiqot markazi**" hamda "ART STUDIO" ijodiy markazining ochilish marosimi o'tkazildi. Tadqiqot markazi kafedralardagi o'quv jarayoni va to'garaklarda yaratilgan ijodiy ishlar, ishlab chiqarilgan turli mahsulotlar **yarmarkasi** PTIK doirasida fanlar ichida va fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish, ilmiy-tadqiqot ishlari natijasini amaliyotga joriy etish, talabalarni ijodkorlikka o'rgatish, o'quv jarayonini amaliyotga yo'naltirish maqsadida tashkil etildi.

"**ART STUDIO**" ijodiy markazining ochilishidan maqsad esa PTIK doirasida umumta'lim maktablari va mahalla hamkorligini mustahkamlash, ish bilan band

bo‘lmagan yoshlar va maktab o‘quvchilarini san‘at va kasb-hunarga qiziqtirish, ijod bilan shug‘ullanishlari uchun qulay muhit yaratish, universitet talabalarining nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlab borishlari uchun sharoit yaratishdan iborat.

2023 yil AO “Gamma TD” va Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘rtasida tasviriy san‘at sohasida ijodkorlikni rivojlantirish, milliy an‘analar va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, yosh avlodning zamonaviy san‘atda madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishiga ko‘maklashishiga qaratilgan hamkorlik memorandum imzolangan edi. O‘zaro kelishuv asosida xorijlik hamkorlarimiz 1 yilda 5 marta o‘tkaziladigan tanlovlarda talabalar va maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida fakultetimizga 50 000 000lik turli badiiy bo‘yoqlar, mo‘yqalam, qalam, akvarelda ishlash uchun albomlardan iborat mahsulotlar yetkazib berishdi.

Umumiy xalosa qilib aytish mumkinki, vertikal va gorizantal tizimda sub’ektlar faoliyatini muvofiqlashtirish natijasida:

Xulosa: PTIK faoliyati bo‘yicha nazariy jihatlar tahlil qilinib, professor-o‘qituvchilar va talabalar klaster yondashuvining afzalliklari, uning mohiyatini anglab yetishiga erishildi hamda vertikal va gorizantal tizimda butun jamoa faollashtirildi;

- fakultetdagi deyarli barcha talabalar “Talabalar ijodiyoti” klubi faoliyatiga jalb etildi, barcha kurs talabalarining ijodiy hamkorligi yo‘lga qo‘yiladi;

- STEAM ta’limi, ilmiy-ijodiy to‘garaklar, Art-studio, teatr-studiyasi, qo‘shimcha kasb-hunar berish kurslarida ishtirok etayotgan talabalar soni 2 baravar oshdi;

- ta’lim-tarbiya jarayoni o‘zaro integratsiya asosida tashkil etilib, maqsadli faoliyatga yo‘naltirildi deb bimalol aytish mumkin.

Klaster usuli orqali tasviriy san‘at ta’limini integratsiyalash imkoniyatlari

Hozirgi shiddatli globallashuv jarayonida yangi innovatsion texnologiyalar tufayli butun jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sari yuzlanmoqda. Bu kabi mehnat bozorida vujudga kelayotgan o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan har bir sohada raqobatdosh, yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirib bormoqda. Jahon sahnasida ro‘y berayotgan bu jarayonlar ta’lim sohasiga ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda. Har qanday mamlakat tarixiy rivojlanishining yangi sharoitida mavjud muammoning o‘z vaqtida samarali hal qilinishi, mamlakat kelajagini yaratishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Bunday sharoitda ta’lim tizimini muntazam yangilab borish ob’ektiv zaruratga aylanadi.

Pedagogika fani necha asrlar davomida rivojlanib, juda boy tajriba asosida insoniyat taraqqiyotiga munosib xizmat qilib kelayotir. Shu vaqtgacha qanchadan-

qancha pedagog-ustozlar tomonidan davr, sharoitga qarab yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bo'yicha turli usul va metodlar qo'llanib kelingan. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida pedagogik bilimlarni egallashga yo'naltirilgan kompetensiya modullarining mazmuni zamonaviy sharoitga mos va oddiydan-murakkabga qarab ma'lum izchillikda takomillashib borilishini nazarda tutadi. Shunga ko'ra, bugungi kunda pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq o'quv modullarining nomenklaturasi va mazmunini o'z vaqtida yangilash (ta'lim klasteri orqali modernizatsiyalash)ga e'tibor kuchayganini kuzatish mumkin. Shuningdek, talabalarning zarur kompetensiyalarni egallashlarida pedagoglar uchun ular bilan individual ishlash rejasini ishlab chiqishga ham muhim vazifa sifatida qaralmoqda.

Bu yerda sifatli ta'lim va raqobatga chidamli kadr tayyorlash, oliy ta'lim muassasasi (OTM) hamda ish beruvchining ehtiyoji, maqsadi va manfaatlaridan kelib chiqib nomutanosiblikdagi farqni qisqartirish uchun mavjud iqtisodiy va madaniy sharoitlarni hisobga oladigan, o'zaro hamkorlikka asoslangan innovatsiyalar juda zarur.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotda boshqa sohalarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan klaster usulini tasviriy san'at sohasiga integratsiyalash, klaster usulining nazariy asoslari, shuningdek, uning ijodkorlikni rag'batlantirish, fanlararo hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan muhitda ta'lim tajribasini oshirish imkoniyatlarini yoritish maqsad qilib belgilangan.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Mintaqaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishning muhim manbai sifatida xorijiy davlatlarda amaliyotga tatbiq etib kelinayotgan ta'lim klasterlari rivojlangan mamlakatlarning xalqaro ta'lim xizmatlari bozoridagi faol ishtiroki va raqobatbardoshligini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilayotganligi ko'p e'tirof etilmoqda. O'tgan asr o'rtalarida Kaliforniya shtati Silikon vodiysida yirik shaharlar va universitetlar hamda ko'plab yuqori texnologiyali kompaniyalarni birlashtirgan dunyodagi eng mashhur klasterlardan biri tashkil etilgan edi. Stenford universitetining o'z yerlarini kompaniya ofislari uchun ijaraga berish to'g'risidagi qarori bu hududda klaster rivojlanishi uchun muhim qadam bo'ldi. Natijada bitiruvchilar uchun tezda o'zlari xohlagan ishga joylashish imkoniyati paydo bo'ldi, kompaniyalar esa yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'lishdi. Hozir bu jahondagi eng yirik global ilmiy va texnologik markaz bo'lib, jumladan u yerda Apple, Facebook, Electronic Arts, Adobe, Xerox va boshqa mashhur shtab-kvartiralar joylashgan¹. Rivojlangan davlatlarda bunday klasterlarga misollar ko'p va ular yo'nalishiga qarab bir-biridan farqlanadi.

1-jadval.

¹ <https://secretmag.ru/slova/chto-takoe-klaster-obyasnyaem-prostyimi-slovami.htm>;

Mamlakatlarda tatbiq etilgan klaster modellari²:

Mamlakat	Tavsifi
Italiya modeli	Sanoat klasterida o'z raqobatbardoshligini oshirish uchun turli uyushmalarga birlashgan ko'p sonli kichik firmalardan iborat
Yapon modeli	Klasterda ishlab chiqarishning yuqori ko'lamiga ega bo'lgan yetakchi firma mavjud va ushbu firma texnologik zanjirning turli bosqichlarida ko'p sonli yetkazib beruvchilarni birlashtiradi
Finlyandiya modeli	Yuqori darajadagi biznes va innovatsiyalarni xalqarolashtirish imkoniyatiga ega klasterlar mavjud
Shimoliy Amerika modeli	Firmalar o'rtasidagi raqobat yaqqol ko'zga tashlanadi, aksariyat munosabatlarni shakllantirish va vositachilik qilishda bozorning ahamiyati katta
Hindiston-Xitoy modeli.	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosiy ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali zamonaviy texnologiyalar kirib keladi hamda mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqishni ta'minlaydi
Sovet modeli	Hududiy-ishlab chiqarish majmualari. Bozor munosabatlari va raqobat minimallashtiriladi, ishlab chiqarish yirik firmalarda jamlanadi.

Rus olimlaridan G.U. Matushanskiy hamda boshqa mualliflar ham AQSh bugungi kunda ham ushbu bozorda barqaror yetakchi bo'lib qolayotgani, eng raqobatbardosh ta'lim klasterlari aynan Kaliforniya, Nyu-York, Massachusets, Pensilvaniya, Nyu-Jersi va boshqa shtatlar hududida joylashganligi haqida xulosa berishadi. Yana ushbu mualliflar tomonidan turli mamlakatlarda tatbiq etilgan klaster modellari tahliliga oid jadvalda quyidagi ma'lumotlar taqdim etiladi. Unda asosan ishlab chiqarishga tegishli umumiy modellar: italyan, yapon, Finlyandiya, Shimoliy Amerika, Hind-Xitoy va Sovet modeli³ haqida gap boradi.

Ta'linga mana shunday yangicha yondashuv butun dunyoda ommalashib, borgan sayin ko'plab olimlarning diqqat-e'tiboriga tushib bormoqda. Bu haqda O.L. Ksenofontova o'z tadqiqotlarida, bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda (Singapur, Xitoy, Vengriya, Polsha, Chexiya va boshqalar) tashkil etilgan ta'lim klasterlari tobora shakllanib, rivojlanib borayotganligini ta'kidlaydi⁴. Yevropa

²<https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-territorialnye-obrazovatelnye-klastery-zarubezhnyy-i-otchestvennyy-opyt> Г. У. Матушанский, Р. Р. Гарифуллина, Р. Ф. Бакеева Инновационные территориальные образовательные кластеры: зарубежный и отечественный опыт.

³ Алейникова И.С Модели организации региональных промышленных кластеров: обзор международного опыта / И.С. Алейникова, П.В. Воробьев, и др. // Аналитический доклад №2 – Центр региональных экономических исследований экономического факультета УрГУ, Екатеринбург, 2008. - 31с.

⁴ Ксенофонтova О.Л. Опыт зарубежных стран по созданию и функционированию кластеров: модельный подход // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. - 2015. - №2(42). - с. 39.

Klaster Assotsiatsiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida eksport hajmi, ish haqi va boshqa yo'nalishlarda innovatsion rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan 69 ta ta'lim klasterlari faoliyat ko'rsatmoqda. Eng rivojlanganlari Oksford, Varshava, Amsterdam, London, Parij va boshqa Yevropa shaharlaridagi ta'lim klasterlari hisoblanadi.

Ijodiy hamda noodatiy fikrlaydigan, barkamol va to'laqonli shaxsni tarbiyalashga qaratilgan ta'lim klasterlarini shakllantirishda yirik milliy universitetlarning faol ishtirokiga katta ahamiyat qaratilishi bo'yicha Yaponiya AQSh usuliga juda yaqin yo'l tutadi. Tokio hududida Yaponiya universitetlari umumiy sonining beshdan bir qismini tashkil qiluvchi 120 dan ortiq universitetlar mavjud bo'lib, klaster hamkorligi doirasida bu mamlakatda eng yirik sanoat shaharsozlik majmuasi, jahonga mashhur moliya markazi va yangi texnologiyalar markazi yaratilishiga hissa qo'shdi⁵. Bu yerda tadqiqotchilar va innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik qilish uchun tadqiqot tarmog'ini yaratish eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yaponlar boshqa mamlakatlarda yaratilgan original ishlanmalar, ishlab chiqarish va ta'lim faoliyatini tashkil etishning yangi shakldagi modellarini milliy mazmun bilan to'ldirgan holda ajoyib natijalarga erisha oldi.

Rossiya Federatsiyasida ham xorijiy tajribalarga asoslanib ta'lim tizimini modernizatsiya qilish uchun innovatsion yondashuvlardan keng foydalanib kelinayotganligini kuzatish mumkin. Erishilayotgan natijalar innovatsion va mehnat bozorining hozirgi talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda mintaqaning sharoit va muhiti, ishtirokchilarning vazifasi, o'rni va harakatlarini hisobga olib ta'lim klasterlari izchil, bosqichma-bosqich tashkil etilib kelinayotganligini taxmin qilish mumkin. N.P. Ketova va boshqa mualliflar o'z maqolalarida klasterlarni tashkil etuvchi elementlar turli xil tashqi hamda ichki aloqalar bilan bir-biriga bog'langan bo'lib, bu ularning o'zaro ta'sirini kuchaytiradi⁶ deya uning afzalliklarini ajratib ko'rsatadi. Shuningdek, ularni rag'batlantirishda universitetlar muhim o'rin tutishini hamda hozirgi vaqtda Rossiyaning Tatariston Respublikasi hamda sharqiy mintaqalarida (Sibir) innovatsiyalarga yo'naltirilgan hududiy klasterlarni faol qo'llab-quvvatlanayotganini ta'kidlaydi. Klaster tizimi yanada faollashib, xorijiy mamlakatlarda keng tarqalib borayotganligi ushbu yondashuvining qanchalik samarador ekanligini tasdiqlab turibdi va tadbirkorlik sektori, hukumat, savdo birlashmasi, ilmiy-tadqiqot va ta'limni hamda innovatsion jarayonni tashkil etishda

⁵ Ou Syaoszyun Исследование развития университетских кластеров высокого уровня в районе Большого залива мирового класса: на примере Нью-Йорка, Сан-Франциско и Токио // Журнал Сычуаньского университета науки и технологий (издание по социальным наукам). - 2018. - №33. - с. 83-100.

⁶ Ketova, N.P., & Vey, S. (2021) Educational clusters in Russia and China: formation, management, development strategies. *Creative Economy*, 15(2), 393-410. doi: 10.18334/ce.15.2.111647 (in Russian).

samarali hamkorlik qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi⁷ - deb ta'kidlaydi bir guruh rus olimlari o'z maqolalarida.

Xitoy davlatida klaster yondashuviga asoslangan universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, turli soha kompaniyalari, venchur fondlari kabi vositachi tuzilmalar o'rtasida o'ziga xos strategik hamkorlik mexanizmi ishlab chiqilgan. Bu esa butun dunyoda tan olingan yirik innovatsion va ta'lim klasterlari qatorida o'z o'rniga ega bo'lishi hamda natijalarning samaradorligini ta'minlab berdi. Turli hamkorlik shakllarining uyg'unlashishiga qaratilgan qulay muhit innovatsion va ta'lim klasterida ishtirokchilarni umumiy maqsad sari birlashtiruvchi omil bo'lib xizmat qildi. O'z o'rnida mana shunday o'zaro hamkorlik mamlakat taraqqiyotida yuqori sifatli ta'lim xizmatlarining ulushini oshirdi⁸.

Maqolaning ilmiy mohiyati ta'lim tizimimizda integratsiya jarayonlari va ta'limni boshqarish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi yondashuv – ta'lim klasterining zarurati va afzalliklarini tasviriy san'at predmeti misolida ilmiy nuqtai nazardan asoslashda ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot ob'ekti. Tadqiqot ob'ekti sifatida uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, umumta'lim va san'at maktablarida mavjud muammolarga klaster yondashuvi orqali yechim topish belgilandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish, kuzatish, loyiha metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va amaliy misollar. Albatta, ilg'or xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo'llanib kelinayotgan ta'limga nisbatan innovatsion yondashuv bizning yurtimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Oxirgi besh yillikda O'zbekistonda ham innovatsion yondashuv sifatida ta'lim klasteri rivojlana boshladi. Ayniqsa, qisqa muddat davomida yangi tashkil etilgan OTMlardan biri Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta'lim klasterining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, ushbu mavzuda anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Taniqli olimlardan biri G.I. Muxamedov o'z tadqiqotlarida klaster yondashuvini amalga oshirish bilan ilm-fan oldida turgan asosiy muammolardan biri bo'lgan ta'lim tizimidagi uzviylik va uzluksizlik ta'minlanib, aloqadorlikni kuchaytiradi, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari mustahkamlanadi⁹ degan fikrni o'rtaga tashlaydi.

Respublikamizda ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borgan olim U.N. Xodjamqulov klaster hamkorligi ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari

⁷<https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-territorialnye-obrazovatelnye-klastery-zarubezhnyy-i-otchestvennyy-opyt#:> Г. У. Матушанский, Р. Р. Гарифуллина, Р.Ф. Бакеева. Инновационные территориальные образовательные кластеры: зарубежный и отечественный опыт.

⁸ Ketova, N.P., & Vey, S. (2021) Educational clusters in Russia and China: formation, management, development strategies. *Creative Economy*, 15(2), 393-410. doi: 10.18334/ce.15.2.111647 (in Russian)

⁹ Mukhamedov G., Khodjamkulov U., Shofkorov A. & Makhmudov K. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>

o'rtasidagi tarqoqlikni bartaraf etish uchun zarurligini ta'kidlagan holda ta'lim klasterini – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm¹⁰ - deb ta'riflaydi. Darhaqiqat, mamlakatimizda bu borada birinchi poydevor qo'yilib, ta'lim klasterlari haqida umumiy tushunchalar hosil qilingan bo'lsada, uni yanada torroq yo'nalishlarda sinchiklab o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etish uchun ehtiyoj juda yuqori. Ilg'or xorijiy tajribalarni yurtimizda mavjud bo'lgan an'analar bilan uyg'unlashtirgan holda mamlakatimizda klaster yondashuvining milliy modelini yaratish bugungi davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda hali tadqiq qilinadigan vazifalar juda ko'p. Ushbu texnologiyalarni har bir yo'nalish va sohalarda qo'llash imkoniyatlari ustida izlanishlar olib borish, mavzuga yoshlarni kengroq jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, klaster metodi o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvi bo'lib, turli sub'ektlarning aloqadorligi asosida bir tizimga to'plash imkonini beradi. Talabalarni ilmiy-tadqiqot, kasbiy-ijodiy sohaga qiziqtirish va faollashtirish uchun ushbu yondashuvdan tasviriy san'at yo'nalishida qanday foydalanish mumkin? degan savol tug'iladi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik oliy ta'lim sohasida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga sifatli bilim berish hamda ularning kreativligini rivojlantirish innovatsion yondashuvlarni talab qilishi hammamizga ma'lum. Ushbu maqolada biz yuqoridagi savollarga javob izlagan holda, boshqa sohalarda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan klaster yondashuvi orqali tasviriy san'atni boshqa fanlararo va fanlar ichida integratsiyalash imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Shuningdek, klaster usulining nazariy asoslari, uning ijodkorlikni rag'batlantirish, fanlararo hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan muhitda ta'lim tajribasini oshirishdagi ahamiyatini o'rganamiz.

Klaster - bu bizning fikrimizcha, har bir ishtirokchining o'z manfaatlaridan kelib chiqib birgalikda umumiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik faoliyati¹¹dir. Bundan tashqari klaster yondashuvi ob'ektlarni o'xshashliklari asosida guruhlash uchun ishlatiladigan usul deyish ham mumkin. U ta'limga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda talabalarni klasterlar deb ataladigan kichik guruhlarga birlashtirishga asoslanadi. Tasviriy san'at sohasida klaster usulidan faqat ta'lim sub'ektlari hamkorligidagina (OTM-maktab-MTM)

¹⁰ Ходжамкулов У.Н. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери (Ўзбекистон таълим тизими мисолида). Academic research in educational sciences, (4), 537-547.

¹¹ Sultanov X.E. Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi asosida takomillashtirilgan o'qitish texnologiyalari (oliy va umumiy o'rta ta'lim hamkorligi misolida)// Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Chirchiq – 2023. 212 b.

emas, balkim, rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika kabi tasviriy san'at turlarini birlashtirish uchun fanlararo integratsiya sifatida ham foydalanish mumkin. Bunda talabalar hamda o'quvchilar turli san'at turlari hamda fanlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi, integratsiyalashuv usulidan yanada takomillashgan va qiziqarli san'at asarlarini yaratishda qanday foydalanish mumkinligini yaxshiroq tushunib olishadi.

Shuningdek, bu yondashuv ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan "Ustoz-shogird" an'analari asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu usul bugungi zamonaviy talablar asosida individual ta'limni to'g'ri tashkil etishga yordam beradi va talabalar o'rtasida o'zaro faol munosabatlarni rag'batlantiradi.

Klaster usuli tasviriy san'at o'qituvchilariga talabalarning malakalari, ishlash uslublari va qiziqishlaridagi farqlarni bir-biriga moslashtirish imkonini beradi. Faqat tor yo'nalishda ijod qilishni ko'zda tutadigan professional rassom faoliyatidan farqli ravishda, pedagog rassomning kasbiy mas'uliyati ikki baravar ko'p mehnat talab qiladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi ham kasbiy pedagogik faoliyat, ham ijodiy faoliyat olib borishga majbur. Chunki, ijodiy faoliyatning ichiga kirmagan nazariyotchi o'z o'quvchilariga kerakli amaliy bilimni bera olmaydi. Agar u juda iqtidorli rassom bo'lsada, pedagogik mahorati yo'q bo'lsa, kerakli bilimni berish uchun ta'limda bu ham jiddiy muammo hisoblanadi. Professional rassom rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi yo'nalishda ijod qilib, faqat bitta yo'nalish bo'yicha ishlaydi va o'z mahoratini namoyon qiladi. Tasviriy san'at o'qituvchisi esa rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati va san'atshunoslik bo'yicha bilimlarga ega bo'lib, o'z bilimlarini keng ma'noda yoshlarga mukammal tarzda yetkaza olishi zarur. U ushbu yo'nalishlarining barchasini nazariy jihatdan mukammal bilishi va tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha amalda o'z shogirdlariga mahorat darsi ko'rsata olishi lozim. Bu esa juda og'ir masala va tinimsiz mehnat, izlanuvchanlikni talab etadi. Ijodiy sohada orqada qolmaslik uchun pedagog-rassom rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik yoki amaliy bezak san'ati bo'yicha o'z iqtidorini ko'rsatishga harakat qiladi. Uning ijodiy iqtidori badiiy amaliyotni o'rgatishda juda katta foyda berishi mumkin. O'quvchi ustozining to'g'ri yo'l ko'rsatishi hamda mahorat darslariga asoslangan ijodiy faoliyatidan ilhomlanadi, unga o'xshashga harakat qiladi va o'rnak oladi. O'quvchilardagi tasviriy san'atning ma'lum bir turiga nisbatan qiziqishining ortishi, kelajakda ushbu sohani tanlashiga turtki bo'ladi. Chunki, har bir bola o'z ehtiyojlariga ko'ra maqsad tanlaydi.

Klaster usuli turli san'at turlari o'rtasida, tasviriy san'at ichidagi qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, haykaltaroshlik, amaliy san'at hamda tasviriy san'atning adabiyot, tarix, pedagogika, psixologiya, texnologiya kabi fanlar bilan

hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi kunda zamonaviy mehnat bozori o'qitish usullari mazmunidagi doimiy o'zgarishlar, moslashuvchanlik tamoyillariga asoslangan birdamligini talab qiladi. Bu o'zgarishlar fanlarning zamonaviy rivojlanishidagi muhim jarayonlar - ularning integratsiyasi va differentsiatsiyasi tufayli yuzaga keladi¹². Fanlararo uzviylik va uzluksizlik hamda integratsiyani ta'minlash uchun klaster yondashuvi vositasida ular o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mexanizmi shakllantirilishi lozim. Bu yerda fanlar o'rtasidagi bir-biriga bog'liq mavzuga asoslangan umumiy loyihalardan unumli foydalanish mumkin. Masalan: Chirchiq davlat pedagogika universiteti (ChDPU) San'atshunoslik fakulteti tomonidan universitet pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (PTIK) doirasida fanlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish bo'yicha hamkorlikda bitiruv malakaviy ishlari (BMI) bajarish taklifi mana shunday mexanizm yaratish uchun qo'l keladi deb o'ylaymiz. Integratsiya tasviriy san'at, musiqa, adabiyot tarix, pedagogika, psixologiya, biologiya, matematika, informatika va boshqa fan sohalari bo'yicha ijodiy tajriba almashinuvni rag'batlantiradi, bu esa o'z navbatida talabalarda innovatsion g'oyalar paydo bo'lishi hamda yangi loyihalar ustida ishlashi uchun turtki bo'lishi mumkin.

Turli yo'nalish talabalari birgalikda O'zbekistonda tarixiy shaxslar, sarkarda va milliy qahramonlar obrazini yaratish, hayotiy faoliyatlarini o'rganish bo'yicha umumiy maqsadga yo'naltirilgan mavzular asosida bitiruv malakaviy ishlari bajarish jarayoni o'zaro integratsiya hamkorligini paydo qiladi. Bunda har xil fakultet talabalari o'ziga tegishli soha bo'yicha bir mavzu atrofida ilmiy-ijodiy tadqiqot olib borishadi. Turli yo'nalish bitiruvchilari tarixiy shaxslar faoliyatining ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan qirralari, milliy qahramonlarning yurtimizdagi ilm-fan, davlatchilik va harbiy salohiyati, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi, o'zbek adabiyoti va pedagogikasidagi o'rnini o'z sohasiga tegishli qismini tahlil qilishadi. (*Izoh: bizning fikrimizcha, BMI'dagi hamkorlik yo'nalishi uchtadan ko'p bo'lib ketishi kerak emas*)

Alohida o'quv reja va dasturlar asosida ishlovchi, turli yo'nalishlarda tahsil olayotgan, ushbu fanga nisbatan dunyoqarashi har xil bo'lgan talabalarni bir mavzu asosida ishlashga jalb etish juda qiyin kechadi, albatta. Bu jarayonni muvofiqlashtirish uchun BMI rahbarlari va mavzusi bir-biriga yaqin bo'lgan bitiruvchilar ishtirokida kichik seminar-maslahat uchrashuvlari o'tkazib turilishi lozim. Fakultet, kafedra tomonidan bunday uchrashuvlar uchun yaratib berilgan sharoit, bitiruvchilarda tanlagan mavzusiga nisbatan qiziqishini yanada kuchaytiradi, ilmiy-tadqiqot olib borish uchun motivatsiyani oshiradi, hamkorlikda ishlashga rag'batlantiradi. Bu esa talabalarni bilim egallash uchun faollashtirib, fanlar o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi. Faoliyat yo'lga qo'yilgandan keyin

¹² <https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-disttsiplin-v-uchebnom-protssesse>:

talabalar ko‘proq o‘z tengdoshi bo‘lgan boshqa yo‘nalish talabasi bilan muloqot qila boshlaydi. Bir-biriga maslahat beradi, mavzuni muhokama qiladi. Bu yerda “talaba-talabaga-ustoz, talaba-talabaga shogird” tamoyili ishlaydi. BMI rahbarlari o‘rtasida ham tajriba almashinadi, universitetda BMI bajarish strukturasi bir tizimga keladi. Bitiruvchiga boshqa yo‘nalishda bajarilayotgan BMI ishi strukturasi, uning mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoni yaratiladi. Shuni ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, an’anaviy BMI bajarish jarayonida talabalar faqat o‘z sohalariga tegishli mavzularni o‘rganish bilan cheklanishadi. Bunday yondashuv talabalarning boshqa yo‘nalishlarda bajarilayotgan BMIlar mazmuni bilan tanishishlari uchun sharoit yaratadi. Hech qanday tazyiqsiz, ortiqcha ko‘rsatmasiz har bir yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar uchun yangi usul va metodlar kirib keladi. Eng asosiysi bu yerda butun fakultet, kafedra jamoasi bosh qotirishi shart emas, BMI rahbari va talabaning boshqa yo‘nalishlar bilan oddiygina hamkorlik faoliyati BMI bajarish qoidalariga ijobiy ta’sir qiladi.

Klaster yondashuvi doirasida ularning har biri o‘z yo‘nalishida erkin va mustaqil izlanish olib borish bilan birga BMI mavzusi bo‘yicha hamkorlarini o‘zi to‘plagan ma’lumotlari bilan tanishtirib borishadi.

Tasviriy san’at yo‘nalishi talabalari yuqoridagi yo‘nalishlarda to‘plangan ma’lumotlarga tayangan holda tarixiy voqelikni ijodiy tahlil qilgan holda original asarlar yaratishadi. Boshqa yo‘nalish talabasi tasviriy san’at asari eskizlari muhokamasida bevosita ishtirok etadi va bu jarayonda o‘z fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashadi.

Tarix yo‘nalishi talabalari undagi tarixiy voqelik, kiyimlar, milliy qadriyatlarimizga tegishli urf-odatlar, o‘sha davr buyumlari to‘g‘risida maslahatlar berishi mumkin.

Pedagogika yo‘nalishi talabasi esa to‘plagan ma’lumotlari asosida ushbu davrga tegishli qo‘lyozma adabiyotlar, ta’limning tashkil etilishi, Ustoz-shogird tizimi haqida bilimlari, kartina yaratishda o‘sha davr muhiti va voqelikga doir aniq faktlar haqida o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlashadi.

Adabiyot (arab tili, tojik tili, ingliz tili) bo‘yicha yosh mutaxassislar to‘plangan ma’lumotlardagi yozma ma’lumotlarning asl mazmunini ochib berishda yordam berishadi. Masalan: topilgan manbada yozuv eski arab tili yoki fors tilida bo‘lishi mumkin, uni haqqoniy va o‘z o‘rnida tasvirlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ushbu soha mutaxassislarga bog‘liq bo‘ladi.

Falsafa yo‘nalishi talabalari bilan ramzlar, psixologiya yo‘nalishi talabalari bilan kartinadagi rang psixologiyasi, matematiklar bilan oltin kesim qoidalari yanada mukammallashadi. Bunday hamkorlik tasviriy san’atda yaxshi, mukammal asar yaratilishiga olib keladi.

Bu jarayonda qolgan yoʻnalish bitiruvchilari faqat tasviriy sanʼat uchun ishlar ekanda degan fikrga borish kerak emas. Bu yerda har bir soha egasi boshqalarga yordam berar ekan, umumiy faoliyatdan oʻzi uchun kerakli bilimni ajratib olishga intilishi lozim. Buning uchun faqatgina xohish, oʻzaro hurmat, bir-birini toʻgʻri tushunish va birdamlik talab etiladi. Men oʻz mutaxassisligim boʻyicha fikr yuritayapman va boshqa fanlarning integratsiyasi bizning yoʻnalishimizda taʼlim sifatiga ijobiy taʼsir qilishini bilaman. Bu oʻrinda “birikkan oʻzar, birikmagan toʻzar” dega ajdodlarimiz oʻgitini yodga olish kifoya.

Biz gʻururlanib eslaydigan buyuk ajdodlarimiz faqat oʻz sohamni rivojlantiraman, qolganlarini tan olmayman degan prinsipdan juda yiroq boʻlishgan. Buyuklarning keng qamrovli qomusiy bilimlarni egallaganligi barchamizga tarixdan maʼlum. Bilimni chuqurroq egallash hamda u asosida ijod qilish, yaratishga qiziqishi bor har qanday insonda tafakkur qilishi va badiiy tasavvuri tarbiyalanadi. Bundan ham koʻrinib turibdiki, ilm-fan yutuqlarida badiiy ijodkorlikning xizmati juda katta.

Inson faoliyatida barcha sohalar muhim, shu jumladan, insoniyatning ijtimoiy, madaniy, hatto iqtisodiy rivojlanishida ham tasviriy sanʼat ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixga nazar tashlaydigan boʻlsak, ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirga qadar jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tasviriy sanʼatning munosib oʻrni boʻlganligini koʻramiz. Tarixiy dalillar, maʼlumotlarda qayd etilishicha, deyarli juda koʻplab ixtirolar kashf etilishida musiqachilar, rassomlar, yozuvchilar yoki shoirlarning ham oʻrni katta boʻlgan. Albatta, biz ushbu ixtirochilarning asosiy kasbi musiqachi, rassomlar, yozuvchi yoki shoir deb ayta olmaymiz. Lekin, yuksak choʻqqilarga erishish uchun ular ushbu sanʼat turlarini ham alohida eʼtibor bilan oʻrganishgan. Azaldan intellektual badiiy ijodning bilim olish va amaliyot yondashuvi doirasida vujudga kelgan juftligi fan hamda sanʼat sohasidagi inson ijodiy faoliyatining oʻziga xos farqlarini topishga qiziqqan tadqiqotchilarning eʼtiborini tortib keladi¹³. Bunga buyuk ajdodlarimiz: Mamun akademiyasi asoschilari Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino, Farobiy, yurtimiz hududida ikkinchi Renessans namoyayondalari Ulugʻbek, ali Qushchi, Navoiy, Boburlarni misol keltirish mumkin. Beruniy oʻzidan matematika, astronomiya, fizika, botanika, geografiya, umumiy geologiya, mineralogiya, etnografiya, tarix, xronologiya va boshqa fanlarga oid bebaho asarlar qoldirgan. Bu roʻyxatni yana jahon sivilizatsiyasiga oʻzlarining munosib hissalarini qoʻshgan quyidagi geniy insonlar ismi bilan uzoq davom ettirish mumkin:

- Xorijiy olimlar: Yevropa Uygʻonish davri sanʼatining eng yirik vakillaridan biri, "universal odam"ning (lot. homo universalis) yorqin namunasi

¹³ Султанов Х.Э. Тасвирий санъатнинг ўқувчилар интеллектуал-ижодий салоҳиятига таъсири // “Замонавий таълим / Современное образование” илмий-амалий оммабоп журнали, 2022, № 9. - 50-57 б.

Leonardo da Vinchi - italyan rassomi (rassom, haykaltarosh, me'mor) va olim (anatomiya, tabiatshunoslik), ixtirochi, yozuvchi, musiqachi¹⁴.

- Mixail Lomonosov mexanika, fizika, ximiya, metallurgiya, geologiya, astronomiya, geografiya sohalaridagi xizmatlari bilan bir qatorida buyuk ixtirochi sifatida ham dunyoga tanildi. Tilshunoslik, poeziyaga qo'shgan hissasi tufayli u zamonaviy rus adabiy tili asoschisi deb tan olinadi. Shu bilan bir qatorda rassom, tarixchi sifatida mahalliy ta'lim, fan va iqtisodiyotni rivojlantirgan, Rossiyada birinchi universitetni tashkil etgan buyuk olim hamda fan va madaniyat arbobidir.

Shoir va adabiyotshunos Galiley, skripkachi, ixtirochi Eynshteyn, morze alfaviti ixtirochisi va portretchi rassom Semyuel Morze, "Alisa mo'jizalar olamida" kitobidagi ilustrasiyalar muallifi, rassom va matematika fanlari professori Lyuis Kerroll, grafik rassom va optik fizika sohasi olimi, teleskop ixtirochisi Robert Vilyams Vud, rassom, insulin kashfiyotchisi, Nobel mukofoti sohibi Frederik Banting, penitsillin dorisi va san'atda "bakteriyalar rangtasviri" deb nomlangan yangi yo'nalishni kashf etgan Aleksandr Fleming, kvant fizikasi va "nyu" janridagi kartinalar sohibi, Nobel mukofoti laureati Richard Fillips Feynman, geliobiologiya asoschisi, shoir, musiqachi va rassom Aleksandr Chijevskiy, impossibilizm (yoki imp-art – g'ayrioddiy san'at) yo'nalishi asoschisi, algebra va geometriya darsliklariga ilustrasiyalar ishlagan rassom, kartinalari matematika dunyosining bir qismiga aylangan olim Maurits Kornelis Esher, differensial geometriya va topologiya yo'nalishi olimi, Mixail Bulgakov asarlariga ishlangan ilustrasiyalari bilan mashhur bo'lgan grafik rassom Anatoliy Fomenkolar aynan tasviriy san'atning har xil janrlarida ijod qilish bilan birga olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirishgani ko'pchilikka ma'lum. Bu ro'yxatni jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan boshqa geniy insonlar ismi bilan yana uzoq davom ettirish mumkin.

Bundan shunday xulosa qilish mumkin. Bir nechta fanlardan chuqur bilimga ega bo'lgan, fanlarning integratsiyasidan unumli foydalangan shaxsda yuqori cho'qqilarga erishish imkoniyatlari ko'p ekan. Turli fan sohaları mutaxassislarining klaster yondashuvida o'zaro hamkorlikda ishlashi, mana shunday samarali integratsiya uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, BMI bajarish bo'yicha turli yo'nalishlarning hamkorligi ularning har biri o'z yo'nalishida erkin va mustaqil izlanish olib borishini yengillashtiradi. Ular boshqa yo'nalishdagi sheriklarini o'zi to'plagan ma'lumotlari bilan tanishtirib borishadi. Hamkorlar taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tasviriy san'at yo'nalishi talabalari tomonidan bajarilgan qoralama-eskizlardan boshqa yo'nalish bitiruvchilari o'z BMI ishlarida ilmiy ishni boyituvchi qo'shimcha material sifatida foydalanishadi. Rahbarlari bilan birga BMI bo'yicha tez-tez o'tkazib turilgan

¹⁴ [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Леонардо_да_Винчи](https://ru.wikipedia.org/wiki/Леонардо_да_Винчи)

uchrashuvlar, eskiz muhokamalari bitiruvchilar uchun o‘zaro tajriba almashish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mana shunday yondashuvga asoslangan klasterlar ta‘lim jarayonida talabalarning yanada faollashishiga sabab bo‘ladi. Chunki yangi yo‘nalish tanlashga intilish bilimlarini yanada boyitish, avval qo‘yilgan maqsadlariga o‘zgartirish kiritish yoki to‘ldirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda yuzaga kelgan imkoniyatlar ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu talabalarning faollashishi uchun motivatsiya beradi va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosalar:

- klaster usulining tasviriy san‘at sohasiga integratsiyalashuvi talabalarning yanada samarali ta‘lim olishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ilmiy-tadqiqot uchun motivatsiyani oshiradi, hamkorlikda ishlashga rag‘batlantiradi;

- ushbu yondashuv ta‘limni individuallashtirish, o‘quv jarayonida talabalarni faollashtirish va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi;

- bu yondashuv ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan “Ustoz-shogird” an‘analari asosida ta‘lim-tarbiyani tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi.

- klaster usuli tasviriy san‘at turlari, fanlar ichida va fanlararo hamkorlikni rag‘batlantirishga, uzviylik va uzluksizlik hamda integratsiyani ta‘minlashga xizmat qiladi.

Tavsiyalar:

- ushbu g‘oyani chuqurroq tadqiq qilish hamda amaliyotga tatbiq etish tasviriy san‘at turlari, fanlar ichida va fanlararo hamkorlikni rag‘batlantirish, uzviylik va uzluksizlik hamda integratsiyani ta‘minlashning yanada qulay va samarali vositasiga aylantirishi mumkin;

- ta‘lim jarayonini optimallashtirish uchun tasviriy san‘at sohasida innovatsion uslub va yondashuvlardan samarali foydalanish mumkin.

Pedagogik innovatsion klaster hamkorligida ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etishning ahamiyati

Keyingi chorak asr davomida Respublikamiz milliy ta'lim tizimi o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tdi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarida xorijiy tajribalar asosida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayonlari ta'lim tizimiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatdi, sohada ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi. Ammo shuni ham tan olish kerakki, bu davrda kadrlar tayyorlash sohasidagi ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylikning ta'minlanishida ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi, bu pirovardida, maqsadni belgilashdagi tarqoqlikka va ta'lim sifatining pasayishiga sabab bo'ldi. Kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi, talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi kuzatildi¹⁵[2]. Bu ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmasligiga sabab bo'ldi.

Toshkent viloyati xalq ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash bo'yicha istiqbol rejalarining bajarilmasligi va taqsimotning to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi natijasida yuzaga kelgan kadrlar taqchilligi masalasi bugungi kunda hududning o'ta dolzarb ijtimoiy masalalari sirasiga kiradi. Viloyat xalq ta'limi bevosita, uzluksiz ta'lim tizimida nazarda tutilgan ta'lim turlari o'rtasidagi uzluksizlik, uzviylik va integratsiyaning ta'minlanmaganligi, hududlarda kadrlarga bo'lgan talabning istiqbolli rejaları mavjud emasligi oqibatida ushbu holat yuzaga keldi.

Viloyat umumta'lim maktablarida malakali o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojning to'la qondirilmaganligi va mavjud o'qituvchilarning ham o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirish ustida yetarli ishlamayotganligi natijasida bugungi kunda hududning umumiy o'rta ta'lim tizimida oqsoqlik kuzatilayotganligi hech kimga sir emas. Keyingi yillarda respublikamizdagi umumta'lim maktablari reytingida Toshkent viloyatining oxirgi o'rinlarda ekanligi fikrimizni tasdiqlaydi. Uzluksiz ta'limda o'qitiladigan fanlarning bir-birini qaytarishi, fanlarning murakkablik darajasidan kelib chiqib tizimli ravishda o'qitilmasligi, oliy ta'limda mutaxassislik fanlari kamayib, boshqa fanlarning ko'payib ketishi yoshlarning sifatli bilim olishlari uchun to'sqinlik qilib keldi.¹⁶[17.99] Ushbu muammo bevosita tasviriy san'at ta'limiga ham tegishli. Bu uzluksiz ta'lim tizimiga nisbatan yangicha yondashuvlarni, innovatsion loyihalarni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Yuqorida bildirilgan

¹⁵ Мухамедов Ғ.И. “Таълим тизими вилоят салоҳиятига мос эмас... Нега?”, “Тошкент ҳақиқати” газетаси 2020 йил 19 февраль №15 (13276)

¹⁶ Байметов Б.Б., Султанов Х.Э. Узлуksиз таълимда “Педагогик таълим инновацион кластер” технологияларини жорий этишнинг аҳамияти/ Халқ таълими илмий-методик журнали. №1// -2020: Б.-99;

fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, sohaga innovatsiyalarni joriy qilish, xorij amaliyotida sinovdan o'tgan usul va vositalarni ijodiy yondashgan holda sohaga tatbiq qilish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonlarining sur'ati va samaradorligini oshirish bugungi pedagogikamiz oldidagi muhim masalalardan ekanligi ayon bo'ladi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimining mazmuni va sifatini tubdan isloh qilish bugungi kunda jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda.

Zamonaviy ehtiyoj va sohani rivojlantirishning tabiiy jarayoni sifatida klaster modelining ta'lim tizimiga joriy etilishiga ushbu muammolarning yechimini topishning muhim vositasi deb qaralishi lozim. Chunki keyingi yarim asrga yaqin davr mobaynida dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlari jahon iqtisodiyoti sahnasida, jumladan ta'limning mehnat bozorida ham raqobat muhitining keskin oshib ketganligi barchaga ayon. Bunday ayovsiz raqobat sharoitida bir-biriga bog'liq bo'lgan, lekin har biri alohida vazirlik qoshida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim muassasalarining turg'un faoliyat olib borishlari uchun ularning o'zaro ko'p tomonlama manfaatli kelishuvlari juda muhim zaruratga aylandi. Globallashuv jarayonida dunyo bozorida "vaqt" va "masofa" tushunchalari ahamiyatini yo'qotdi. Buning natijasida dunyoning istalgan nuqtalarida joylashgan bir xil funksiyani bajaruvchi ishlab chiqarish sub'ektlari o'zaro raqobatchiga aylanib bormoqda. Shundan kelib chiqib, milliy an'analar, urf odatlar, turmush tarzi kabi o'ziga xos shart-sharoitlari xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimining butunlay yangi o'ziga xos modelini ishlab chiqish¹⁷[3.3873], nafaqat Respublikamizda, balki, xalqaro miqyosda ham munosib o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh ta'lim tizimini yaratish eng dozarb masalalardan biri sifatida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish¹⁸[1.] bugungi kunning asosiy vazifalaridan qilib belgilandi. Oqibatda, Toshkent viloyati hududida uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida Chirchiq davlat pedagogika instituti raqobat kuchidan uning o'ziga nisbatan foydalanishning yangi shakli bo'lgan klaster modelini joriy etdi.

Oliy ta'lim muassasalarini mustahkamlash yo'li orqali murakkab integratsiyalashgan ta'lim tizimlarini (ta'lim klasterlari) yaratish an'anasi so'nggi ikki yil ichida viloyatda tizimli yo'lga kirib borayapti.

¹⁷ Султанов Х.Э, Innovation technology clusters use of technology in illustration/ International Journal of Psychosocial Rehabilitatio//- Vol. 24, Issue 04, 2020 ISSN: 1475-7192: -3873.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.

Biz ta'limdagi yangilik sifatida endigina murojaat qilayotgan klaster atamasiga xorijiy tadqiqotchilar quyidagicha ta'rif berishgan:

Klaster - shakllanish mexanizmining o'zaro raqobatbardoshlik o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi¹⁹[4.454].

Klaster - raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi²⁰[5.].

Klaster – bu hamkorlik shartnomasi asosida o'zaro strategik ta'sir ko'rsatadigan tadbirkorlar ittifoqi²¹[6.2].

Mahalliy tadqiqotlarda esa uzviylik va uzluksizlik pedagogik ta'lim klasterining asosiy tamoyillari sifatida qayd qilingan.²² [7.] Ilmiy adabiyotlarda klaster tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, pedagogik ta'lim klasteri tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **pedagogik ta'lim klasteri** – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiyalarning va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizmdir. Ta'lim majmuasining asosiy mahsuloti raqobatbardosh kadrlar va ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Ta'lim klasterining pirovard maqsadi ta'lim va ilmiy jarayonlarni takomillashtirishga karatilgan bo'ladi. Bu esa tizimda boshqaruv, tuzilma va sifat bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar bilan birga mutaxassislarni tayyorlash tizimida ayrim tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlarni ham talab qiladi. Ayni paytda, bu boradagi ishlarning barcha bosqichlarida yangi shakllar va usullarni izlash, ta'limning barcha turlarini maqsadning umumiyliigi hamda manfaatlarning xususiyliigi bo'yicha aloqadorligini kuchaytirish, ular o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash masalasi yotadi.

Ammo bu kabi muammolar keng qamrovli va ko'p qirrali ijtimoiy masala bo'lganligi uchun uning yechimi ham bir-ikki sababning qondirilishi bilan o'z ijrosini topa olmaydi. Klaster yondashuvi tasviriy san'at fani va ta'limi uchun ham pirovardida, amaliyotda ushbu sohani rivojlantirish uchun yangi texnologiyalarni izlash hamda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Klaster

¹⁹ Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.

²⁰ Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем// Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С. 24–29.

²¹ Бареев Т.Ф. Понятие и основные черты кластера//Экономические науки//-2012.-8(93).-С.-106. http://ecsn.ru/files/pdf/201208/201208_106.pdf//Беспалов М.В. Роль и значение инновационных кластеров в осуществлении национальных и региональных инновационных программ развития//Качество. Инновации. Образование. 2009. 2. С.

²² Хўжамкулов У., Шофқоров А. Педагогик таълим кластери тамойиллари, «Филологиянинг долзарб муаммолари» халқаро илмий-амалий анжуман, ФарДУ, 2019 йил, Фарғона.

doirasida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari, maxsus san'at maktablari va Oliy ta'lim kabi bir nechta sub'ektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni ancha murakkab hamda ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayon hisoblanadi. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster sub'ektlarining ishonchini qozonadi.

Institutimiz o'z faoliyatini boshlaganiga endigina uch yil bo'ldi. Keyingi yildan boshlab "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi talabarlari ham maktablarga borib o'z pedagogik faoliyatlarini boshlashadi. Bunda ular ko'p yillik tajribalarga ega bo'lgan turdosh OTMlarni bitirib ishga kelgan boshqa mutaxassislar bilan raqobatlasha oladimi? - degan savollarga javob topish kerak, chunki, biz uchun g'alvirni suvdan ko'tarish vaqti keldi. Ular maktablarda o'zlarining munosib o'rinlarini topishlari, yangi ish joylariga tezda ko'nikib ketishlari uchun hozirdan boshlab ularga yordam berish yo'llarini izlab topishimiz lozim. Bunda oliy ta'lim, umumiy o'rta maktablar, maktabgacha ta'lim muassasalari va tegishli hokimiyat organlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati davr talabi bo'lib qolayotganligi barchamizga ma'lum. Talabalarimiz yangi ishga borganida o'z uyiga kelganidek, erkin harakat qilishi, maktabdagi barcha muhit ularning har kungi odatiy faoliyatining davomi, o'quvchilar esa institutdagi tashkillashtirilgan to'garak a'zolari degan hissiyotni uyg'otishimiz lozim. Shuning uchun hozirdanoq maktablarda ish boshlagan bizning talabalarimiz - yosh o'qituvchilar faoliyati, undagi muammolar, kamchiliklar haqidagi fikrlar doimo o'rganilib borilishi muhim ahamiyatga ega. Maktablar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni yo'lga qo'ymasdan turib bu maqsadga erishib bo'lmaydi. Bunga "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" (PTIK) hamkorligidan oqilona foydalanish orqali erishish mumkin.

Bu yerda "Tasviriy san'at bo'yicha innovatsion ta'lim klasterini amalga oshirishda yo'nalish qanday belgilanishi kerak?" - degan savol paydo bo'ladi. Tarmoq klasterining tasviriy san'atni o'qitish ta'limiga yo'naltirilgan aniq takliflarining ishlab chiqilishi bizni bu vazifalarning yechimiga tomon olib boradi. Bu esa albatta, hamkorlarimiz bo'lgan maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim maktablar vakillari bilan birgalikda amalga oshiriladigan vazifa. Hamkorlikda faoliyat ko'rsatilishi mo'ljallangan muassasa vakillarining hammasini bir joyga yig'ish uchun esa hozirgi holatda ushbu mavzuga oid seminar yig'ilishi tashkillashtirishga ehtiyoj seziladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim va maxsus san'at maktablari hamda bu faoliyatga qiziqqan, undan mafaaddor bo'lgan boshqa tashkilotlarni bir joyga yig'ish, ular bilan jonli aloqani yo'lga qo'yish uchun tashkillashtiriladigan

“Pedagogik sinergiya” ilmiy-amaliy seminari ushbu tadbirlarning birinchisi va juda ahamiyatlisidir. Shuning uchun tasviriy san’at kafedrasida oliy ta’lim va maktablar hamkorligida ushbu seminarni o‘tkazish dasturi va nizomi ishlab chiqildi. “PTIK hamkorligida uzluksiz ta’lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlanishini o‘z ichiga oladigan sifatli ta’lim berish jarayonini qanday qilib muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin” degan savolga javob izlaash bu seminarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu dastur MTM, umumta’lim va maxsus san’at maktablarida tasviriy faoliyat, tasviriy san’at fanini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat yuritish hamda shu fanlarning mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish, o‘quvchilarda shu fan bo‘yicha puxta bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan umumiy jamoa tuzishga yordam beradi. MTM-maktab-OTM tizimida tasviriy san’at yo‘nalishi mutaxassislarning umumiy kuchini bir joyga to‘plash, soha bo‘yicha xorijiy va mahalliy ilg‘or pedagoglar tajribasi asosida yosh o‘qituvchilarga o‘qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarini o‘rgatish, ilmiy muammolarni tadqiq qilish, shu jumladan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish va eksperiment natijalarini tahlil qilish malakalarini egallash hamda pedagogik jarayonga tatbiq eta olish kabi masalalarni qamrab oladi.

“Pedagogik-sinergiya” ilmiy-amaliy seminari uchrashuvlarini tashkil etish orqali hamkorlikda quyidagi masalalar hal qilinadi:

- kafedrada har xil mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borayotgan professor-o‘qituvchilari, MTM tarbiyachilari, umumta’lim va maxsus san’at maktablari, litseylar o‘qituvchilari hamda rahbarlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatiladi;

- ilmiy-amaliy seminar ishtirokchilarini pedagogikaning so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish, kasbiy mahoratini oshirishga yordam berish, o‘qituvchilarning innovatsion va eksperimental ishlarni olib borishini ta‘minlash, ta’limda zamonaviy psixologik va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantiriladi;

- uzluksiz ta’limda tasviriy san’at fanini o‘qitishdagi mavjud muammolarni o‘rganish, muhokama qilish, uzluksiz ta’lim tizimidagi mutaxassislarning bir-birlari bilan fikr almashishlarini yo‘lga qo‘yiladi;

- uzluksiz ta’lim tizimidagi o‘zaro uzviy aloqani kuchaytirish orqali sinovdan o‘tgan xorijiy tajribalarni amaliyotga joriy qilish, pedagogik ta’limning zamonaviy innovatsion texnologiyalarini ta’limga tatbiq etishda o‘qituvchilarga ko‘maklashiladi;

- umumta’lim maktablaridagi tasviriy san’at fani mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil qilish, yanada takomillashtirish, o‘quvchilarda shu fan bo‘yicha puxta bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun eng samarali metodik

vositalarni tanlash, maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan iqtidorli tasviriy san'at o'qituvchilarini aniqlash va ularning ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlariga yaqindan yordam berish yo'lga qo'yiladi.

Jamiyatdagi zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ta'lim sohasida ham bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlar mutaxassislariga yangi funksional talablarni qo'ya boshladi. Endilikda malakali mutaxassisdan faqatgina o'zining bevosita xizmat vazifasini yaxshi bajarishgina emas, balki yangi uslublarni topib amaliyotga kiritish, mustaqil qaror qabul qila bilish va ijodiy ishlay olish kabi ko'nikmalar talab qilinadi. Shundan kelib chiqib "Pedagogik-sinerjiya" ilmiy-amaliy seminari bu sohada tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'qitish metodlari va yo'llari bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishi, o'qitishning tub maqsadini tasavvur qila olishi, unga erishish yo'llari va vositalaridan foydalanishlari uchun bo'lajak pedagog-rassomlarning kasbiy bilimlarni puxta egallashiga yordam berishni ham o'zining maqsadi deb hisoblaydi.

Seminarining vazifalari:

- uzluksiz ta'lim tizimidagi tasviriy san'at fanini o'qitishning aniq maqsadlari va uning fan sifatida bilim berish hamda tarbiyaviy ahamiyatini, tizimdagi mavjud muammolarni aniqlash;

- o'qitishning mazmuni va tuzilishidagi muammolarni aniqlash;

- o'quvchilarning mustahkam bilim, ko'nikma va malakalarini ta'minlovchi o'qitishning eng samarali uslub, vosita va shakllarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarning bilim olish jarayonini tadqiq qilish.

- o'rta umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun tasviriy san'at bo'yicha mustaqil fikrlovchi, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, shu fanlarning hozirgi davrda erishgan yutuqlaridan xabardor qilish, o'qitishning eng samarali usullarini amaliyotda tadbiiq qilishni ko'rsatib berish, tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot yo'nalishlari bilan tanishtirish va didaktika fani nazariyasi bilan ta'lim amaliyoti aloqasini ta'minlash, bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish haqidagi maktab o'qituvchilarining fikrini o'rganishdan iborat.

Bu jarayonda har bir muassasa vakili jamoa tomonidan qayd etilayotgan o'zida bor yutuq va kamchiliklarni ko'ra boshlaydi, boshqalarning yutuqlaridan ijobiy tomonini o'zlashtirishga harakat qiladi, o'z yutuqlarini yanada mukammallashtirishga o'zida rag'bat topadi. "Men ham qila olaman" - degan o'zida ishonch hosil qiladi. Hamkorlikda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy seminarlar MTM-maktab-OTM miqyosida o'rganilgan takliflar asosida mavjud

muammolarning yechimini topishda tizimdagi shunday o‘zaro tajriba almashish, u orqali ijobiy raqobat muhiti yaratilishini ko‘zda tutadi. Raqobat bilim va qobiliyatdan unumli foydalanishga olib keladi. Insoniylik ne‘matlarining aksariyati bellashuv, raqobat orqali hosil qilingan. Raqobat – insonning aqliy qobiliyatini o‘stirish, buyuk kashfiyotchi va tadbirkorlarni tarbiyalab yetishtirishning alohida vositasi”²³ [8.118]. Bunday usul uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida jarayonni harakatga keltiruvchi bir mexanizm sifatida ishlaydi. Bu esa hamkorlikdagi har bir muassasaning har tomonlama o‘sishi, zamonaviy sharoit va qo‘yilayotgan talablarga moslashishiga olib keladi. Raqobat, shuningdek innovatsiyalarni tezlik bilan o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etishni ham nazarda tutadi.

Ushbu seminar o‘tgan yildan o‘z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Har bir seminarda ishtirokchilar sonining ko‘payib borishi ham uning nufuzini toboro oshirib bormoqda. Bu tadbirlarda kafedrada mavjud ta’lim yo‘nalishlari, ularning kasbiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda «Maktab-laboratoriya» innovatsion tajriba maydonchalarining faoliyati bo‘yicha ish olib boradigan tasviriy san‘at, amaliy san‘at, muhandislik grafikasi bo‘yicha loyiha yo‘nalishlarining xomaki namunasi muhokamaga qo‘yilib, loyihaning maqsad, vazifalari, nomlanishi, a‘zolarining tarkibi aniqlab olindi. Yig‘ilishda ishtirokchilar o‘rtasida pedagogika oliy yurtlari bitiruvchilarining maktabdagi ilk faoliyatlari, unda uchraydigan muammolar yuzasidan so‘rovnomalar o‘tkazildi. Seminarda qatnashgan tajribali o‘qituvchilardan, endigina pedagoglik faoliyatini boshlagan o‘qituvchilarning ko‘pchiligi me‘yoriy hujjatlarni yuritishda qiyinchiliklar mavjudligi, yosh o‘qituvchilarning bunga tezda ko‘nikib keta olmasliklari ko‘p uchrashi, buning natijasida maktab rahbariyatidan ko‘p gap eshitib qolishi, har xil yosh xususiyatidagi (ilk bolalik, bolalik, o‘tish davri) o‘quvchilar bilan muloqotga tezda ko‘nika olmasliklari natijasida ilk mehnat faoliyatini asabiylik ruhida boshlashlari, bu ruhiy holatni yengib o‘tish oson kechmasligi, hatto ba‘zilari o‘z tanlagan kasbidan afsuslanish holatlari ham uchrab turishi, buning ustiga umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshqa fanlarga nisbatan tasviriy san‘at va chizmachilikdan dars soatlarining kamligi, yosh mutaxassislarining, ba‘zida yetarli tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning ham uy vazifalarini tekshirish va mavzuni o‘tib ulgura olmasliklari holatlari uchrashi, darsning qisqaligi sababli akvarel, guash bo‘yoqlarida ishlanganda ishning qurimaganligi sababli o‘quvchilarning al‘bom varaqlari bir-biriga yopishib qolishi, o‘quvchilar keyingi darsgacha barcha narsalarini yig‘ishtirib ulgura olmaslik holatlari uchrashi, bu esa ularning

²³ Хайек Ф.А. Познание, конкуренция и свобода. –Санкт-Петербург: Пневма, 1999. –С.118.

psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, sumkalariga o'quv qurollarini palapartish joylashga urinishlari va bu holatga o'rganib qolishlari oqibatida boladagi tartiblilik va intizom xususiyatlarining buzilishi ro'y berishi mumkin ekanligi va h.k. Hozirgi paytda tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishida amaliy san'at fanlarining juda qisqarib ketganligi, minatyura, kitob grafikasi, grafika mavzularida fan o'qituvchilarining mavzuni o'tishga qiynalib qolish holatlari uchrashini ta'kidlashdi.²⁴ [9.109]

Uchrashuvlar jarayonida o'qituvchilarning sohani, xususan, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi bo'yicha innovatsion ta'lim klasterini rivojlantirish va bu boradagi faoliyatlar tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha fikr-mulohazalari, qimmatli takliflari o'rganildi.

O'tkazilayotgan seminarlarda bundan keyingi faoliyatni belgilab beruvchi loyiha va rejalarni, tizimli ishlarni amalga oshirish mezonlarini optimallashtirish masalalarining izchilligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi ko'p bor ta'kidlanib kelinmoqda. Bu o'z navbatida, mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning yuzaga chiqarilishi, joylardagi amaliy tatbig'i bo'yicha o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.²⁵ [9.108]

Pedagogik ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlik, bog'liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash maqsadida seminarida PTIK bo'yicha hamkor muassasalar ishtirokchilari zimmasiga umumiy vazifa qilib sohaga oid ilmiy faoliyatni izchil yo'lga qo'yish vazifasi yuklatildi. Birgalikdagi bu harakatlar esa bizga soha mutaxassislarining "sen menga tegma, men senga tegmayman" qabilidagi eski avtoritar pedagogik ta'lim tizimidan faol hamkorlik²⁶[10.832] shakliga o'tish imkonini beradi.

Shuningdek, seminarida tasviriy san'at o'qitishning maqsad va vazifalari, fanning mazmuni va tuzilishi, o'qitishning metod va tashkiliy shakllari, vositalarini tanlash va ishlab chiqish, boshqa fanlar bilan aloqasi, mavzularning mazmuni va ularning ketma-ketligi, tushunchalarni shakllantirish yo'llari, ko'rgazmali qurollardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, tasviriy va amaliy topshiriqlar mazmuni va o'rni kabi masalalar haqida fikr almashish o'z natijalarini ko'rsatayotganligini kuzatish mumkin.

Har bir seminar yig'ilishida ko'rilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar qayd (protokollashtirilib) etib boriladi. Kengash tomonidan uning ijrosi nazorat

²⁴ Sultanov Kh.E., Sobirov S.T., Marasulova I.M. THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION/Journal of Critical Reviews// ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020: -P. 108-111.

²⁵ Sultanov Kh.E., Sobirov S.T., Marasulova I.M. THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION/Journal of Critical Reviews// ISSN- 2394-5125 Vol 7, Issue 9, 2020: -P. 108-111.

²⁶ Султанов Х.Э., Пак В.Ш., Кукиев Б.Б. Использование новых информационных коммуникативных технологий на уроках изобразительного искусства // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ научный журнал №4 2016. С- 832.

qilinadi. Seminar yig'ilishida yig'ilgan takliflar asosida keyingi seminar mavzulari aniqlanadi.

“Tasviriy san’at” kafedrası hamda PTIK bo'yicha hamkorlik shartnomasi tuzilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliy fanlar uslubiy birlashmasining “Maktab-laboratoriya” tajriba maydonchalari faoliyatini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

“Maktab–laboratoriya” – pedagogik ta'lim innovatsion klasterining sub'ekti bo'lib, ta'lim turlarining ilmiy, uslubiy va ta'limiy faoliyatini rivojlantirish maqsadiga qaratilgan innovatsion loyihalar bo'yicha tajriba-sinov maydonchalari.²⁷ [11.71] Tashkil etilgan bunday “Maktab–laboratoriya” tajriba maydonchalarini ta'lim turlari hamkorligining innovatsion shakli deyish mumkin.

Hamkorlik doirasida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, “Maktab-laboratoriya” tajriba maydonlari bo'yicha maktab o'qituvchilariga tushunchalar berish;
- “Maktab-laboratoriya” tajriba maydoni yo'nalishlariga mas'ullarni tayinlash;
- “Maktab-laboratoriya” tajriba maydoni uchun ajratilgan xonani pedagogik ta'lim innovatsion klasteri mazmunidan kelib chiqqan holda jihozlash;
- Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosidagi “Maktab-laboratoriya” tajriba maydoni yuzasidan ko'rgazmali mahorat darslari tashkil etish;
- Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri mavzusi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish;
- O'rta umumta'lim, va maxsus maktablarda tasviriy san'at va chizmachilikni o'qitishni takomillashtirish yuzasidan dasturiy ishlarni amalga oshirish;
- Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bo'yicha ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash faoliyatini takomillashtirish;
- Tasviriy va amaliy san'at sohasidagi ilmiy yangiliklar, innovatsion ta'lim loyihalarini uzluksiz ta'lim tizimiga tatbiq eta borishni yo'lga qo'yish;
- Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilarining kasbiy va sohaviy mahoratini yuksaltirish bo'yicha ish yuritish;
- O'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;
- Pedagog xodimlarning ta'lim jarayoni faoliyatini, jumladan, innovatsion ta'lim klasteri asosidagi ilmiy va ijodiy ishlarini shakllantirish va takomillashtirish;

²⁷ Мухамедов Ф.И., Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф, Т.: ЎзМУ, 2019, -Б. 71;

- Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi ta'lim yo'nalishining iqtidorli talabalarini "Maktab-laboratoriya" tajriba maydoniga jalb qilish va ularning innovatsion xarakterdagi shaxsiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Bu tadbirlar "Tasviriy san'at" kafedrası va maktablardagi metodik birlashmalarning o'zaro kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Rejalashtirilgan tadbirlar quyidagi mexanizmlar asosida amalga oshirishi maqsad qilib qo'yilgan:

- Hamkorlikda "Maktab-laboratoriya" tajriba maydoni uchun ajratilgan xonalarni pedagogik ta'lim innovatsion klasteri mazmuniga mos ravishda stendlar, axborot beruvchi materiallar bilan jihozlanadi.

- "Maktab-laboratoriya" tajriba maydonining mazmun-mohiyati hamda ahamiyati bo'yicha maktab o'qituvchilari uchun ko'rgazmali trening va master-klass mashg'ulotlari o'tkazilib, maslahat va tavsiyalar ishlab chiqiladi;

- Ilmiy-tadqiqot loyiha guruhlarining tajriba-sinov ishlari mazmuni maktab o'qituvchilariga tushuntiriladi;

- "Maktab-laboratoriya" tajriba maydoni misolida umumta'lim muassasalarida tasviriy san'at va chizmachilikni o'qitish bilan bog'liq mavjud muammolarni, ushbu muammolarga soha pedagog kadrlarining munosabati monitoringini aniqlash, muammolar yechimiga qaratilgan vazifalar dasturini ishlab chiqiladi, aniq faoliyat rejalarini taqdim etiladi;

- "Maktab-laboratoriya" tajriba maydoni doirasida tasviriy san'at va chizmachilik fani bo'yicha maktablarda faoliyat olib borayotgan iqtidorli pedagog kadrlarni aniqlash hamda ularning ITI lariga jalb qilinishi bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshiriladi;

- Mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda sohada erishilgan so'nggi yutuqlar, innovatsion loyihalarni bevosita o'quv jarayoniga joriy etish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqiladi;

- Umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchilari, ayniqsa, yosh pedagog kadrlarning ish faoliyati va sharoitidan kelib chiqib, ularning o'z kasb mahoratini oshira borishlari yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi, shuningdek, hamkorlikdagi ishlarni yo'lga qo'yish bilan birga o'qituvchilar uchun qo'shimcha dastur hamda ko'rsatmalar ham yaratiladi;

- Tajriba maydoni faoliyatini, mavjud "Ustoz-shogird" tizimiga moslashtirgan holda, o'rta maktab bitiruvchilari bilan psixologik-ijtimoiy so'rov, suhbat va boshqa xil saralash shakllari asosida pedagogik kasbga, xususan, tasviriy san'at va amaliy san'at sohasiga yo'naltirish ishlarining mexanizmini ishlab chiqiladi;

- Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, shuningdek, boshqa turli mavzulardagi ilmiy-ijodiy ishlarni

tayyorlashi hamda ular tomonidan taqdim etilgan materiallarning nashr etilishiga yordam berish yo‘lga qo‘yiladi;

- Iqtidorli talabalarga “Maktab-laboratoriya” tajriba maydoni va uning vazifalari haqida tushuncha beriladi, shu yo‘nalishdagi innovatsion tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

Ushbu vazifalarning natijalari seminarlarda muhokama qilinib, ijobiy natijalar amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etiladi. Seminarlarda maktablarda tashkil etilgan “maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarida faoliyat yuritayotgan har bir tadqiqot loyiha guruhlarining bir chorak davrida amalga oshirgan ishlari hisoboti tinglanadi. Natijalar “Pedagogik-sinergiya” ilmiy-amaliy seminar kengashi a‘zolari, yig‘ilishda ishtirok etayotgan keng pedagog-rassomlar, tegishli muassasa xodimlari, taklif etilgan ota-onalar jamoasi tomonidan muhokama qilinadi.

Umuman, Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan olib borilayotgan pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri loyihasi ta‘lim, fan va ishlab chiqarishni yaxlit tizim sifatida qamrab oladigan ta‘limga nisbatan innovatsion yondashuv deb ishonch bilan aytish mumkin. Uning birlashtiruvchi kuchi va g‘oyasi pedagog ta‘limda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini o‘zida to‘la aks ettirishi bilangina emas, balki amaliy ahamiyati bilan ham e‘tirofga loyiq.²⁸[12.35] Bu ta‘limdagi ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta‘minlaydi, to‘plangan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik tajribalar va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta‘lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tezkor yetib borishini samarali amalga oshiradi.

Tasviriy san‘at sohasida pedagogik innovatsion ta‘lim klasteri faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish, hamkorlikda ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etish qaysidir ma‘noda mazkur yo‘nalishda ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borishni ko‘zda tutadi, hamda uzluksiz ta‘lim tizimida mavjud muammolarni hal etishda quyidagi natijalarni beradi:

➤ hamkorlikda umumiy maqsadni belgilanadi, “Pedagogik ta‘lim innovatsion klasteri” amaliyotga joriy etiladi;

➤ PTK doirasida hamkorlik faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish orqali umumta‘lim maktablari va san‘atga ixtisoslashgan maxsus maktablarda iqtidorli yoshlarni izlab topish, oliy ta‘lim tizimiga maqsadli tayyorlash va kelajakda tasviriy san‘atdan malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj sifatli qondiriladi;

²⁸ Султанов Х.Э., Хўжамкулов У.Н. Тасвирий санъат: педагогик таълим кластери ва унинг истиқболлари (Чирчиқ давлат педагогика институти таърибаси)/ Мактаб ва ҳаёт илмий-методик журнали, №7 (147)/-2020: Б. -35;

- “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalarida ta’lim sifatini oshirish bilan bog‘liq innovatsion loyihalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ladi;
- o‘zaro hamkorlik, integratsion jarayonlar kuchayadi, ta’lim turlari o‘rtasidagi uzluksizlik, uzviylik va tezkor aloqa ta’minlanadi;
- umumiy uzluksiz ta’lim tizimida mavjud kamchiliklar aniqlanadi, uni bartaraf etish choralari ishlab chiqiladi;
- umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining o‘quv-uslubiy ko‘nikmalari oshadi;
- ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kasbiy malakalarini oshirish va qayta tayyorlash maqsadida viloyat, tuman xalq ta’lim boshqarmalari bilan keng aloqa o‘rnatiladi;
- mehnat bozoridagi talab va takliflar chuqur o‘rganiladi, samarali ta’lim xizmatlari bozori shakllantiriladi;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini, ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy ishlarida yangi imkoniyatlarni tezkor ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo‘ladi²⁹[13.6590];
- oliy ta’limda faoliyat olib borayotgan yosh o‘qituvchilarni uzluksiz ta’lim tizimida tasviriy san’atni o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltiriladi;
- uzluksiz ta’lim uchun yangi avlod o‘kuv, o‘quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, didaktik materiallar majmuasini yaratishda hamkorlik o‘rnatiladi;
- uzluksiz ta’lim tizimida tasviriy san’at fanning bir-birini qaytarishi, murakkablik darajasidan kelib chiqib tizimli ravishda o‘qitilmasligi hollari bartaraf etiladi.
- umumta’lim maktablari va maktabgacha ta’lim muassasalari pedagog metodistlarini ilmiy ishlarga jalb etiladi.³⁰[14.102]
- OTM bitiruvchilarining kasbiy faoliyatga moslashuvchanligi oshadi;
- kadrlarga bo‘lgan talabning istiqbol rejaları asosida hududlar kesimida kadrlar to‘g‘ri taqsimlanadi;
- hududning butun uzluksiz ta’lim tizimi, jumladan umumiy o‘rta ta’lim tizimi ko‘rsatkichlarini oshiriladi.
- ta’lim berish, bilim olish sifati ko‘tariladi;
- uzluksiz ta’lim tizimiga nisbatan yangicha yondashuvlarni, innovatsion loyihalarni ishlab chiqilishiga olib keladi.

²⁹ Sultanov Kh.E., Marasulova I.M., Bakhriev I.S. Ankabaev R..T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education/International Journal of Psychosocial Rehabilitation// Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192: -P.6586-6591.

³⁰ Байметов Б.Б., Султанов Х.Э. Узлуксиз таълимда “Педагогик таълим инновацион кластер” технологияларини жорий этишнинг аҳамияти/ Халқ таълими илмий-методик журнали. №1// -2020: Б.-102;

raqobatdosh o'rnini o'rganish orqali ushbu muammoni o'rgangan. U klaster - shakllanish mexanizmining o'zaro raqobatbardoshlik o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi³³ degan fikrni oldinga suradi.

Xorijiy olimalaridan S.V. Sinitsyna, N.I. Zырянова tomonidan klaster yondashuvi - iqtisodiyotning istalgan sohasini birgalikda rivojlantirish maqsadida ma'lum hududda turli tashkilotlarni, jumladan, sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarini birlashtirish uchun qo'llaniladigan metodologiya³⁴ deb ta'riflanadi. Darhaqiqat, klaster yondashuvidan rivojlangan davlatlarda nafaqat iqtisod sohasida, balki, ta'lim tizimida ham muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda. Ushbu mualliflarning "Klaster yondashuvining kasb-hunar ta'limidagi ahamiyati" mavzusidagi maqolasida kasb-hunar ta'limida klaster yondashuvining ahamiyati yoritib beriladi. Huquqiy ahamiyat kasb-hunar ta'limining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirishdan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati mintaqadagi ta'lim tashkilotlari bilan korxonalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tizimini rivojlantirishni belgilaydi. Kasbiy-pedagogik ahamiyati ta'lim jarayonining amaliy xususiyatini rivojlantirish bilan bog'liq³⁵.

S.V. Danilov, M.I. Lukyanovalarning "Mintaqaviy ta'limda klasterli yondashuv" maqolasida esa ta'lim sohasida klaster yondashuvidan foydalanishning asosiy jihatlari innovatsion tizimlarni shakllantirishning asosi sifatida tahlil qilinadi³⁶. Shuningdek, ular tomonidan ta'lim sohasidagi innovatsion tizimlarni shakllantirishda klaster yondashuvining ahamiyati ham o'rganiladi.

Mamlakatimizda pedagogik ta'lim klasteri va uning amaliyotga tatbiq etish muammosini alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari keyingi yillarda ancha jadallashdi. Xususan, ta'lim klasteri pedagogikamizda integratsiya va uzluksizlik bilan bog'liq yangi innovatsion yo'nalish hamda uning amaliyotga tatbiq qilinishi pedagogik ta'limda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash omili³⁷ ekanligi ko'pgina tadqiqotlarida o'z aksini topmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotda barcha sohalarda qo'llanib kelinayotgan klaster yondashuvi vositasida fanlararo tadqiqotlar va ta'lim tarmoqlari integratsiyasini qo'llab-quvvatlash masalalarini yoritish maqsad qilib

³³ Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.

³⁴ С.В. Сеницына, Н.И. Зырянова ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/39206/1/avsorpo_2020_4_031.pdf.

³⁵ С.В. Сеницына, Н.И. Зырянова ЗНАЧЕНИЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/39206/1/avsorpo_2020_4_031.pdf.

³⁶ Данилов С.В., Лукьянова М.И. КЛАСТЕРНЫЙ ПОДХОД В РЕГИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1. ; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=18896> (дата обращения: 11.11.2023).

³⁷ Султанов Х. Э. ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ИННОВАЦИОН КЛАСТЕРИНИНГ АМАЛДАГИ ТАТБИФИ //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 5 (102). – С. 47-52.

belgilangan. Tasviriy san'atning inson faoliyati uchun muhim bo'lgan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida alohida o'rni bor.

Tarixdan ma'lumki, bu soha vakillari insoniyat taraqqiyoti, ilm-fan, texnika va texnologiya rivoji hamda insonning ijtimoiy, madaniy hayotining muhim o'zgarishlarida beqiyos hissalarini qo'shib kelishgan. Ushbu fan boshqa fanlar hamda sanoat taraqqiyotidan alohida rivojlanishi aslo mumkin emas. Barcha fanlar bir-birini to'ldiradi, o'zaro integratsiya orqali rivojlanadi va takomillashadi. Badiiy ta'limda fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, N.A. Stebleskayaning "Tasviriy san'at darslarida integratsiya"³⁸ maqolasida bildirilgan fikricha "Tasviriy san'at" fanini tarix, geografiya, adabiyot, musiqa, mudofaa ta'limi kabi boshqa fan yo'nalishlari bilan integratsiyalashganida o'quvchilarning ijodiy salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Muallif tomonidan ushbu maqolada, shuningdek, dizayn, axborot, modellashtirish kabi turli xil pedagogik texnologiyalardan foydalanish integrallashgan fan sohalarini yanada to'liq va yorqinroq ochib berishga yordam berishi mumkinligi ko'rsatilgan. Tasviriy san'at nafaqat ijodiy qobiliyat, balkim, ijodiy fikrlash ham demakdir. Chiziqlar va ranglar vositasida atrof borliqqa munosabatining shakllanishi, Vatan va oilaning muqaddasligini madh etib o'quvchilardagi vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yana bir rus olimasi S.M. Lemeshovaning "Darsda yangi ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish"³⁹ mavzusidagi ilmiy izlanishlarda tadqiqot va ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi tasviriy san'at sohasida tadqiqot va o'qitishning yanada samarali tizimini yaratishga yordam berishi mumkinligi qayd etilgan. Unda ta'kidlanganidek, tadqiqot usullari va texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ijodiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Barcha sohalarda bo'lganidek tasviriy san'at yo'nalishida ham klaster yondashuvidan fanlararo tadqiqotlar va ta'lim tarmoqlari integratsiyasini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanish mumkin. Ayniqsa bugungi globallashuv davrida o'zaro hamkorlikka asoslangan faoliyat muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ye.N. Nadejdinaning "Mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda fanlararo bilimlar didaktik manba sifatida" maqolasida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda fanlararo bilimlardan didaktik manba sifatida foydalanish masalalari muhokama qilinadi⁴⁰. Ushbu

³⁸ Стеблецкая Н.А. Интеграция на уроках изобразительного искусства / <https://nsportal.ru/shkola/izobrazitelnoe-iskusstvo/library/2018/10/24/integratsiya-na-urokah-izobrazitelnogo-iskusstva>

³⁹ <https://infourok.ru/diplomnaya-rabota-po-izobrazitelnomu-iskusstvu-na-temu-produktivnoe-ispolzovanie-novih-obrazovatelnih-tehnologiy-na-uroke-3860212.html>

⁴⁰ Надеждин Е.Н. Междисциплинарные знания как дидактический ресурс в совершенствовании образовательной технологии и повышении качества обучения // Современные наукоемкие технологии. –

maqolada fanlararo bilimlardan foydalanish, shuningdek, ta'lim jarayonida fanlararo bilimlardan foydalanish masalasiga e'tibor qaratiladi.

Shu tarzda yuqorida nomi qayd etilgan olimlarning fikricha, fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlaridan kasb-hunar ta'limida klaster yondashuvining integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun foydalanish mumkin. Ular turli tashkilot va muassasalar o'rtasida sinergiya yaratishga yordam beradi, bu esa resurslardan samaraliroq foydalanishga va ta'lim sifatini oshirishga olib keladi. Demak, bu integratsiya faqat kasb-hunar ta'limigagina taaluqli emas. Bunday yondashuvni pedagogika OTM tasviriy san'at yo'nalishida ham samarali qo'llash mumkin deb o'ylaymiz.

Tasviriy san'at sohasidagi fanlararo tadqiqotlar tarix, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik kabi boshqa fanlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Quyida tasviriy san'at bilan bog'liq fanlararo integratsiyaga oid ba'zi misollarni ko'rib chiqamiz:

Tasviriy san'at va psixologiya: Tasviriy san'atdan idrok, hissiyot va ijod kabi psixologik jarayonlarni o'rganish uchun foydalanish mumkin⁴¹.

Tasviriy san'at va antropologiya: Tasviriy san'atdan din, urf-odat va an'analar kabi odamlar hayotining madaniy va ijtimoiy tomonlarini o'rganish uchun foydalanish mumkin⁴².

Tasviriy san'at va falsafa: Falsafada tasviriy san'at go'zallik, haqqoniylik va ezgulik kabi falsafiy tushunchalarni o'rganish uchun ishlatilishi mumkin⁴³.

Tasviriy san'at va tarix: Tasviriy san'at insoniyat ilk paylo bo'lgan davrgacha ijtimoiy va madaniy ehtiyojlari, undan tashqari Uyg'onish davri hamda Barokko kabi tarixiy voqealar va davrlarni o'rganish vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin.

Tasviriy san'at va madaniyatshunoslik: Tasviriy san'atdan musiqa, raqs va teatr kabi odamlar hayotining madaniy jihatlarini o'rganishda ko'p foydalanilib kelingan.

Bu tasviriy san'at bilan bog'liq fanlararo integratsiyaning bir nechta misollari xolos. Klaster yondashuviga asoslangan fanlararo integratsiyaga oid tadqiqotlar tasviriy san'at va uning hayotimizdagi roli haqidagi tushunchamizni kengaytirishga yordam beradi.

Tasviriy san'atda fanlararo ilmiy-ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi tasviriy san'at sohasida faoliyat yurituvchi turli o'quv va tadqiqot tarmoqlarini yagona

2020. – № 12-1. – С. 187-195; URL: <https://top-technologies.ru/ru/article/view?id=38432> (дата обращения: 11.11.2023).

⁴¹ Карпов А.В.. Междисциплинарные подходы в современной теории и истории искусства: проблемы подготовки магистров-искусствоведов <https://cyberleninka.ru/article/n/mezhdistsiplinarye-podhody-v-sovremennoy-teorii-i-istorii-iskusstva-problemy-podgotovki-magistrov-iskusstvovedov>.

⁴² <https://pravo.hse.ru/lawandart/news/536501007.html#>:

⁴³ <https://gtmarket.ru/library/basis/3369/3380#>:

tizimga birlashtirish jarayonidir. Ushbu integratsiyaning maqsadi tasviriy san'at sohasida yanada samarali va barqaror ta'lim va tadqiqot tizimini yaratishdan iborat.

A.B. Viflemskiy va V.A.Malininlarning "Maktab va universitet integratsiyasi: muammolar va istiqbollari"⁴⁴ maqolasida maktab va universitet integratsiyasi tasviriy san'atda fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlarini yaratish uchun foydali ekanligi asoslab beriladi. Maqolada ta'kidlanishicha, maktab va universitet integratsiyasi boshlang'ich ta'limdan tortib to oliy o'quv yurtigacha bo'lgan ta'limning barcha bosqichlarini qamrab oladigan yagona ta'lim tizimini yaratishga yordam beradi. Bu tasviriy san'at fanini o'qitish va ilmiy-tadqiqot ishlarining yanada samarali tizimini yaratadi.

Bundan tashqari, O.N. Sheleginaning "Tadqiqot va ta'lim tendensiyalarini integratsiyalash"⁴⁵ maqolasida tadqiqot va ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi tasviriy san'at sohasida tadqiqot va ta'limning yanada samarali tizimini yaratishga yordam berishi mumkinligini ko'rsatadi. Maqolada ta'kidlanishicha, ilmiy va ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi tasviriy san'at sohasidagi ta'lim va tadqiqotning barcha darajalarini qamrab oladigan yagona tizimni yaratishga yordam beradi.

Klaster yondashuvi tarmoqlarni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi, bilim va tajriba almashish maqsadida ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish hamkorlari va boshqa tashkilotlarni birlashtiradi.

Fanlararo tadqiqot, ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashning ba'zi usullari:

1. Bilim almashish uchun forumlar va platformalarni yaratish: Onlayn platformalar va forumlarning rivojlanishi ta'lim klasterlari ishtirokchilariga fanlararo sohalarda yangi g'oyalar, tadqiqot natijalari va ilg'or tajriba almashish imkonini beradi. Bunga munozarali forumlar, bloglar, vebinarlar, onlayn kurslar va o'zaro aloqaning boshqa shakllari kiradi.

2. Qo'shma ilmiy loyihalarni tashkil etish: Ta'lim muassasalari va tadqiqot markazlari turli fanlar va yo'nalishlarni birlashtirgan qo'shma tadqiqot loyihalarida hamkorlik qilishlari mumkin. Bu olimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga birgalikda ishlash, bilim va tajriba almashish hamda murakkab muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

3. Fanlararo kurslar va dasturlarni tashkil etish: Ta'lim muassasalari bilim va ko'nikmalarning turli sohalarini birlashtiruvchi fanlararo kurslarni tashkil etish, dasturlarni ishlab chiqishi va amaliyotga taklif qilishi mumkin. Bu talabalarga har

⁴⁴ Вифлемский А.Б. Малинин В.А. Интеграция школы и ВУЗа: проблемы и перспективы / ОРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ// №3/2014. Стр. -90-100. <https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-shkoly-i-vuza-problemy-i-perspektivy>

⁴⁵ Шелегина О. Н. Интеграция исследовательских и образовательных трендов /Вестник СПбГИК № 3 (48) сентябрь · 2021// стр. -68-75. <https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-issledovatelских-i-obrazovatelnyh-trendov>

tomonlama ta'lim olish, fanlararo tafakkurni rivojlantirish, boshqa fan vakillari bilan jamoa bo'lib ishlash imkonini beradi.

4. Sanoat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish: Ta'lim klasterlari murakkab muammolarni birgalikda hal qilish va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish uchun sanoat va jamoat tashkilotlari bilan ham hamkorlik aloqalarini o'rnatishi mumkin. Bu talabalar va tadqiqotchilarga sanoat va jamiyatda mavjud bo'lgan haqiqiy hayotdagi uchraydigan muammolar kontekstida ishlash imkonini beradi. Ushbu hamkorlik muammolarni chuqurroq, amaliyroq tushunishga yordam beradi va to'g'ridan-to'g'ri real hayotda qo'llaniladigan yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

5. Tajriba almashish uchun tadbirlar va forumlar tashkil etish: Ta'lim klasterlari ishtirokchilar o'z tadqiqotlari, loyihalari va ilg'or tajribalarini baham ko'rishlari mumkin bo'lgan konferensiyalar, seminarlar va forumlar kabi tadbirlarni tashkil qilishi mumkin. Bu tajriba almashish, muhokama qilish va o'zaro o'rganish uchun platforma yaratadi.

6. Talabalarning ilmiy loyihalarini qo'llab-quvvatlash: Ta'lim klasterlari talabalarga o'zlarining fanlararo tadqiqot loyihalarini amalga oshirishda yordam berishi mumkin. Bu moliyaviy yordam, ekspert maslahati va zarur resurslar va jihozlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu qo'llab-quvvatlash talabalarni mustaqil izlanishga yo'naltiradi va fanlararo ko'nikmalarni rivojlantirish yordam beradi.

7. Bilim va tadqiqot natijalarini almashish uchun platformalar yaratish: fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlari tadqiqot natijalari va bilimlarini nashr etish va almashish uchun platformalar yaratish mumkin. Bular onlayn resurslar, jurnallar, ma'lumotlar bazalari yoki tarmoq ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot tarqatish va aloqalarni o'rnatish imkonini beruvchi maxsus platformalar bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, klaster yondashuvi asosida fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish integratsiyasini qo'llab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi. Bu ko'plab sohalarda hamkorlikda rivojlanish, bilim va tajriba almashish hamda innovatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalar hamda tadqiqotchilarga yanada to'liq va har tomonlama ta'lim olish imkonini beradi.

Tasviriy san'at yo'nalishiga klaster yondashuviga asoslangan mutaxassislik va kasbiy faoliyatga oid fanlararo integratsiya orqali tadqiqot ishlarida ijobiy natijalarga erishish mumkin hamda bu bilan ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari oshadi. Integratsiyasini qo'llab-quvvatlashda fanlararo tadqiqot va ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Bu boshqa OTMlar, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablari bilan hamkorlikni

kuchaytirish bilan birga bilim va tajriba almashish maqsadida ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish hamkorlari va boshqa tashkilotlarni birlashtiradi. Natijada o'zaro bir-biriga bog'liq tarmoqlarning birgalikda rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi.

Ta'lim muassasasi, tadqiqot markazlari hamkorligida turli fanlar va yo'nalishlar bo'yicha qo'shma tadqiqot loyihalari ishlab chiqishi uni birgalikda amalga oshirishlari mumkin. Fanlar va yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari zamonaviy fanlarni o'qitishda juda muhim ahamiyatga ega. Bunday loyihalar turli tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan olimlar, tadqiqotchilar hamda talabalarga murakkab muammolarni hal qilish va yangi kashfiyotlarga erishish uchun kuchlarni birlashtirish imkonini beradi. Bilim va uni amalga oshirish uchun harakatlarning mutanosibligi turli ishtirokchilarning birgalikda kontekstga xos bilim va barqaror kelajagi uchun zamin yaratishga qo'yilgan qadamni anglatadi. Bu ilm-fan va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning klassik shakllariga muqobil model bo'lib, unda fan yangi bilimlarni ishlab chiqaradi, keyin esa jamiyat unga amal qiladi. Barqaror rivojlanishga yo'lida alohida fanlarning yakka holda muammolarini yechishi juda murakkab va ziddiyatli hol sanaladi. Muammolar yechimiga qaratilgan bilim va harakatlarning mutanosibligiga hamkorlar faoliyati uchun istiqbolli yo'l deb qarash mumkin, chunki u turli fanlar va amaliyotlardan har xil bilimlarni birlashtirishga imkon beradi. Hamkorlikka asoslangan gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlar, robototexnika va dizayn, innovatsion ta'lim texnologiyalari sohalaridagi mana shunday tadqiqot loyihalariga kiradi.

- gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlar: Tilshunoslar, tarixchilar, kompyuter mutaxassislari va dizaynerlar madaniy va tarixiy hodisalarni tushunishning yangi usullariga olib keladigan katta hajmdagi matn va grafik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun birgalikda ishlashi mumkin.

- robotexnika va dizayn: Muhandislar, texnologlar, dizaynerlar va kompyuter texnologiyasi mutaxassislari birgalikda maishiy turmushni yaxshilash, o'quv amaliyotida talabalarni qiziqtirish uchun robot tizimlarini yaratishlari mumkin.

- innovatsion ta'lim texnologiyalari: Pedagoglar, psixologlar, dasturchilar va dizaynerlar samaraliroq ta'lim olishga yordam beruvchi yangi ta'lim texnologiyalarini yaratish ustida ishlashlari mumkin.

Bunday loyihalar ijodkorlikni, olimlar, tadqiqotchilar hamda endi tadqiqotga kirib kelayotgan talabalar o'rtasida bilim va tajriba almashishni rag'batlantiradi, bu esa pirovardida murakkab muammolarni to'liq va chuqurroq tushunishga, innovatsion yechimlar ishlab chiqilishiga olib keladi.

Bu professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar hamda talabalarning birgalikda ishlashi, bilim va tajriba almashishi, murakkab muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi.

Fanlararo kurslar va dasturlarni tashkil etish: O'qitish va ijodiy ishlash usullari, ularning afzalliklari va samarali qo'llash metodlarini o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim muassasasida bilim va ko'nikmalarning turli sohalarini birlashtiruvchi fanlararo kurslarni tashkil etish mumkin. Tasviriy san'at yo'nalishidagi san'at tarixi, metodika fanlarida tasviriy san'atdagi asosiy uslublar va yo'nalishlari bilan tanishish, grafika, rangtasvir va kompozitsiya fanlarini o'zlashtirishga qaratilgan tayyorlov kurslari, malaka oshirish, qo'shimcha kasb-hunar o'rgatish kurslari mana shular jumlasiga kiradi. Fanlararo integratsiyaga oid dasturlar ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'quvchilarga har tomonlama ta'lim olish, fanlararo tafakkurni rivojlantirish, boshqa fanlar vakillari bilan jamoa bo'lib ishlash imkonini beradi.

Sanoat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni rivojlantirish: tasviriy san'at yo'nalishida OTMLar, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablari bilan hamkorlik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish orqali ta'lim klasterlari vositasida murakkab muammolarni birgalikda hal qilish va innovatsion loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatlari mavjud. Mana shunday hamkorlik orqali universitet professor-o'qituvchilari va talabalari uzluksiz ta'limdagi tasviriy san'at yo'nalishida, pedagog-rassomning kasbiy va hayotiy faoliyatida uchraydigan muammolarni o'rganishadi. Natijada talabalar o'zlari tanlagan kasbiy faoliyatga moslashib borishadi va hamkorlikda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etiladi. Muammolar chuqurroq o'rganiladi, tahlil qilinadi, uning yechimiga oid vazifalar belgilanadi, real hayotdagi amaliyot jarayonida uni bartaraf etish ko'nikmalari paydo bo'ladi.

Tasviriy san'at sohasida o'zaro tajriba almashish bo'yicha tadbir va forumlar maktab darslaridan tortib xalqaro anjumanlargacha bo'lgan turli darajalarda tashkil etilishi mumkin. Quyida tasviriy san'at sohasida tajriba almashish uchun tadbirlar va forumlar tashkil qilishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta g'oyalarni diqqatingizga havola qilamiz:

Maktab bilan hamkorlikdagi tadbirlar: Maktablar o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va tajriba almashishga yordam beradigan talabalar ishlari ko'rgazmalari, tanlovlar, mahorat darslari va boshqa tadbirlarni tashkil qilishi mumkin.

Mintaqaviy va Xalqaro tadbirlar: ta'lim klasterlari ishtirokchilari o'z tadqiqotlari, loyihalari va ilg'or tajribalarini baham ko'rishlari mumkin bo'lgan konferensiyalar, seminarlar va forum kabi tadbirlarni tashkil qilishi mumkin. Konferensiya, forum, festival ko'rinishidagi mintaqaviy va xalqaro tadbirlar

ishtirokchilarga boshqa OTM talabalari, turli mamlakatlardan kelgan tengdoshlari bilan aloqa oʻrnatish, tajriba va bilim almashish hamda tasviriy sanʼatning soʻnggi yoʻnalishlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Onlayn tadbirlar: Vebinarlar va forumlar kabi onlayn tadbirlar shaxsan qatnasha olmaydiganlar uchun foydali boʻlishi mumkin. Shuningdek, ular ishtirokchilarga boshqa mamlakatlardagi hamkasblari bilan aloqa oʻrnatish, tajriba va bilim almashish, uni muhokama qilish va oʻzaro oʻrganish uchun platforma yaratishga xizmat qiladi.

Mahorat darslari: Tasviriy sanʼat boʻyicha mahoratini oshirmoqchi boʻlganlar uchun mahorat darslari foydali boʻlishi mumkin. Bunday tadbirlar ham shaxsan uchrashuvlarda yoki onlayn tarzda tashkil etilishi mumkin.

Festival, tanlov va badiiy koʻrgazmalar: ishtirokchilarda tajriba va bilim almashish uchun taniqli rassomlar, dizaynerlarning ijodiy asarlarini namoyish etish, talabalarning shaxsiy koʻrgazmalari, festival va tanlovlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Seminarlar va davra suhbatlari: Seminarlar ishtirokchilarga tasviriy sanʼatning soʻnggi yoʻnalishlarini muhokama qilish, ilm-fan va amaliyotdagi eng yangi tendensiyalarni muhokama qilish orqali tajriba va bilim almashish imkonini berish uchun tashkil etiladi.

Bilim, tajriba va tadqiqot natijalari haqida maʼlumot almashish uchun platformalar yaratish: fanlararo tadqiqot va taʼlim tarmoqlari tadqiqot natijalari va bilimlarini nashr etish va almashish uchun platformalar yaratishi mumkin. Bular onlayn resurslar, jurnallar, maʼlumotlar bazalari yoki tarmoq ishtirokchilari oʻrtasida maʼlumot tarqatish va aloqalarni oʻrnatish imkonini beruvchi maxsus platformalar boʻlishi mumkin.

Talabalarning ilmiy loyihalarini qoʻllab-quvvatlash: Taʼlim klasterlari talabalarga oʻzlarining fanlararo tadqiqot loyihalarini amalga oshirishda yordam beradi. Bu faoliyat tasviriy sanʼat yoʻnalishida individual shugʻullanish, ekspert maslahati va zarur resurslar hamda jihozlardan foydalanishni oʻz ichiga olishi mumkin. Bunday qoʻllab-quvvatlash talabalarni mustaqil izlanishga undaydi, faollashtiradi hamda fanlararo uzviyligini anglab yetishi, amaliyotda ularni mantiqan bogʻlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash mumkinki, barcha sohalarda qoʻllanib kelinayotgan klaster yondashuvi tasviriy sanʼat taʼlimida fanlararo tadqiqotlar va taʼlim tarmoqlari integratsiyasini qoʻllab-quvvatlashning muhim omili hisoblanadi. Bu yondashuv koʻplab sohalarda hamkorlikda rivojlanish, bilim va tajriba almashish hamda innovatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi va talabalar va tadqiqotchilarga yanada toʻliq va har tomonlama taʼlim olish imkonini beradi.

Tavsiyalar:

- tasviriy san'atda barcha sohalarda qo'llanib kelinayotgan klaster yondashuvi vositasida fanlararo tadqiqotlar va ta'lim tarmoqlari integratsiyasini qo'llab-quvvatlash turli pedagogik texnologiya va usullarni qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu talabalarning ijodiy qobiliyatlarini ochish, tanqidiy fikrlash va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

- fanlararo tasviriy san'at tadqiqot va ta'lim tarmoqlarining integratsiyasi barqaror tasviriy san'at ta'limi va tadqiqot tizimini yaratishda yanada samarali bo'lishi mumkin.

O'quv jarayonidagi integratsiyani ta'minlashda klaster yondashuvidan foydalanish

Shiddat bilan rivojlanayotgan innovatsiyalar asrida ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha bugungi kunda katta o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bunga tizimdagi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilayotgan ilg'or tajribalarning toboro ommalashib borayotganligini misol qilib ko'rsatish mumkin. Tabiiyki, zamonaviy globallashuv sharoitida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash muhim va kechiktirib bo'lmas dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim tizimiga "klaster modeli"ni tatbiq etish ham ushbu muammo yechimiga qaratilgan innovatsion yondashuv sifatida taklif qilinmoqda. Amalda ijobiy natijalar ko'rsatgan xorijiy tajribalarga tayangan holda Respublikamizda ham ta'lim tizimiga yangi innovatsiyalarni kiritish masalasi davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda, bu esa chiqarilgan qaror, Farmon va boshqa hujjatlarda o'z aksini topib kelmoqda. Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish⁴⁶ davlatimiz tomonidan belgilab berilgan muhim vazifalar sifatida qayd etilgan.

Shuningdek, innovatsion infratuzilma sub'ektlari (innovatsion texnologik park, texnologiyalar transferi markazi, innovatsion klaster, venchur tashkiloti, innovatsiya markazi, startup akselerator, inkubator) tarmog'ini shakllantirish orqali startup tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash hamda yirik hajmli ishlab chiqarishni (kapital yaratish) tashkil etish strategiyaning asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan⁴⁷. Ana shularni hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda ta'lim sohasining zamonaviy o'qitish sifatini oshiradigan, uning dolzarb ehtiyojlarini

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги "Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида" ПФ-5847-сон Фармони.

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 06.07.2022 йилдаги "2022 - 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида" ПФ-165-сон Фармони.

qondiradigan, yangicha imkoniyatlar eshigini ochadigan innovatsion texnologiyalarga bo‘lgan talab oshganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi⁴⁸.

Mana shundan kelib chiqib mamlakatimizda ilg‘or xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan ta‘limga nisbatan innovatsion yondashuv sifatida ta‘lim klasteri rivojlana boshladi. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan OTMlardan biri bo‘lgan Chirchiq davlat pedagogika universitetida ta‘lim klasterining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish bo‘yicha qisqa muddat davomida sezilarli ishlar amalga oshirilib, ushbu mavzuda anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Taniqli olimlardan biri G.I. Muxamedov o‘z tadqiqotlarida klaster yondashuvini amalga oshirish bilan ilm-fan oldida turgan asosiy muammolardan biri bo‘lgan ta‘lim tizimidagi uzviylik va uzluksizlik ta‘minlanib, aloqadorlik kuchaytiradi, ta‘lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari mustahkamlanadi⁴⁹ degan fikrni o‘rtaga tashlaydi.

T.I. Shamova ta‘lim tizimini rivojlantirish haqidagi ilmiy tadqiqotlarida “aniq mahsulot sifatini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalar guruhini bir vaqtning o‘zida rag‘batlantirish orqali ilmiy yoki amaliy muammolardan birini maqsadli ishlab chiqish⁵⁰” klaster yondashuvining maqsadi degan fikrni bildiradi. Muallif umumiy maqsadga qaratilgan hamkorlik ishtirokchilari faoliyatini rag‘batlantirish orqali ijobiy natijaga erishish mumkinligiga ishora qiladi. Bu masalada yosh o‘zbek olimalaridan biri Sh. Sh. Mirziyoeva ham kasbiy sheriklikka asoslangan klaster yondashuviga ta‘lim klasteri ishtirokchilarining samarali faoliyatini rag‘batlantirish usuli⁵¹ sifatida qarash kerak deb yuqoridagi olim fikrini tasdiqlaydi. Biz ham ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda klaster yondashuvini umumiy faoliyatdan manfaatdor bo‘lgan hamkorlik ishtirokchilarining harakatini rag‘batlantirish usuli sifatida qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki, mana shunday yondashuv hamkorlarning kelgusi faoliyati uchun motvatsiya beradi, o‘zaro ta‘sirini oshiradi, alohida sub‘ektlarning birdamligi va o‘zaro ishonchini kuchaytiradi.

Rus olimasi N. A. Tyurina ta‘lim va ishlab chiqarish klasteri birinchi navbatda zanjir ichidagi gorizontal ulanishlarga asoslangan o‘quv tizimini yaratishga imkon beradi⁵² deb ta‘kidlaydi. Muallifning fikricha, ta‘lim tashkilotlari va ish beruvchi korxonalarining integratsiyalashuvi raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, kasbiy ta‘lim sifatini oshirish, o‘qitish vaqtini qisqartirish, malakali mutaxassislar malakasini oshirishning moslashuvchan tizimini yaratish imkonini beradi. Respublikamizda ushbu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqotlar olib borgan yana bir olim

⁴⁸ <https://ictnews.uz/uz/01/11/2017/edutech/#:>

⁴⁹ Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>

⁵⁰ <https://cyberleninka.ru/article/n/klasternyy-podhod-k-razvitiyu-obrazovatelnyh-sistem#:>

⁵¹ https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/202/mirziyoeva_202_87_94.pdf

⁵² <https://cyberleninka.ru/article/n/klaster-kak-forma-integratsii-obrazovaniya-i-proizvodstva>.

U.N. Xodjamqulov klaster hamkorligi ta'lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi tarqoqlikni bartaraf etish uchun zarurligini ta'kidlagan holda ta'lim klasterini – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm⁵³ - deb ta'riflaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, ko'pchilik olimlar ta'lim tizimida klaster yondashuvini qo'llash faoliyatdan manfaatdor sub'ektlar o'rtasidagi aloqadorlik munosabatlarini yaxshilash, huquqi va ma'suliyatini tushunib yetgan holda o'z ustida ishlash, takomillashib borish uchun qulay imkoniyat yaratishini ta'kidlashadi.

Klasterni rivojlantirish siyosati ta'limning diversifikatsiyasi va integratsiyasi kabi ikkita global jarayon bilan belgilanadigan asosiy innovatsion tashabbus sifatida qaraladi⁵⁴ deb ta'kidlaydi A.N. Bezrukov va boshqa mualliflar. Darhaqiqat, ta'limdagi integratsiyalashuv har bir soha uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalar rivojlanishiga sharoit yaratadi. Butun dunyo rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim sohasidagi integratsiyaga fan taraqqiyoti bilan bog'liq ilmiy bilimlarni uyg'unlashtiruvchi eng samarali va istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Integratsiyalashgan o'quv tizimi nazariy tayyorgarlikni kasbiy faoliyat bilan uzviy bog'lashni ta'minlaydi⁵⁵ deydi bu haqda M.N. Ruseskaya va D.K. Bartosh o'z tadqiqotlarida.

Yuqoridagi mualliflarning fikrlariga qo'shimcha sifatida ta'kidlash mumkinki, aynan integratsiya ilmiy bilimlarni umumlashtirish, uning murakkabligi va izchilligini oshirishga xizmat qiladi. Ilmiy bilimlarning tabiiy rivojlanishi fanlar tabaqalanishining kuchayishiga olib keladi. Shu bilan birga, texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi ko'p jihatdan nafaqat fanning alohida sohalari muvaffaqiyatiga, balki fanlararo sintez va ularning yutuqlarini integratsiyalashga ham bog'liq⁵⁶ hisoblanadi.

Aslida, "integratsiya" atamasi bugun paydo bo'lgani yo'q, barcha sohalarda, shu jumladan pedagogikada ham bunga azaldan murojaat qilib kelishgan. Rus olimlaridan biri V.A.Degterev turli fanlarni o'qitish jarayonida yaxlit ijodiy shaxsni shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini o'rganish gumanitar sohada eng samarali⁵⁷ usul ekanligini ta'kidlaydi. Taniqli pedagog Ya.A.Komenskiy o'z

⁵³ Ходжамқулов, У. Н. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери (Ўзбекистон таълим тизими мисолида). Academic research in educational sciences, (4), 537-547.

⁵⁴ Безруков А.Н., Сухристина А.С., Зиятдинова Ю.Н. Разработка модели сетевого взаимодействия региональных вузов // Современные проблемы науки и образования. 2016. № 4. С. 153–161.

⁵⁵ <https://cyberleninka.ru/article/n/klasteriyy-podhod-v-organizatsii-obrazovatelnyh-protsessov-sistemy-nepreryvnogo-professionalnogo-obrazovaniya>

⁵⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/ob-integratsionnyh-protsessah-v-obrazovanii#>:

⁵⁷ Дегтерев В.А. ИНТЕГРАЦИЯ В СИСТЕМЕ НЕПРЕРЫВНОЙ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 3. ; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=6490> (дата обращения: 26.11.2023).

davrida predmetlararo bog‘lanish sistemasini maktab didaktikasini asosi sifatida ko‘rsatib, “tabiatdagi narsalar va xarakterlar bir-biriga bog‘langani singari ta’lim berishda ham o‘rgatiladigan narsalarning hammasi bir-biri bilan uzviy ravishda bog‘lik tarzda o‘qitilishi kerak⁵⁸” degan fikrni aytgan edi. Shu kungacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan ushbu yondashuv bugungi kunda ham uzluksiz ta’limda ta’lim sifati va kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tajribadan o‘tgan eski an‘analarni zamon talablariga moslab ta’limga tatbiq etish albatta o‘z natijalarini beradi. Buning uchun hozirgi globallashuv davrida sifatli ta’limga qaratilgan maqsad va vazifalar doimiy ravishda yangilanib, zamon talablariga moslashtirib borilishi zarur. Bugungi kunda fanlararo integratsiya bilan birga “inklyuziv ta’lim”ga qaratilgan integratsiyalashuv jarayoni pedagog-olimlar tomonidan tez-tez tilga olinmoqda. Biz inklyuziv ta’lim haqidagi fikrlarimizni keyingi mavzumizga qoldirgan holda, ushbu maqolada fanlararo integratsiya jarayonlari haqida fikr almashamiz. Fanlar integratsiyasi ta’lim mazmunida ilmiy tamoyilni amalga oshirishga yordam beradi, tizimli tafakkurni kuchaytiradi, tabiatni yaxlit idrok etishni rivojlantirishga imkon yaratadi va ta’sir ostida paydo bo‘ladigan fan rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini ochib berish usuli bo‘lib xizmat qiladi.

Klaster yondashuvi asosida maqsad va ta’lim natijalarini ishlab chiqish, ta’lim mazmuni, shakllari hamda usullarini aniqlashda aynan integratsiya asosiy yetakchi tamoyil hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlardagi xorijiy olimlar integral vositalar kasbiy mahoratni rivojlantirish jarayonining muhim qismi⁵⁹ dir degan g‘oyani olg‘a surishadi. Zamonaviy mutaxassislar integrativ yondashuv ushbu tamoyilni amalga oshirish vositasi bo‘lib, pedagogik jarayonning har qanday tarkibiy qismida uning yaxlitligi va izchilligini ta’minlaydi⁶⁰ degan fikrni bildirishadi.

Hozirgi bosqichdagi integratsiya jarayoni ta’lim va fan tizimini tizimli va o‘z vaqtida isloh qilish bilan bir qatorda fanlarning yaqinlashishi va bog‘lanish jarayonini osonlashtiradi. Bu ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi va fanning rivojlanishiga olib keladi⁶¹ deydi L.B. Morgoeva o‘z tadqiqotlarida. Bugungi kunda ta’limda klaster yondashuvini tatbiq etish mana shunday fanlar ichida va fanlararo integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterini amaliyotga qo‘llash natijasida bir tomonlama mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash hamda ta’lim, fan va ishlab

⁵⁸ Коменский Д.О. “Буюк динамика”, -Т., 1975,21,132,142,144-бстлар.

⁵⁹ Timonin A.I. The Model of Self-realization Readiness Formation of Research Universities Students in the Process of Civic Education // International Review of Management and Marketing. 2016. No 6(1). pp. 128-133.

⁶⁰ <https://science-education.ru/ru/article/view?id=6490#:~:>

⁶¹ Моргоева Л.Б. Процесс интеграции высшего образования как важный фактор развития гуманитарных наук // Фундаментальные исследования. – 2008. – № 7. – С. 90-90;
URL: <https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=3509> (дата обращения: 26.11.2023).

chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlanishiga sharoit yaratiladi. Ikkinchi tomondan davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash masalalari hal etiladi⁶².

Fanlararo integratsiya jarayonida talabalarda tafakkurga tegishli qadriyatlar, umumiy madaniy, axborot va muloqotga oid kompetensiyalar shakllanadi deydi Rossiyalik olimlar. Shuningdek ularning fikricha, ta'lim muhitida fanlar integratsiyasi konsepsiyasi talabalarda keng ko'lamli ta'lim maqsadi nuqtai nazaridan ular olgan mutaxassislik va kasb haqida yaxlit tasavvur yaratish imkoniyatini nazarda tutadi⁶³. Har qanday soha taraqqiyoti uchun bugungi kunda ma'naviyati yuksak, mustaqil va ijodiy fikrlovchi, ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan zamonaviy yetuk mutaxassis juda zarur. Integratsiyalashgan ta'lim talabalarning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi, o'rganilayotgan faktlar va ularni tushuntirish usullariga sub'ektiv munosabatning namoyon bo'lishiga, muammolar, paradokslar va qarama-qarshiliklarni mustaqil ravishda ochishga, ta'lim jarayonida evristik pozitsiyani egallashga yordam beradi⁶⁴. Ta'limga integratsion yondashuv barcha sohalar kabi tasviriy san'at ta'limida ham raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning zaminiy asosidir.

N. M. Sokolnikova munosabatlarni turli xil badiiy va ijodiy faoliyat bilan bog'liq darslarni mavzuli bloklarga birlashtirish deb hisoblaydi. Uning fikricha, "Tasviriy san'at" o'quv fanining bo'limlari va badiiy ijodning har xil turlari o'rtasida tizimli aloqalarni ta'minlash tasviriy san'atni o'qitish samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Ushbu fanlararo aloqalar mavzuli bloklar (sikllar) shaklida mavjud bo'lishi mumkin⁶⁵ deb hisoblaydi. Darhaqiqat, mamlakatimizda bu borada birinchi poydevor qo'yilib, ta'lim klasterlari haqida umumiy tushunchalar hosil qilingan bo'lsada, uni yanada torroq yo'nalishlarda sinchiklab o'rganish, uni amaliyotga tatbiq etish uchun ehtiyoj juda yuqori. Ilg'or xorijiy tajribalarni yurtimizda mavjud bo'lgan an'analar bilan uyg'unlashtirgan holda klaster yondashuvining milliy modelini yaratish bugungi davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda tadqiq qilinadigan vazifalar juda ko'p. Har bir yo'nalish va sohalarda

⁶² Султанов, Х. Э., & Муратов, Х. Х. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери орқали ўқув жараёни ва амалиётнинг самарали интеграциясини таъминлаш. инновации в педагогике и психологии, (SI-3).

⁶³ Карандеева А.М. Интеграция учебных дисциплин как средство повышения качества образования: сборник трудов конференции. / А.М. Карандеева, А.Г. Кварацхелия, Ж.А. Анохина [и др.] // Современные тенденции развития системы образования : материалы Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 25 апр. 2019 г.) – Чебоксары: ИД «Среда», 2019. – С. 240-242. – ISBN 978-5-6042436-8-8.

⁶⁴ Карандеева А.М. Интеграция учебных дисциплин как средство повышения качества образования: сборник трудов конференции. / А.М. Карандеева, А.Г. Кварацхелия, Ж.А. Анохина [и др.] // Современные тенденции развития системы образования : материалы Междунар. науч.-практ. конф. (Чебоксары, 25 апр. 2019 г.) – Чебоксары: ИД «Среда», 2019. – С. 240-242. – ISBN 978-5-6042436-8-8.

⁶⁵ Сокольникова Н. М. Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальной школе. — М., 2002. — С. 307.

qo‘llash imkoniyatlari ustida izlanishlar olib borish, ushbu mavzuga yoshlarni jalb etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Tasviriy san‘at ta‘limida fanlararo integratsiya shartli ravishda ichki va tashqi fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikka asoslanadi. Ichki aloqadorlik deganda birinchi navbatda bir fan ichidagi mavzular uzviyligi nazarda tutiladi. Mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzluksizligi bilim olishni osonlashtiradi, olgan bilimi talabani xotirasiga yaxshi joylashadi.

Ikkinchidan, soha bo‘yicha bilim berishda qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, plastik anatomiya, metodika, san‘at tarixi kabi fanlar orasidagi uzviy aloqalar hisobga olinadi. Shuningdek, ichki aloqadorlikda tasviriy san‘at, amaliy san‘at va dizayn yo‘nalishlari, tasviriy san‘at turlari, janrlari orasidagi uzviylik ham tushuniladi. Qayd etilganlarning barchasi talabani ijodiy qobiliyatlarini metodik jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Integratsion yondashuvning metodik yo‘nalishi - tasviriy san‘at fanining dars va mashgulotlarida tasvirlanadigan narsa, voqea-hodisalarning shakli, tuzilishi, mazmuni, yorug‘ soylari, rangi va kompozitsiyasini o‘qitish hamda o‘rganishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarida namoyon bo‘ladi⁶⁶.

Tashqi bog‘lanish sifatida esa tasviriy san‘at darslarini tarix, adabiyot, musiqa, psixologiya, texnologiya, informatika, kimyo, fizika, matematika kabi boshqa fanlar bilan integratsiyalash mumkin. Tasviriy san‘atni o‘qitishda fanlararo bog‘lanish - bu fanni o‘qitishning didaktik asosi bo‘lib, uning asosiy tamoyillaridan biri sifatida xizmat qiladi⁶⁷ degan fikrni bildiradi bu haqida taniqli o‘zbek olimi B.N. Oripov o‘z ilmiy izlanishlarida. Ushbu olim tadqiqot ishlarida asosan tasviriy san‘atning biologiya fani bilan bog‘liqligini o‘rgangan. Respublikamizda taniqli olim, rassom-pedagog R.A. Xudayberganov rangshunoslik va kompozitsiya asoslarini chuqurroq tushunish uchun tasviriy san‘atning fizika, kimyo, psixologiya, fiziologiya va estetika kabi fanlar bilan integratsiyasi muhimligiga urg‘u beradi⁶⁸.

Masalan, tasviriy san‘at bilan tarix fanining integratsiyasi tarixiy voqeliklarni tasavvur qilish, tahlil qilish, mohiyatini anglab yetish hamda to‘g‘ri haqqoniy tasvirlashga katta yordam beradi. Adabiyot fani bilan integratsiyada talabalar kitoblarda ifoda etilgan voqeliklarni tasvirlash orqali adabiy asarlarni yaxshiroq tushunib yetadi. Olgan taasuroti va bilimiga tayanib kitobdagi voqeliklarni tasvirlaydi, chiziqlar va rang surtmalarida ushbu voqeliklarga nisbatan o‘z fikrini ifodalaydi.

⁶⁶ Орипов Б.Н. Мактаб тасвирий санъатини ўқитишда предметлараро боғланиш //Монография/ -Т.: “Fan va texnologiya”, 2013,16 бет.

⁶⁷ Орипов Б.Н. Мактаб тасвирий санъатини ўқитишда предметлараро боғланиш //Монография/ -Т.: “Fan va texnologiya”, 2013, 93 бет.

⁶⁸ Худайберганов Р.А. Рангшунослик ва композиция асослари // ўқув қўлланма. Т.: 2017. -14 Б.

Musiqqa ta'limi bilan integratsiya talabalar musiqaning tasviriy talqinlarini yaratish uchun zarur, hissiy idrokiga asoslanib har xil ohanglarni ranglarda ifodalashni o'rganadi. Rassomni ilhomlantirish, ijodga rag'batlantirish, yangi badiiy g'oyalar paydo bo'lishida musiqaning ahamiyati katta. Musiqqa va tasviriy san'at bir-biri bilan chambarchas bog'liq hamda tomashabinga estetik zavq berishda bir-birini to'ldiradi. Musiqqa kuylarning mayinligi, g'amginligi, sho'x va isyonkorligi bilan tinglovchining hissiyotiga ta'sir qilib, unda turli tasavvurlar uyg'otadi. Kompozitor K.Debyussining "Oy nuri" asarini xuddi shunday musiqiy "kartina" deyish mumkin, tasviriy san'atda esa tomoshabin chiziqlar va ranglarning ma'lum kombinatsiyasidan jarangdor kuylar tuyg'usini his qiladi ("rangtasvir ohangi"). Bu kabi asarlar ko'pchilik rassomlarning ijodida o'z aksini topganligini ko'ramiz. Isaak Levitanning "Jimjitlik" kartinasidagi xotirjamlik holati mana shunday asarlarga yaxshi misol bo'la oladi. Buyuk rassom, tasviriy san'at nazariyotchisi, abstraksionizm oqimining yirik namoyandasi Vasiliy Kandinskiy ijodida ham musiqiy ohanglar ufurib turadi. E'tirof etilishicha ushbu rassom tovushni ko'ra olgan, rangni eshitib, ohanglar, ranglar va shakllar o'rtasidagi munosabatni his qilgan hamda musiqani o'z kartinalariga tarjima qilgan⁶⁹. "Ranglar - bu klavishlar, ko'zlar - bolg'achalar, qalb esa bamisoli ko'p torli royaldir. Rassom qo'llari shular vositasida inson qalbi tebranishlarini yuzaga chiqaradi" deb ta'kidlaydi Kandinskiy o'z esdaliklarida. Qisqasi tasviriy san'at va musiqqa integratsiyasi har ikki tomon uchun ham samarali hamkorlik deb bema'lol ta'kidlash mumkin.

Tasviriy san'at va texnologik ta'lim fani o'rtasidagi bog'liqlik, talabalarning tasavvuridagi narsalarni amaliyotda bajarish, yangi g'oyalar asosida turli buyumlarni, ikkilamchi materiallarni ham qulay ham estetik jihatdan foydali mahsulotlar holida yaratilishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, tasviriy san'at turli xil geometrik shakllar tuzilishi, uning nisbatlarini yaxshi tushunish hamda fazoviylikni anglab yetishga yordam beradi. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi esa hayotiy faoliyat va ishlab chiqarishda har xil buyumlar yasashni osonlashtiradi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining estetik rivojlanishi uchun ularning tasviriy san'at darslari bilan uzviy aloqasi mehnat darslarining ahamiyatini yanada oshiradi⁷⁰ deb ta'kidlaydi bu haqda rus olimi V.P. Butkovskiy. Tasviriy san'at yo'nalishida tahsil oladigan talabalar esa kelgusida aynan mana shunday o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beradi.

Zamonaviy tasviriy san'at o'qituvchisi studiyalar, umumta'lim maktablari, musiqqa va san'at maktablarida o'quvchilarga bilim beruvchi pedagog, ma'lumotni

⁶⁹ <https://newstyle-mag.com/art-guide-february-2021/#>:

⁷⁰ Бутковский В.П. Взаимосвязь трудового и эстетического воспитания в общественно полезной деятельности учащихся начальных классов средствами изобразительного искусства // АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук/ Москва — 1995.

yoshlarga ularning idrokiga moslab aniq va tushunarli yetkazuvchi иллюстратор, veb-saytlar yoki veb-illovalar uchun veb-foydalanuvchi interfeyslarini loyihalovchi Web – dizayner sifatida faoliyat ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi. Shunday mutaxassis tayyorlashda informatika bilan integratsiya juda qo‘l keladi. Ta‘lim-tarbiya jarayonining eng kerakli atributi bo‘lgan kompyuter o‘quv faoliyatini tashkil etish, eng muhimi tasviriy san‘at o‘qituvchisi va talabalarning ijodiy g‘oyalarni amalga oshirishda katta yordamchi vosita bo‘lib qoldi.

Kompyuter texnikasi inson faoliyatining barcha turlariga joriy qilingan axborot texnologiyalari asrida, kompyuter grafikasi tasviriy san‘at sohasida ijodkorlarning imkoniyatlarini yanada kengaytirib bormoqda. Kompyuter grafikasi postmodern san‘atining yo‘nalishlaridan biridir. Postmodernizm - bu san‘at sohasiga kiradigan keng madaniy harakat⁷¹ deb ta‘riflaydi rus olimasi L.N. Turlyun.

Kompyuter texnologiyalari imkoniyatlari arsenali juda keng bo‘lib, grafik dasturlarning xilma-xilligi rassomlarga klassik san‘atning barcha texnikalari, avangard san‘ati asarlariga taqlid qilish va shaxsiy ijodiy uslubda o‘ziga xos asarlarini yaratish imkonini beradi⁷².

Tasviriy san‘at sohasida foydalanish mumkin bo‘lgan kompyuter grafikasi bo‘yicha Corel Draw, Adobe Illustrator, Macromedia FreeHand, Macromedia Flash, Paint, Adobe Photoshop, Corel Photo-Paint, Paint Shop Pro, Microsoft Photo-Draw, Adobe Photo Deluxe, Corel Painter kabi juda ko‘plab dasturlar mavjud. Kompyuter grafikasi - bu qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va boshqa badiiy ta‘limga oid bilimlar, texnologiya va estetikani birlashtirgan sun‘iy fan hisoblanadi. Demak, zamonaviy ta‘limdagi tasviriy san‘atni o‘qitishda kompyuter grafikasi bilan integratsiya o‘qituvchining ishini osonlashtiradi, talabalarni faollashtirish, bilim olish, g‘oyalarni amalga oshirish hamda ijodiy faoliyatga nisbatan motivatsiya beradi.

Zamonaviy ta‘limda o‘qituvchining o‘rni nafaqat bilim berish, balki kelajak o‘qituvchisi bo‘lgan talabalarga kelajakdagi kasbiy va hayotiy faoliyatlari uchun zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishdan iborat. Innovatsion texnologiyalar asrida o‘qituvchi zamonaviy talablarga moslashuvi, kelajak yoshlari ta‘lim-tarbiyasida o‘z ma‘suliyatini his qilishi, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, ro‘y berayotgan har qanday o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishi talab etiladi. Umuman olganda, integratsiyalashgan ta‘limda o‘qituvchining kasbiy roli turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan talabalarning sifatli ta‘limini ta‘minlash kaliti hisoblanadi. Integratsiyalashgan ta‘lim bir muhitda turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan

⁷¹ Турлюн, Л. Н. Компьютерная графика – искусство постмодернизма / Л. Н. Турлюн. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2010. — № 12 (23). — Т. 2. — С. 186-189. — URL: <https://moluch.ru/archive/23/2418/> (дата обращения: 28.11.2023).

⁷² Турлюн Любовь Николаевна. Компьютерная графика как особый вид современного искусства : Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата искусствоведения : 17.00.04. - Бийск, 2006. - 203 с. : ил. РГБ ОД,

bolalar uchun o‘quv dasturlari va o‘qitish usullarini birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan birgalikda ta’lim olish imkonini beradi, ularning ijtimoiylashuvi va jamiyatga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda ta’limda klaster yondashuvini tatbiq etish fanlar ichida va fanlararo integratsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, uning imkoniyatlarini kengaytiradi. Tasviriy san’at darslarini tarix, adabiyot, musiqa, texnologiya, informatika kabi fanlar bilan integratsiyalash talabalarning zamonga mos raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlanishiga katta yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’limni tashkil etishda o‘qituvchining kasbiy roli turli xil ehtiyojlarga ega bo‘lgan talabalar uchun sifatli ta’limni ta’minlash kaliti hisoblanib, o‘qituvchi o‘quv material va o‘qitish usullarini har bir talabaning ehtiyojlariga moslashtira olishi, boshqa mutaxassislar bilan bir jamoada ishlay olishi lozim. Shuningdek, bilimlarni o‘zlashtirishda talabalarga to‘g‘ri yo‘nalish berish va ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash uchun ota-onalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilishi kerak.

Ustoz ko‘magi va maslahatining yosh tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati

Bugungi kundagi ilmiy-texnik sohalarning rivojlanishi va axborot almashinuvining yuksak sur’atlar bilan tezlashishi natijasida ta’lim sohasida ham keng islohotlarga ehtiyoj sezilmoqda. Globallashtirish tufayli xalqaro ta’lim xizmatlari bozorida vujudga kelayotgan raqobat muhiti har qanday mamlakat uchun ta’lim tizimini bugungi davr talablariga moslashni talab qiladi. Tizimga keng doirada yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion uslublarning kirib kelishi, pedagogika sohasidagi zamonaviy texnologiyalarni azaldan sinovdan o‘tgan an’analarimiz bilan to‘yintirib, ilg‘or xorijiy tajribalar bilan boyitish kerakligini ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, innovatsion texnologiyalar asosida uzluksiz ta’lim tizimini o‘zaro integratsiyalashni talab etadi. Turli soha mutaxassislari tomonidan chuqur tadqiq qilinib, rivojlangan mamlakatlarda amaliyotga joriy etib kelinayotgan klaster yondashuvi bugungi kunda ta’lim sohasi uchun ham samarador ekanligi e’tirof etilmoqda. Bunday yondashuv ta’limdagi ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta’minlaydi, to‘plangan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik tajribalar va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta’lim hamda ijtimoiy iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tezkor yetib borishini samarali amalga oshiradi.

Zamonaviy ehtiyoj va sohani rivojlantirishning tabiiy jarayoni sifatida klaster modelining ta’lim tizimiga joriy etilishiga bugungi kunda ta’lim sohasida mavjud muammolarning yechimini topish uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ta’lim klasterlari talabalarning bilim olishi va rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga

qaratilgan bir nechta ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning innovatsion shaklidir. Ushbu yondashuvga faqat boshqa ta'lim muassasalari yoki tashkilotlar hamkorligi qaramaslik kerak. Bu bir muassasa ichidagi tizimlar, fanlar va ta'lim jarayonlarini samarali integratsiyalash usuli hamdir. Ustoz-shogird munosabatlari asosida ta'lim klasterini tashkil etish xuddi shunday integratsion faoliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at yo'nalishida ham yosh pedagog-rassomlarning tajribali hamkasblaridan qimmatli ko'mak va maslahatlar olishiga bo'lgan zarurat juda kuchli. Ushbu maqolada aynan ta'lim klasteriga asoslangan Ustozlik ko'magi va maslahatlarining yosh tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy va ijodiy rivojlanishidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi: talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun klaster yondashuvi asosida Ustoz-shogird an'alarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda ta'lim tizimiga tatbiq etishga qaratiladi. Mutaxassislarining kasbiy malakasini shakllantirish uchun o'z vaqtida yordam berish zarurati ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz-shogirdlik an'alaridan o'rinli foydalanishga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o'z ifodasini topadi.

Bu masala Respublikamiz ta'lim tizimida hal etilishi lozim bo'lgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida 2018 yil 10 sentabrdagi 20-2018-son buyrug'i⁷³, «Oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv yuklamasi hamda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va «ustoz-shogird» ishlarini belgilash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 30 noyabrdagi 44-2021-son buyrug'i⁷⁴ da ham «Ustoz-shogird» ishlariga alohida e'tibor berilganligini ko'ramiz. Unda talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlari hamda ularning ijodiy ishlari ko'rgazmalarida ularning ishlanmalari va ishtirokiga rahbarlik qilish professor-o'qituvchilarning ish turlari biri etib belgilangan.

Ustoz-shogird an'analari azaldan ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Ushbu tizim barcha ishtirokchilar: o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar, otanonalar, hududiy korxonalar xodimlari, yosh mutaxassislar- ning o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishi uchun samarali muhit yaratadi. Ta'limdagi mentorlikning maqsadli modeli dasturi har qanday tashkilot doirasida munosabatlarni o'rnatish

⁷³ Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2018 й., 10/18/3076/2007-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.12.2021 й., 10/21/3076-1/1181-сон

⁷⁴ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.12.2021 й., 10/21/3076-1/1181-сон

imkonini beruvchi universal texnologiyadir. Bu mavjud tajriba va bilimlarni, intensiv shaxsiy rivojlanishni, hayotiy qadriyatlarni, shuningdek, ko'nikmalarni, malakalarni va meta-kompetentsiyalarni shakllantirish texnologiyasidir.

Ta'limning ushbu shaklidan butun dunyoda insonlar qadim zamonlardan buyon samarali foydalanib kelishgan va ushbu faoliyat yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning keksa avlod tomonidan amalga oshiriladigan eng qulay usuli sifatida qabul qilinadi. Psixologik nuqtai nazardan rus pedagoglarining fikricha, Ustoz-shogird tizimi, kasbiy tajriba va axloqiy me'yorlarni yoshlarga yetkazish uchun ikki avlod o'rtasidagi ishonchli uzviy munosabatdir⁷⁵ deyiladi. Tajribali insonlar va hayot so'qmoqlariga endi kirib kelgan navqiron avlod vakillari, mahoratli kasb egasi va ilm olish, kasb-hunar o'rganishni jazm etgan yoshlar o'rtasidagi bunday munosabat o'zaro ishonch ilm-fan va hunarga nisbatan qiziqishni oshiradi. Ma'lumki, Sharqda ham azal-azaldan kasb-hunar ulug'langan, ustoz-shogird odobi va ustozning shogirdga bo'lgan mehr-oqibati juda yuqori qo'yilgan. Buyuk allomalarimiz doimo kasbga ega bo'lish, ilm olish, savodli bo'lib hayot kechirishga da'vat etib kelganlar⁷⁶. Xalqimizda ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida million yillardan buyon yashab, kamolga yetib, rivojlanib kelayotir. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Aynan shu yo'l bilan yosh avlod amaliy bilimlar, odob-axloq, kasbiy malaka, jamiyatda o'zini tuta bilish, mehnat qurollari bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Darhaqiqat, zamonaviy tasviriy san'at ta'limida ham ustozlik (mentorlik) - keksa avlod yoki ma'lum ko'nikmaga ega bo'lgan kasb egasi tomonidan bilim va ko'nikmalarni yoshlarga yetkazib berishining eng qulay va samarali usuli hisoblanadi. Yosh olimlardan biri D. Berdiev ta'lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligiga erishish uchun tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mazmuniga zamonaviy talablar asosida yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, mutaxassislarining professional imkoniyatlarini kengaytirish kerak⁷⁷ligini ta'kidlaydi. Yosh olimning g'oyalarini e'tirof etgan holda shuni shuni qo'shimcha qilish mumkinki, yangi innovatsiyalarning azaliy an'analar bilan uyg'unligiga erishish ta'lim uchun yanada samaraliroq bo'lishi mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ustoz-shogird an'analariga asoslangan ta'lim klasteri yosh tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy ta'lim va ijodiy faoliyatga yo'naltirish uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi. Bunday yondashuv talabalarga Ustozi hamda o'z tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, hayotda to'g'ri yo'l tanlashi va

⁷⁵ <https://didacts.ru/termin/nastavnichestvo.html#>:

⁷⁶ Маликова Д.Қ. Шарқ мамлакатларида “устоз-шогирд”лик анъаналарининг шаклланиши ва ривожланиши // "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4/ 1753 б.

⁷⁷ Abduvoitovich B. D. STEAM ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini oqitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 18. – С. 187-193.

kasbiy faoliyatda bir-birini yaxshi tushunishiga yordam berishi mumkin. Yana bir pedagog I. Baxriev ustozlar tomonidan san'at asarlarini badiiy tahlil qilish orkali talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish mumkinligiga ishora qiladi. Bu ulardagi tahlil qilish, sintezlash, takkoshlash, abstraksiyalash, umumlashtirish xulosalashlarning ma'nolarini anglab olishlari uchun kerak bo'ladi⁷⁸. Ushbu muhitda murabbiylik ko'magi va maslahat berishi, tajribali Ustozlar va yangi yosh o'qituvchilar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi hamda pedagog-rassomlarning kasbiy-ijodiy o'sishi, rivojlanishiga xizmat qiladi. Tajribali mutaxassislar yordamida yoshlar ma'lum hayotiy qadriyatlarni egallashadi, jamiyatda o'zaro ijodiy munosabat ko'nikmalari shakllantiriladi, keyingi hayotiy faoliyatlarida bilimlarini muvaffaqiyatli amalda qo'llashni o'rganishadi.

Qadimiy an'analar innovatsion usullar bilan to'yintirilgan muhitda klaster yondashuvini tatbiq etish yosh tasviriy san'at o'qituvchilariga tajribali hamkasblarning tajribasi va bilimlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bu jarayonda mentorlar o'zlarining kasbiy mahoratlari, o'qitish va ijodiy ishlash uslublarini talabalarga bevosita yetkazishlari mumkin. Bu esa yosh o'qituvchilardagi bilim va kasbiy malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tajriba almashish ijodiy fikrlashni va o'qitishda yangi g'oyalarni izlashni rag'batlantiradi.

Klaster yondashuviga asoslangan ta'lim jarayonida murabbiy-Ustoz yosh tasviriy san'at o'qituvchilariga har tomonlama individual ko'mak beradi. Tajribali murabbiylar yosh o'qituvchilarning individual ehtiyojlari va zaif tomonlarini aniqlashga, rivojlanish rejasini ishlab chiqishga va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengishda yordam beradi. Bu yosh o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi va ularni kasbiy-ijodiy tomondan yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi.

O'z faoliyatini endigina boshlayotgan yosh tasviriy san'at o'qituvchilari ta'limni tashkil etish, o'qitish va o'quv jarayoni talablariga moslashishda qiynalishi mumkin. Ta'lim klasteri doirasida ko'mak va maslahatlar ushbu moslashish davrini yumshatishga yordam beradi va yosh o'qituvchilarning kasbiy moslashuvini osonlashtiradi.

Ta'lim klasterlari yosh tasviriy san'at o'qituvchilarining tajribali murabbiylar bilan qo'shma loyihalar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday loyihalar doirasidagi hamkorlik barcha ishtirokchilar uchun ijodkorlikni rag'batlantiradi va ta'lim jarayonini boyitadi. Zamonaviy ta'lim klasterida, ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishida yosh o'qituvchi-rassomlarning shakllanishi va kamol topishida ustozning ko'magi va maslahatlari hal qiluvchi o'rin tutadi.

⁷⁸ Бахриев, И. (2020). Ривоятларнинг санъат асарларидаги тугган ўрни ва унинг баркамол ёшларни тарбиялашдаги аҳамияти. Academic Research in Educational Sciences, 286-295.

Bunday yondashuv nafaqat yosh o'qituvchilarning shaxsiy o'sishi, balki ushbu yo'nalishdagi ta'lim sifatini oshirishga ham hissa qo'shadigan zaruriy qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi. Talabalarning kasbiy mahoratini oshiradi, individual qo'llab-quvvatlaydi va jamoadagi o'zaro hamkorlikni rag'batlantiradi.

Tasviriy san'atni o'rgatish jarayoni nafaqat pedagogik mahorat, texnik ko'nikmalarni, balki ijodiy tamoyillarni tushunishni, badiiy asarlarni tahlil qilish va sharhlay bilishni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tajribali o'qituvchilarning tajribasi yosh pedagog-rassomlar uchun juda qimmatli bo'lib, ularga nafaqat pedagogik mahoratni shakllantirish, texnik jihatlarni o'zlashtirish, balki o'z ijodiy ishlash uslublarini rivojlantirish imkonini beradi. Mentorlar tinglovchilarning individual ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlab, ularning qobiliyatlariga ishonchni rivojlantirish va ijodiy faoliyatda o'zlarining noyob uslubini topishlariga yordam beradi.

Murabbiylikda natijaga erishishning muhim tarkibiy qismi bu ta'limga individual yondashuv hisoblanadi. Yosh pedagoglar kasbiy mustaqil ijodiy faoliyatini boshlashning ilk davrida turli anglashilmochilik va qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Individual maslahatlashuvlar va tavsiyalar ularga qiyinchiliklarni, ijodiy to'siqlarni yengish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, har bir ustoz talabalar bilan o'z tajribalari haqida o'rtoqlasha oladilar, o'quv jarayonini tashkil etish, kelgusidagi pedagogik faoliyaida o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish va innovatsion usullardan foydalanish bo'yicha maslahatlar berishi mumkin.

Bu yerda murabbiylarning talabalardagi pedagogik va ijodiy faoliyatga moslashuvni rag'batlantirish rolini ham ham alohida ta'kidlash kerak. Universitet ta'lim muhitidagi o'qishdan umumta'lim maktablaridagi amaliy faoliyatga o'tish yosh pedagoglar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Mentorlar tasviriy san'at darslarini tashkil etish, sinfni samarali boshqarish, hamkasblar bilan muloqot qilish va o'quvchilarni faollashtirishga yordam beruvchi o'quv muhitini yaratish bo'yicha o'z tajriba va bilimlarini almashish orqali talabalarga maktabda shakllangan o'qituvchilar jamoasiga qo'shilishga yordam beradi.

Boshqa OTMlar, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablari bilan hamkorlik hamda qo'shma loyihalar ham mentorlik va maslahat berish jarayonida muhim o'rin tutadi. Ular boshqalar bilan bilim va tajriba almashishni rag'batlantiradi, yosh o'qituvchilarga amalda o'rganish imkonini beradi va ta'limga hamkorlikda yondashuvni rivojlantiradi. Hamkorlikdagi ish zamonaviy ta'lim talablariga moslashtirilgan innovatsion usullarni yaratishga yordam beradi.

Xulosa

Demak, klaster yondashuviga asoslangan ta'lim jarayonida yosh rassom-pedagoglarni kamol toptirish, tasviriy san'at bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda

ustozlik ko‘magi va maslahatlari juda muhim o‘rin tutadi. Qo‘llab-quvvatlovchi muhit, kasbiy rivojlanish, individual maslahatlar, pedagogik va ijodiy faoliyatga moslashishga ko‘maklashish va hamkorlikdagi loyihalar OTM bitiruvchilarining hayotiy faoliyatga tayyorlaydi, ta‘lim berish, bilim olish sifati ko‘tariladi, Ustozlar bilan bevosita hamkorlik hamda samimiy munosabat bitiruvchilardagi o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda faollik, turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish xislatlari tarbiyalanadi. Uzluksiz ta‘lim tizimiga nisbatan yangicha yondashuvlarni, innovatsion loyihalarni ishlab chiqilishiga olib keladi.

Tavsiyalar: Tadqiqotning xulosalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflarni keltirish mumkin:

- mavzu doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi va ko‘lamini oshirish;

- tasviriy san‘at ta‘lim yo‘nalishining o‘ziga xos spesifik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Ustoz-shogird tizimida ishlash mexanizmlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- tasviriy san‘at ta‘limida ustoz ko‘magi va maslahatiga asoslangan klasterli yondashuv faoliyatini tashkil etish hamda ishlab chiqilgan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

Umumta‘lim maktablari tasviriy san‘at darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Bugungi kunda yosh avlodga ta‘lim tarbiya berishda o‘quvchilar ongiga milliy g‘oyaning asosiy yo‘nalishlarini singdirish badiiy ta‘lim vositalaridan samarali foydalanish, o‘quvchilarning ma‘naviy siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shaxsdagi ijodkorlik xususiyatlarini qanday tarbiyalash mumkin?, degan muammo bugun paydo bo‘lgan emas. Azaldan ijodkorlikning boshlanishi bo‘lgan insondagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bevosita bolalar ta‘lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan pedagoglarni ham, ilmiy tadqiqotchilarni ham birdek qiziqtirib keladi. Ta‘lim va tarbiya, shaxsning shakllanishi, qobiliyatlarning rivojlantirish hanuzgacha zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Uni tadqiq qilinar ekan avvalo qobiliyatlar keng ma‘noda va badiiy ijodkorlik ayri holda nimani anglatadi degan mavzuda juda ko‘plab ruhshunoslar izlanish olib borishgan va borishmoqda. Bular orasida B.M.Teplov (16), R.S.Nemov (11), S.L.Rubinshteyna (13), B.G.Ananeva (1,2), L.S.Выготского (3), A.N.Leontev (10), V.S.Kuzinlarning ishlarini alohida ta‘kidlab o‘tish mumkin.

Ularning izlanishlarida mazmun, mohiyatni aniqlab olish, qobiliyatlar tushunchasi tadqiqot qilinadi.⁷⁹

B.M.Teplov qobiliyatlar bu shaxsning alohida ruhiy xususiyati bo'lib, qandaydir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga, inson tomonidan avval ishlab chiqilgan va biror natijaga olib kelmaydigan bilimlar, mahorat va ko'nikmaga aloqador bo'lgan xususiyatdir⁸⁰ deb yozadi. S.L.Rubinshteyn qobiliyatlar bu shaxsdagi umumlashgan ruhiy faoliyatlar tizimiga birlashtirilgan. Qobiliyatlarning ko'nikmalardan farqi harakatlar usullarini mustahkamlash natijasi emas, balki harakatlar orqali boshqariladigan faoliyatlarning ruhiy jarayonlaridir⁸¹ deb hisoblaydi. V.S.Kuzin esa qobiliyatlar haqida quyidagicha fikr yuritadi: Qobiliyatlar deganda aniq bir faoliyat turini yuqori darajada bajarishga xizmat qiladigan, shaxs sifatleri va xususiyatlari tushuniladi.⁸²

Bunday ta'rif har qanday qobiliyat qandaydir faoliyat natijasi bo'lib, bu faoliyat talablariga mos keladigan va o'ziga kerakli sifat va xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Qobiliyatlar umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo'linadi. Insonning barcha faoliyatlarida u yoki bu darajadagi ko'rinishi umumiy qobiliyatlar deyiladi. Maxsus qobiliyatlar inson faoliyatining faqat alohida turlarida (ijodiy, pedagogik va h.k...) ko'rinadi. A.Kovalev qobiliyatlarni ikki guruhdan tashqari yana uchinchi guruhga amaliy faoliyatga nisbatan qobiliyatlarga bo'ladi. Ularga texnik konstruktiv, tashkilotchilik va pedagogik qobiliyatlar kiradi. Bunday turlanish asosiga inson qobiliyatlariga o'zining talablarini qo'yadigan faoliyatlarning uch xil turi: fan, san'at va amaliyot kiradi.

Qobiliyatlarning bunday turlanishi bundan oldin B.G.Ananev tomonidan faoliyatning uch turga bo'lib ko'rsatilishiga asoslangan qobiliyatlarni anglashga muvofiq bilimlar bo'lib, ular quyidagilardir:

- o'zaro fikr almashuv bilan bog'liq bo'lgan muloqot qobiliyati;
- ishchanlik bilan bog'liq bo'lgan mehnat qobiliyati;
- kasbiy yaroqlilik⁸³.

Ushbu tadqiqot asosan badiiy va ijodiy qobiliyatlarni o'rganishga qaratilgan.

Ijodiy faoliyatlarga tegishli badiiy qobiliyatlarni o'rganish bilan V.I.Kireenko [5], A.G.Kovalev [7], N.N.Volkov [3], V.S.Kuzin [8,9]lar shug'ullanishgan.

V.I.Kireenko [5] badiiy qobiliyatlardan quyidagilarni ajratib ko'rsatadi.

a) Idrok qilish;

b) vertikal va gorizontal chiziqlardan og'ishni baholash;

⁷⁹ Семенова, М.А. Развитие художественно-творческих способностей студентов художественных факультетов педагогических вузов в процессе занятий акварельной живописью на пленэре ; Автореф.дис.канд.пед.наук. Омск:2006.-10 с.

⁸⁰ Теплов Б.М. Избранные труды. В 2-х томах. М. Педагогика, 1985, т.1, с. 6.

⁸¹ Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии: В 2 т. - М. Педагогика, 1989, Т.1. 488 е., Т.2. 564 с.

⁸² Кузин В.С. Вопросы изобразительного искусства. - М.: Просвещение, 1971.- 95 с.

⁸³ Ананьев Б.Г. Психология чувственного познания.- М.: АПН РСФСР, 1960.- 486 с.

- v) yorug'lik nisbatlarni baholash;
- g) o'zaro nisbatlarni baholash;
- d) perspektiv qisqarishlarni baholash;
- ye) ko'rish xotirasi⁸⁴

O'z navbatida ijodiy qobiliyatlar tizimida yana asosiy va yordamchi xossalarini ham aytib o'tish mumkin. V.S.Kuzinning fikricha ijodiy qobiliyatlarning asosiy xossasiga quyidagilar tegishli deb hisoblaydi.

- 1) kompozitsiya, undagi munosabatlar, voqelikdagi ko'rinishlardagi asosiy va xarakterli jihatlarini ilg'ay olishni ta'minlaydigan badiiy ijodiy tasavvur;
- 2) rassom ongidagi yorqin obrazlarni yaratish va uni badiiy obrazga aylantirishni ta'minlaydigan ko'rish xotirasi xususiyati;
- 3) ko'rayotgan va tasvirlanayotgan ko'rinishga nisbatan hissiyotning kuchliligi;
- 4) irodaning kuchliligi.⁸⁵

Badiiy qobiliyatlarning qo'shimcha xossalariga esa quyidagilar kiradi:

- 1) faoliyat jarayoni davomida rivojlanib boruvchi tabiiy ko'rish qobiliyatining (chiziq, shakl, nisbat, rangni sezish) yuqoriligi;
- 2) qalamtasvir, rangtasvirdagi yangi texnik usullarni tez o'zlashtirib olishni ta'minlaydigan rassom qo'l harakati xossasi;

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar bir biri bilan o'zaro bog'liq va badiiy ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun ularning uzviyligi juda muhim.

Bolalarning tasviriy faoliyatdan malaka va ko'nikmalarini shakllantirish omillari T.N. Komarova tomonidan atroflicha ilmiy asoslab berilgan bo'lsa,⁸⁶ bolalarni rasm ishlash texnikasiga o'rgatish muammosi XX asr boshlarida V.M. Bexterev, Korrodo Richchi, Liberti Tedd tomonidan tadqiq etilgan. Ular bolalar ijodiyotining o'ziga xos rivojlanishini ta'kidlagan holda bu jarayonda rasm ishlashga o'rgatishning zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Liberti Tedd rasm chizishda qo'l harakatlari uchun maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqqan.⁸⁷ Bu mashqlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu mashqlarni bolalar jon-dillari bilan bajaradilar. U faqatgina geometrik shakllarni chizdirish bilan cheklanib qolmasdan, balki tabiiy unsurlarni chizdirish va bu orqali bolalarning ona tabiatga bo'lgan qiziqishlari, kuzatuvchanliklarini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi. P.N. Nikonorova esa o'z tadqiqotlari natijasiga asoslangan holda tasviriy faoliyatda vazifalarni turli materiallar va

⁸⁴ Кирееенко В.И. Целостность восприятия и художественные способности. //Вопросы психологии.- М.:1956, N 6. с. 50-65.

⁸⁵ Кузин В.С. Психология: Учебник для художественных училищ. - М.: Педагогика, 1982. 256 с.

⁸⁶ Комарова Т.С. Развитие Художественных способностей дошкольников. Монография. - М.: МО - ЗАЙКА - СИНТЕЗ, 2014. - 144 с.

⁸⁷ Тэдд Д.Л. Обучение рисованию по американскому способу профессора Д.Л.Тэдда, дир. худ.-пром. школы в Феладельфии. Спб., - М.:1902.

texnikada ishlash bolalarning ijodiy tashabbusini uygʻotishi, fantaziyasi va tasavvurlarini oʻstirishning muhim sharti ekanligini taʼkidlaydi.⁸⁸

Jamiyatdagi yuz berayotgan katta oʻzgarishlar maktab oldiga oʻquv faoliyatining barcha jabhalarida ijodkor oʻquvchi shaxsini shakllantirish bilan bogʻliq muammolar yechimini hal etish vazifasini qoʻymoqda. Bu muammolarning yechimini topishda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Hozirgi kun oʻqituvchisi bolalar bilan ishlaganda bu qobiliyatlarning yanada samaraliroq rivojlanishiga yordam berishi, oʻquvchilarning aqliy va amaliy malakalarini faollashtirishni taʼminlaydigan taʼlim usullari va metodlarini qoʻllashga diqqatini qaratishi lozim. Buning uchun oʻqituvchi taʼlim muassasasidagi shart-sharoitlar va oʻz imkoniyatlaridan kengroq foydalanishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Har bir oʻquvchining shaxsiy xususiyati, imkoniyatiga qarab ijodiy qobiliyati, ishtiyoqi, qiziqishini samarali rivojlantirish:

- yechimi aniq boʻlgan har xil ijodiy vazifalar berish;
- amaliy mashgʻulotlar orqali oʻquvchilardagi ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish va yoʻnaltirish usullari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tasviriy sanʼat oʻqituvchisi oʻzining har bir darsini bola hayotidagi yorqin voqea boʻlib qolishiga, ulardagi mustaqil ijodkorlik hislarini uygʻotishga intilishi darkor. Rasm chizish oʻziga xos qiziqarli mashgʻulot. Unda har safar avvalgisiga oʻxshamagan, yangi, oʻziga xos, hayajonli, qiziqarli muhit yaratilishi lozim. Oʻqituvchi bu muhitni oʻquvchilar bilan jonli muloqot, musiqa, tasvirlar, sheʼriy satrlar, oʻyinli holatlar, kompyuter dasturlari yordamida yaratishi mumkin.

Tasviriy sanʼat darslaridagi ijodiy faoliyat mobaynida taklif etiladigan tasvirni har xil ifodalash shakllari:

- qogʻoz tekisligida hajmli shakllarni (naturadan qarab, xotiradan, tasavvurdan) tasvirlash;
- konstruktiv va dekorativ rasmlar ishlash;
- sanʼat asarlari va borliqdagi koʻrinishlarni idrok qilish;
- oʻrtoqlari bilan jamoa boʻlib ishlash, sinfda va uyda bajarilgan vazifalar natijasini birgalikda muhokama qilish;
- tasviriy sanʼatdagi maʼnaviy meroslarni oʻrganish;
- oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha koʻrgazmali materiallar toʻplash kabi yoʻnalishlarda tasviriy savodxonlikni shakllantirish oʻquvchilarda ijodiy qobiliyatlarni tarkib toptirish va rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir.

⁸⁸ Никанорова Н.П. Наглядные пособия и оборудование для занятий изобразительным искусством - М.: Просвещение 1975. 133 с.: ил.

Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni fanlararo aloqadorlik prinsipidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Zero, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha musiqa (musiqa asarlari eshitib rasm ishlash, tasviriy san'at va musiqa o'rtasida aloqa o'rnatish), adabiyot (she'riy satrlar o'qish, topishmoq, ertak, ilustrasiyalar chizish), tarix (san'at asarlari yarratilishini o'rganish, tarixiy voqealar, mavzuli voqeaband mavzularni o'rganishda janglar tasviri va h.k....), texnologiya (o'yinchoqlar, kelgusida naqsh ishlash uchun idishlar, qutichalar yasash), informatika fanlari bilan bog'liq grafik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar har xil tasvirlash vositalari (qalam, qog'oz, karton, mo'yqalamlar, akvarel, guash bo'yoqlari, plastilin, stek) bilan ishlash usullarini o'zlashtiradilar. Hozirgi davrda ijodiy jarayonni kengaytiruvchi har xil flomaster, geliyli ruchka, o'chirish uchun shtrixlar, sifati va fakturasi har xil qog'ozlar kabi juda ko'plab yangi tasvirlash ashyolari paydo bo'ldi.

Tasvirlash ashyolarning ko'payishi ijodiy ishlar turi, ko'laminig kengayishiga olib keladi.

Tasviriy san'at darslarida ularni o'rnida qo'llash o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Shuningdek tasviriy san'at darslarida faoliyatning har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarga o'z ijodiy "g'oyalari"ni turli texnikada tasvirlash imkonini yaratadi. Jumladan:

– chizish (har xil janr va turlarda); applikasiya (rang-barang qog'oz yoki mato parchalarini biror narsaga yopishtirib yoki tikib gul, naqsh hosil kilish); qandaydir qog'oz yoki yuzaga uning rangi va fakturasi bilan farq qiladigan rangli qog'oz parchalarini yopishtirib kompozitsiya ishlanadigan tasviriy san'atning texnik usuli – kollaj; plastik materiallardan haykal yasash; qo'lda yasalgan buyumlarga naqsh ishlash; barmoqlar bilan chizish, har xil shoxlar, g'o'lalarga ozgina ishlov berib kompozitsiya ishlash, pero yoki boshqa o'tkir asbob bilan qog'ozga, kartonga qirqib yoki o'yib ishlanib, keyin u joyga tush quyib tasvir hosil qilish – grattaj usuli kabi texnikalardan foydalanish mumkin

Darsdan tashqari vaqtlarda esa ingichka uzun qog'oz tasmalaridan uzun spiralsimon burmalar hosil qilib har xil (hajmli va hajmsiz) kompozitsiyalar tayyorlash jarayoni – kvilling (inglizcha (quill) so'zdan olingan bo'lib qush pati ma'nosini bildiradi) texnikasida, oynaga harir ranglarda rangtasvir yoki naqshli kompozitsiya ishlash – vitraj, yog'ochga o'yish, shisha va sopolga ishlash kabi texnikalarini o'rganishadi.

Bir darsdan keyingi darsgacha doimiy ravishda badiiy tasvirlash ashyolari o'zgarib, ularning har xil imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalarini egallab borishadi. O'quvchidagi ijodiy faoliyat shaklining xilma-xilligi ularning tasviriy

san'atga bo'lgan qiziqishlarining oshishiga sabab bo'ladi va bu bola shaxsiyati shakllanishining muhim sharti hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida unga individual yondashish ham boladagi ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishining muhim shartlaridan biridir.

Ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi barchada birdek bo'lishi mumkin emas, lekin o'z ijodiy mehnati natijasidan quvonch hissini tuyushi uchun har bir bolaga faol, mustaqil ravishda ijod qilish imkoniyati yaratib berilishi kerak.

O'quvchilar dars jarayonida kuchli o'quvchilardan qolib ketmaslik uchun, o'zlashtirishi sust bo'lgan o'quvchilarda fanni o'zlashtirish istaklarini kuchaytirib, mustaqil ravishda ishlash ko'nikmalari oshirib boriladi. Bunday samaraliroq usullaridan foydalanish va qulay sharoitlar yaratib berish, ulardagi tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

Atrof-borliqdagi tabiat bilan muloqot - ijodkorlikdagi barcha faoliyatlarning asosi, boshlanishi hisoblanadi. Borliq orqali biz insonning ajoyib qobiliyati bo'lgan "fantaziya" tushunchasiga kirib kelamiz. Har qanday fantaziya asosida haqqoniy, hayotiy tajribalar yotadi. Shuning uchun bola atrof-borliqni ko'rib kuzatganlari asosida fantaziya qilishi mumkin.

O'qituvchi har bir o'quvchida fantaziya qilish qobiliyati, ijod qilishda o'ziga nisbatan ishonch hosil qilish ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Bir qator g'ayrioddiy va kutilmagan vazifalar bajarish fantaziyani samarali rivojlantirish usullaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy qaror qila olish, yaratuvchanlik, ijodga noan'anaviy yondashish va o'z fikrida turish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi, maqsadli, o'z ustida tinimsiz ishlash bilan bog'liq tasavvurni kengaytiruvchi bir nechta mavzudagi mashqlarni misol keltiramiz:

–ertakdagi ajoyib mo'jizaviy hayvon, semurg' qushi; shahrimiz kelajakda; mo'jizakor mamlakat;

–mevalar, sabzavotlar, gullar, geometrik shakllardan tuzilgan natyurmortlar;

–har xil materiallardan g'ayrioddiy o'yinchoq yasash;

–ma'lum bir mavzuga oid naqsh chizish;

–aql-idrokni rivojlantiruvchi o'yinlar; "Bu nimaga o'xshaydi?", "Sehrli rasmlar", "Sehrli dog'lar", "Rassomga yordam ber", "Sehrli ko'zoynak".

Alohida individual ishlashdan tashqari, jamoaviy ishlash usulidan ham foydalanilishi mumkin. Bunda butun sinf bilan birga "Kapalaklar dunyosi", "Gullarga to'la o'tloq", "Hayvonot bog'i", "Suv osti dunyosi", "Qasrdagi raqs kechasi, bazm" va h.k. mavzularidagi kompozitsiyalar ishlanadi. Bu mavzuda ishlaganda bolalar barchasi ishtirok etib, biri qasrni chizsa, ikkinchisi uning naqshlari, uchinchisi undagi qahramonlar obrazlarini bir vaqtda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Har kim o'z tasavvuridagi narsalarni ifodalashga urinadi va natijada turli-tuman shakllar, qahramonlar obrazlari qatnashgan qiziqarli

kompozitsiya yaratiladi. Jamoaviy ijodkorlikda boladagi xususiy ijodkorlik juda qiziqarli ijobiy natijalar beradi.

Mashg'ulotlarda kompyuter texnologiyalari ham samarali qo'llanilishi mumkin. Kompyuterda multfilm yaratilish jarayonlari aks ettirilgan videoroliklar ko'rsatilib, multfilm qahramonlarining ijobiy va salbiy xislatlari, ranglar va chiziqlar plastikasining jozibadorligi hamda uning yaratilish jarayonidagi qiziqarli va mashaqqatli rassom mehnatidan bolalar boy taassurotga ega bo'ladilar.

Rassomlarning asarlaridan namunalar ko'rsatish va taniqli rassom, pedagog olimlar bilan masofaviy ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etilishi o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi.

Yuqori sinflarda loyihalash metodlarini keng qo'llash mumkin. Bunda amaliy san'atning qadimiy, milliy va zamonaviy an'analarning uyg'unlashuvi asosida yangi jihozlar (binolar, avtomobillar, maishiy va sport jihozlari, liboslar) loyihalashtirish bolalardagi milliy qadriyatlarimizga nisbatan faxr va mehr tuyg'usini uyg'otadi. Mahalliy xom ashyolardan foydalangan holda yaratuvchanlik va ixtirochilik faoliyatlari bolalarning ijodiy qobiliyatlari shakllanishiga turtki bo'ladi.

Tasviriy san'atda rag'batlantirish ijodiy qobiliyatlarni shakllanishining muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga to'g'ri yoki noto'g'ri chizishgani uchun baho qo'yish kerak emas. Bolalar yutuqlarini an'anaviy baholash juda mukammal bo'lmagan usul deb o'ylaymiz. Fikrlash, yaratish, ijod qilish ko'nikmalari darajasi - bu baholash mezonining asosiy komponentlari bo'lishi kerak. Bilish faoliyatining eng samarali omili bo'lgan muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishga harakat qilish lozim.

Maktabdagi uyushtirilgan ko'rgazmalarda qatnashish bolalarni rag'batlantirish shaklidan biri bo'lib, ota-onalar bilan uchrashuv yoki bayram tadbirlariga bag'ishlangan bunday ko'rgazmalar tez-tez o'tkazilib turilishi maqsadga muvofiq. Vaqti-vaqti bilan bunday ko'rgazmalar tashkil etib turish bolalarda o'z ishlarining o'zgaralar tomonidan e'tirof etilishini ko'rganda ularda faxr va g'urur tuyg'ularini uyg'otadi. O'z ishlarini boshqalar ishi bilan taqqoslash, baholash hamda yutuq va kamchiliklarini ko'rish imkoniyatini yaratadi. O'quvchilarning darsda ishlagan ishlaridan yaqinlari va do'stlari uchun sovg'a sifatida ham, maktab koridorlariga bezak sifatida ham foydalanish mumkin.

Bu darslarda har bir bola o'z sezgisi, fikrlashi va dunyoqarashi, shaxsiy sifatlari bilan qiziq. Bu darslarda bolalar sayohatchi, kashfiyotchi, ijodkor rolda bo'lishlari mumkin. Ular tafakkur qilishi, tahlil qilishi, shodlik va go'zallik yaratishi bilan bu ijodlari mahsulidan o'zlarini baxtli his qiladilar.

Bunday dars o'tish faoliyati natijasida o'qituvchi:

1) maktab jamoaviy va ma'naviy ishlarida ishtirok etishi;

2) barcha sinflarda o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va o‘zlashtirilgan bilimlar sifatini oshirishi;

3) tuman, shahar, viloyat miqyosidagi tadbirlarda, ko‘rgazmalarda o‘quvchilari ishlari bilan qatnashish, ko‘plab yutuqli sovrinlar olish kabi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan ta‘lim texnologiyalari asosida o‘qituvchi o‘quvchilardagi o‘ziga xos ijodiy vazifalar bajarish, hamda har qanday faoliyatga ijodiy yondoshish qobiliyatlarini yuzaga chiqarish va rivojlantirishga sabab bo‘ladi.

Tasviriy san‘atni o‘qitish darsining turli shakl va usullaridan foydalanilgan bunday darslarda:

- ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanadi;
- hissiy dunyoqarashlarini shakllanib, ma‘naviyati tarbiyalanadi;
- tasviriy san‘at haqidagi qadimgi dunyo san‘atidan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan asosiy bilimlarni egallashadi;
- dunyo xalqlari san‘atiga nisbatan hurmat hissi uyg‘onadi;
- atrof-muhit va san‘atni qadrlashga nisbatan ma‘naviy-axloqiy xususiyatlari shakllanadi.

Tasviriy san‘at ta‘limida klaster yondashuvi ta‘lim-tarbiya tizimini takomillashtirish omili

Respublikamizda ilg‘or texnologiyalar va chet el investitsiyalari kirib kelishi bilan barcha sohalarda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj ham o‘sib bormoqda. Bunday sharoitda Oliy ta‘limda chuqur fundamental bilimlarga ega bo‘lgan va ilmiy-tadqiqot ishlarini yuqori saviyada bajara oladigan va muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ilmiy-amaliy muammolarni yecha olishga qodir bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash o‘ta dozzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda.

2020 yil 29 oktabr kuni mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq davlatimiz rahbarining “Ilm-fanni 30 yilgacha rivojlantirish kossepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni ko'paytirish, ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish asosiy masalalardan biriga aylandi. Ya'ni, har bir oliy o'quv yurti ishlab chiqarish bilan, tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba va innovatsion markazlar bilan bog'lanishi, hamkorlik qilishi ko'zda tutilgan. Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish⁸⁹da aynan Oliy ta'lim tizimiga juda katta ma'suliyat yuklanadi. Boshqacha aytganda, oliy ta'lim tizimi sifat jihatidan tubdan o'zgarishi lozimligi bugungi davr talabi ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rin olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan institutsional muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi lozim.

Davlatimiz rahbari tashabbusi va sa'y-harakati bilan keyingi uch yil ichida ta'lim hamda ilm-fan sohasida yigirmadan ortiq huquqiy hujjatlar - qarorlar, farmonlar va farmoyishlar qabul qilindi. Faqat o'tgan bir yilning o'zida oliy ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq 11 ta farmon chiqarilgani bu sohada ulkan o'zgarishlar boshlanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi. Chirchiq davlat pedagogika institutida tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini qaror toptirish va o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish asosida fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasi uchun sharoit yaratish, pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirishga qaratilgan "Ustoz-shogird" tizimi borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini tadqiq etishga qaratilgan. Shu bilan birga klaster yondashuviga asoslangan tasviriy san'at o'quv-amaliyot markazi faoliyatining talabalar ta'lim tarbiyasidagi ahamiyatini yoritish maqsad qilib belgilangan.

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili. Iqtisodiyot sohaslarida sinalgan, ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali model sifatida e'tirof etilayotgan klaster tizimi istiqbolli zamonaviy innovatsion g'oya sifatida amaliyotda o'z o'rnini topib kelmoqda. Klaster o'zi nima va ushbu modelning ma'no va mazmuni nimani anglatadi degan savol barchamiz uchun qiziq. Aslida "klaster" (cluster) so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, tarjima

⁸⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6108-сонли Фармони

qilinganda “to‘plam”, “to‘p”, “guruh”, “konsentratsiya”, “guruhlarga to‘plash”, “to‘plamlarda o‘shish” kabi ma’nolarni anglatadi. Dastlab bu termin statistika va kompyuter sohasida paydo bo‘lgan, keyinchalik iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo‘llanila boshlandi. Jahon olimlari tomonidan bunga juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Masalan:

Klaster - shakllanish mexanizmining o‘zaro raqobatbardoshlik o‘shishiga sabab bo‘ladigan bir-biriga bevosita bog‘liq sohalarning jamlanishi⁹⁰.

Klaster - raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo‘lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi⁹¹.

Klaster – bu hamkorlik shartnomasi asosida o‘zaro strategik ta’sir ko‘rsatadigan tadbirkorlar ittifoqi⁹².

Klaster (ingl. cluster to‘plam) - bu mustaqil hamkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin bo‘lgan ma’lum xususiyatlarga ega bir nechta bir-biriga yaqin tarmoqlarning o‘zaro birlashuvi⁹³.

Mamlakatimizda pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, yangi innovatsion yo‘nalish sifatidagi tavsifi va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari G‘.I. Muhamedov⁹⁴, U.N. Xodjamqulov⁹⁵, Sh.Q.Mardonov⁹⁶, R. Eshchonov, D. Bekchanov⁹⁷larning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xususan, klaster yondashuvi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ta’lim samaradorligini oshirish texnologiyasi S.A. Toshtemirova⁹⁸, Sh.Botirova, N.Koshanova, Q.Mahmudovlarning tadqiqotlarida muayyan darajada yoritib berilgan.

⁹⁰ Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.

⁹¹ Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем// Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С. 24–29.

⁹² Бареев Т.Ф. Понятие и основные черты кластера//Экономические науки//2012.-8(93).-С.-106. http://ecsn.ru/files/pdf/201208/201208_106.pdf//Беспалов М.В. Роль и значение инновационных кластеров в осуществлении национальных и региональных инновационных программ развития//Качество. Инновации. Образование. 2009. 2. С.

⁹³ Википедия: Свободная энциклопедия [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

⁹⁴ Мухамедов Г.И. Педагогик таълим инновацион кластери: эхтиёж, зарурат, натижа // “Халқ сўзи” 15 февраль 2019 йил.

⁹⁵ Ходжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари // педагогика фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация иши. Чирчиқ – 2020 йил.

⁹⁶ Mardonov S., Toshtemirova S. (2020) Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (07), 8104-8111.

⁹⁷ Эшчанов Р., Laniers J., Бобожонова Г., Бекчанов Д. Priority challenges of education sector reforms in modernizing Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019. - P.92-97.

⁹⁸ Тоштемирова С.А. Кластер ёндашуви асосида умумий ўрта таълим муассасалари таълим самарадорлигини ошириш технологияси // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертация иши. Чирчиқ – 2020

Yuqoridagi tahlillar asosida aynan tasviriy san'ati ta'limida klaster yondashuvi hali yurtimizda o'rganilmagan muammo ekanligini e'tirof etish mumkin. Ushbu ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida Oliy ta'limda talabalar va maktablarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagi bir qator qarama-qarshiliklar mavjud ekanligi aniqlandi:

- uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining o'zaro hamkorlik aloqalarining ob'ektiv mavjud holati va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talablarning o'zgaruvchanligi o'rtasida;

- o'quv jarayonida ijodiy fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalashga qo'yilayotgan yuqori talablar va bu ko'nikmalarni tarbiyalashda ahamiyati katta bo'lgan tasviriy san'at faniga ajratilgan soatlarning kamligi o'rtasida;

- zamonaviy ta'limda texnologiyalarini yangilashga bo'lgan yuqori ehtiyoj va o'qituvchilarning yangi innovatsion texnologiyalarni qabul qilishga bo'lgan hohishlarining sustligi o'rtasida;

- talaba va o'quvchilardagi ijodkorlik faoliyatining samaradorligi va ijodiy muhit yaratishga qaratilgan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoniga jalb etishning uslubiy-pedagogik modelining yo'qligi o'rtasida;

- o'quv predmetining ijodiy xususiyati va umumiy ta'lim fanlariga nisbatan ta'sirining kamligi o'rtasida.

Talaba va o'quvchilardagi ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalash zarurati, Oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalari hamkorligida samarali ishchi o'quv modelini yaratish nazariyasining hozirgi holati va amaliyotga bo'lgan ehtiyoj tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish omili mavzusini belgilab berdi.

Demak, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalarining o'zaro hamkorlik aloqalarida hukumat, ish beruvchilar va bitiruvchilar o'rtasidagi o'zaro aniq mexanizmlarning yaxshi ishlamasligi, tarmoqlar va sohalar bo'yicha ish bilan ta'minlashning markazlashtirilgan mehnat taqsimoti yo'qligi bitiruvchilarning o'z mutaxassisliklari bo'yicha ish bilan oqilona ta'minlanmasligi kabi mavjud muammolarni bartaraf etish. Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarga bo'lgan talablar asosida uzluksiz ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish;

- ijodiy fikrlash, ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalash orqali mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash;

- zamonaviy ta'limda texnologiyalarini yangilashga bo'lgan yuqori ehtiyoj va o'qituvchilarning yangi innovatsion texnologiyalarni qabul qilishga bo'lgan hohishlarining sustligi o'rtasida;

- talaba va o'quvchilardagi ijodkorlik faoliyatining samaradorligi va ijodiy muhit yaratishga qaratilgan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoniga jalb etishning uslubiy-pedagogik modelining yo'qligi o'rtasida;

- o'quv predmetining ijodiy xususiyati va umumiy ta'lim fanlariga nisbatan ta'sirining kamligi o'rtasida.

biz avvalo hozirgi o'quvchilarga sifatli ta'lim beradigan yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lgan malakali o'qituvchi ya'ni, kelajak uchun ekstra mutaxassislar - tayyorlashimiz kerak. Shunday ekan, shubhasiz, eskirgan pedagogik usullar yordamida yangicha ta'lim olish mumkin emas. Ta'lim jarayoni uchun zamon bilan hamnafas, yangi innovatsion texnologiyalar⁹⁹ juda zarur.

Bu jarayonda klasterli yondashuv umumiy ta'lim tizimining rivojlanishini innovatsion boshqarish mexanizmi sifatida unga kiritilgan har bir o'quv muassasasi faoliyati samaradorligini ta'minlashga imkon beradi¹⁰⁰.

Bizning mutaxassislarimiz ta'biri bo'yicha "Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm"¹⁰¹.

Maqolaning ilmiy mohiyati uzluksiz ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari va nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan yangi klaster yondashuvi va uning afzalliklarini tasviriy san'at predmeti misolida ilmiy nuqtai nazardan asoslashda ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot ob'ekti. uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at ta'limiga klaster yondashuvini tatbiq etish va o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni tadqiqot ob'ekti sifatida belgilandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash, modellashtirish), diagnostik (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, tasniflash), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), matematik va pedagogik eksperiment (ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) kabi metodlardan foydalanildi.

Kasbiy ta'lim va fan mintaqa madaniyati integratorlari rolini o'ynaydigan oliy ta'lim muassasalari hududlarning innovatsion rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Bu yangi manzarada OTM, mahalliy hokimiyat idoralari yoki boshqa ta'lim muassasalarining klaster hamkorligiga vositachilik qilish, yordam berish va qo'llab-quvvatlash kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanishi juda muhim.

⁹⁹ Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг ижодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш//Замонавий таълим/ №11, -2016.: -61 б.

¹⁰⁰ Лагуткин А.В., Грудцына Л.Ю. Инновации в образовании и формирование кластерной системы высшего образования в России // Экономика и право. – ХХИ век. – 2014. – № 2.

¹⁰¹ Мухамедов Ғ.И., Хўжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф (илмий рисола).// -Т.: "ЎзМУ". 2019. -27 б.

“Sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi vazifalar¹⁰² hozirgi davr uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi Respublikamizdagi ta’lim siyosatida ham o‘z aksini topib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 apreldagi PF-5987-son farmonida ta’lim klasterlarini yaratish sohada samaradorlikni ta’minlovchi omil sifatida¹⁰³ belgilab berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021 yil 14 apreldagi “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug‘risida”gi 213-son Qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashning qanchalik dolzarbligini belgilab turibdi. Klaster yondashuvi va o‘qitish texnologiyalarini tasviriy san’at ta’limiga tatbiq etish orqali talabalardagi ijodkorlik ko‘nikmalarini tarbiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish muammolarini chuqur tadqiq qilinishini taqozo etadi.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti rektorining 2021 yil 5 iyuldagi “Institutda ilmiy salohiyatni oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish to‘g‘risida”gi № 01-180 –sonli buyrug‘i asosida tasviriy san’at kafedrasida “Reklama dizayni va yog‘och o‘ymakorligi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” tashkil etildi. Tasviriy san’at kafedrasida “Reklama dizayni va yog‘och o‘ymakorligi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi” dasturi ishlab chiqilgan.

Tasviriy san’at o‘quv-amaliyot markazining asosiy vazifasi tasviriy san’at va chizmachilik sohalarida zamonaviy tadqiqot usullarini ishlab chiqish va dolzarb pedagogik muammolar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-uslubiy va tajriba-sinov ishlarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Shuningdek, talabalardagi kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonini tezlashtirish, joriy etilgan ta’lim klasterini amalga oshirish, “Ustoz-shogird” tizimida institut-maktab, o‘qituvchi-talaba-o‘quvchilar faoliyatini yagona maqsad yo‘lida birlashtirish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida sifatli kadrlar tayyorlash imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan. Dasturda talabalarining kasbiy mahoratlarini shakllantirish, tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish, pedagogik kasbi, ijodkorlik faoliyatiga qiziqtirish, ta’lim klasterini amalga oshirishga faol qatnashishlari ko‘zda tutilgan.

Tasviriy san’at o‘quv-amaliyot markazining maqsadi:

➤ klaster yondashuvi asosida fan, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro integratsiyasi uchun sharoit yaratish;

¹⁰² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

¹⁰³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.

- nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali talabalarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish;
- o‘quv jarayoni va ijodiy mashg‘ulotlarda talabalarni mustaqil bilim olishga rag‘batlantirish, kreativ fikrlash, ijodkorlik ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- zamonga moslashuvchan, “ekstra klass” mutaxassislar tayyorlash;
- klaster yondashuviga asoslangan o‘quv-amaliyot jarayonida o‘qituvchi-talaba-o‘quvchi o‘rtasida “teskari aloqa”ni o‘rnatish, “o‘zaro ta’sir kuchi”ni paydo qilish;
- “Ustoz-shogird” tizimi orqali, pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtirish
- ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini amaliyotda sinab ko‘rish mexanizmini yaratish;
- hamkorlikdagi faoliyat orqali o‘quvchilarni pedagogik kasbiga qiziqtirish, talabalarda o‘zi tanlagan kasbi, ustozlik ma’suliyati haqidagi tasavvurlarini boyitish, maktabda kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini yaratish;
- Tasviriy san’at o‘quv-amaliyot markazi faoliyati orqali amaliyotga joriy qilish, ta’lim klasteri bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ko‘lamini kengaytirishdan iborat.

1.1. Tasviriy san’at o‘quv-amaliyot markazining vazifasi:

- o‘quv jarayonini ijodkorlik va tadbirkorlik faoliyati bilan integratsiyalashga xizmat qiladi;
- fan, ta’lim va ishlab chiqarishning uzviyligini ta’minlashda asosiy mexanizm sifatida ishlaydi;
- ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardoshlikka erishish jarayonida talabalarning bevosita ishtirokini ta’minlaydi;
- talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, o‘quvchilar bilan ishlashga moslashuvchanlik, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;
- kafedrada tashkil etilgan ilmiy va ijodiy to‘garaklar faoliyatini samarali mashg‘ulotga aylantiradi, barcha ilmiy va ijodiy jarayonni umumlashtirib, ta’limga klaster yondashuvida talabalarning faol ishtirokini ta’minlab beradi.
- talabalar ijodiy ishlaridan ko‘rgazmalar uyushtiradi, turli tasviriy va amaliy san’at mahsulotlari ishlab chiqaradi, pullik xizmatlar ko‘rsatish kabi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradi.
- o‘quvchi-yoshlarning bo‘sh vaqtini bilim olish, hunar egallash, jamoada ishlash, tashkilotchilikka yo‘naltirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashga yordam beradi;

- zamonaviy fanlar integratsiyasiga asoslangan STEAM ta'limini amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi;

- o'quvchi-yoshlar iste'dodini rag'batlantirish orqali ularni fan, ta'lim- tarbiya, badiiy ijod va bunyodkorlik sohasidagi tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

O'quv-amaliyot markazining faoliyat turlari

✓ tasviriy san'at (akademik rangtasvir, tasviriy san'at kompozitsiyasi, miniatyura, amaliy san'at fanlari), amaliy san'at, haykaltaroshlik bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish;

✓ maktablar bilan ta'lim klasteri hamkorligi doirasida o'quvchilar va talabalar o'rtasida har xil tadbirlar, ijodiy tanlovlar o'tkazish;

✓ maktab o'qituvchilari, iste'dodli talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, "Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi va o'qitish texnologiyalari" mavzusida ilmiy-tadqiqot ishi bo'yicha tajriba-sinov ishlarini olib borish;

O'quv-amaliyot markazida zargarlik o'quv-amaliy laboratoriyasi, haykaltaroshlik, maket loyihasi, yog'och o'ymakorligi, miniatyura, kompozitsiya, dizayn, amaliy san'at o'quv amaliyot xonalari ijodiy-tadqiqot laboratoriyasi faoliyatlari yo'lga qo'yilgan. Yangi tashkil etilgan markazda professor-o'qituvchilar bilan birga iqtidorli talabalar uchun ham pedagogik kasbiy faoliyat bilan shug'ullanib, nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish, mahoratlarini oshirish imkoniyati mavjud. O'quv mashg'ulotlaridan tashqari talabalar, o'quvchilar va hududdagi mahallalardan keladigan yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ijodkorlik ko'nikmalarini tarbiyalash, qo'shimcha-kasb hunar o'rgatish uchun shart-sharoitlar yaratildi

Natijalar va amaliy misollar.

Tasviriy san'at o'quv-amaliyot markazi faoliyati orqali nazariy bilimlar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu jarayonda talaba va o'quvchilar mustaqil izlanadi, fikrlaydi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Shuningdek, talabalardagi o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish, samarali suhbat olib borish, ustozlar, tengdoshlari va o'quvchilar bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish kabi hislatlar takomillashadi. Ta'lim tizimida muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga erishiladi. Eng muhimi, o'quvchi-talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini xolis baholash imkonini beradi. O'qitish jarayonida nazariy bilimlar va amaliyot uyg'unligiga qaratilgan interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash natijasida quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

✓ Ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisi mehnatiga qarab rag'batlantiriladi;

- ✓ Mutaxassisligi bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni egallash, pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tezlashtiradi;
- ✓ Har bir talabaning ijodiy malaka va kasbiy ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- ✓ Talabalarni mustaqil faoliyatga tayyorlaydi, ijodiy fikrlashga o'rgatadi;
- ✓ Turli vaziyatlarga tez moslashuvchan, "ekstra klass" kelajak o'qituvchisi bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga olib keladi, ulardagi hayotiy zarur ko'nikma va malakalar shakllanadi;
- ✓ "Ustoz-shogird" tizimini yaratish orqali o'qituvchi-talaba-o'quvchi o'rtasida "teskari aloqa"ni o'rnatilib, oldinga harakat qilish uchun "o'zaro ta'sir kuchi" paydo bo'ladi;
- ✓ Ta'lim klasteri hamkorligi jarayonida faol ishtirok etgan talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilinadi;
- ✓ Olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish kompetensiyalari rivojlantiriladi;
 - ✓ Hamkorlikdagi faoliyat orqali o'quvchilarni pedagogik kasbiga qiziqtiriladi, talabalardagi o'zi tanlagan kasbi, ustozlik ma'suliyati haqidagi tasavvurlari boyitiladi, maktabdagi kasbiy faoliyatga moslashib boradi, o'zligini isbotlashda mustaqil harakat qilish, ijodiy fikrlashning qanchalik ahamiyatligini anglab yetadi;
 - ✓ o'quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini boshqalarga yetkaza olish qobiliyati takomillashadi;
 - ✓ Talabalarning xulq-atvorida ijobiy fazilatlar shakllanib borishini ta'minlaydi.

Xulosa. Bizning maqsadimiz tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvidan ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish omili sifatida foydalanish, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasi uchun sharoit yaratish va o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish muammolarini o'rganishdan iborat edi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida biz shunday xulosaga keldik:

- "Ustoz-shogird" tizimi asosida klaster yondashuviga asoslangan tasviriy san'at o'quv-amaliyot markazi faoliyati nafaqat talabalar, balki, maktab o'quvchilari, hududdagi ahalla yoshlari ta'lim tarbiyasida ham ahamiyati katta ekanligi ma'lum bo'ldi.

- tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini qaror toptirish va o'qitish texnologiyalarini joriy etish tufayli oliy ta'lim muassasasida nafaqat mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, kasbiy motivatsiyani shakllantirish vazifalari hal etiladi, balkim, ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamining kengayishi, o'quv-uslubiy dasturlarning takomillashtirilishi, talaba va o'quvchilardagi badiiy ijodkorlik ko'nikmalarining tarbiyalanishi,

ulardagi ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlarining rag'batlantirilishiga ham olib keladi.

- hamkorlikda uzluksiz ta'limdagi innovatsion faoliyat rivojlantiriladi va institut hududiy tadbirkorlik faoliyati markaziga aylanishi uchun sharoit yaratiladi. Bu esa o'z navbatida beruvchilar va bitiruvchilar o'rtasidagi o'zaro aniq mexanizm sifatida ishlashi, institut jozibadorligining oshishi, bitiruvchilarning qo'shimcha kasb-hunarga ega bo'lish imkoniyatini oshiradi.

Tavsiyalar: Tadqiqotning xulosalariga tayangan holda quyidagi amaliy taklif qilamiz:

- mavzu doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi va ko'lamini oshirish uchun tasviriy san'at ta'limida qo'llangan klaster yondashuvidan fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiyalashda foydalanish mumkin;

- kuzatilgan natijalarga asoslangan holda Chirchiq davlat pedagogika institutida tashkil etilgan tasviriy san'at o'quv-amaliyot markazi faoliyatini Respublikamizdagi boshqa Oliy ta'lim muassasalarida ham ommalashtirish mumkin;

- ushbu tajribalardan kelib chiqib, tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi borasida metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Maktablardagi tasviriy san'at to'garaklarini tashkil etishda ko'rgazma va tanlovlarning ahamiyati

Xona va zallarni bezash uchun imkon qadar o'quvchilar ijodiy ishlaridan foydalanish kerak. Aynan ularning ishlarining amaliy ahamiyati haqida ta'kidlamoq, o'quvchilar ijodiy faoliyatlaridagi faolliklarining oshishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir bayram, nishonlanadigan buyuk siymolar tavallud kunlari, kasbiy bayramlarga rasmlar va plakatlar tanlovi o'tkazish. Sovrin uchun to'garak mashg'ulotlarida yaratilgan o'rtoqlarining chizgan eng yaxshi rasmlari, yasalgan yodgorlik buyumlaridan foydalanish, o'quvchilardagi o'z ishidan g'ururlanish, boshqalar ishini hurmat qilish, ijobiy raqobat hissini tug'diradi. Har bir chorak oxirida to'garak a'zolari ishlaridan hisobot ko'rgazmasi o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu ko'rgazmalarga avvaldan yaxshilab tayyorlanish, ko'rgazma tashkillashtirilishi uchun to'garak a'zolari o'rtasida vazifalarning taqsimlab berilishi ularni berilgan vazifalarni mustaqil bajarishga, bir-biriga yordam berish, jamoada ishlash, o'zaro kelishish ko'nikmalarini paydo qiladi. Ko'rgazma va tanlovlarning tashkillashtirilishi haqida kamida bir-ikki oy avval e'lon qilinishi hamda uni tez-tez eslatib turilishi bir tomondan o'quvchilarning ijodiy ishlarini muddatida bajarilishiga erishish, ikkinchi tomondan tashkillashtirishda

qatnashayotganlar o'z vazifalarini vaqtida bajarib borishlariga imkoniyat yaratadi. Ko'rgazmani tashkil etishning eng ma'suliyatli davri bu uning asosiy g'oyasini, ko'rgazmaning nomini aniqlash hisoblanadi. Bunda barcha a'zolar qatnashib, o'z fikrlarini aytishi muhim. Keyin ko'rgazmani tashkil etishdagi tashkiliy ishlarni a'zolar o'rtasida o'zaro bo'lib olish kerak. Bu jarayonda imkoni boricha barcha to'garak a'zolarini jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yerda hamma uchun ish topiladi. Unda har bir o'quvchi imkoniyatidan kelib chiqib, ularning hohishlariga ko'ra vazifalarni taqsimlash kerak bo'ladi. Bu jarayonda quyidagi vazifalarni berish mumkin: ko'rgazma yoki tanlov boshlanishi haqida e'lon tayyorlash va uni ko'zga ko'rinarli joylarga o'rnatish, tadbir mehmonlari uchun (maktab direktori, o'rinbosarlari, taniqli kishilar, ota-onalar) buklet-taklifnomalar tayyorlash, ularni tarqatishga alohida ma'sullarni tayinlash kerak bo'ladi. Kimdir tashkiliy ishlar bilan shug'ullansa, kimdir o'qituvchi yordamida kompyuterdagi tegishli dasturlarda buklet-taklifnomalarni tayyorlashda bevosita ishtirok etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchiga bolalarda badiiy fanlarni o'qitish motivatsiyasini oshirishga yordam beradi va o'quvchilarning obrazni yaxlit idrok etishi va nozik o'zgarishlarni his qilishi, mavzuga nisbatan qiziqishlarini faollashtirish, o'quv materiallarini tayyorlash jarayonini yengillashtirish va bolalarning umumiy dunyoqarashini kengaytirish kabi bir qator ijobiy natijalarga olib keladi.¹⁰⁴ Har bir o'quvchi ota-onasiga taklifnomani o'zi yetkazgani ma'qul. Bundan tashqari ijodiy ishlarni ramka qilib bezash (bu ish butun jamoa ishtirokisiz bajarib bo'lmaydi, chunki bu to'garaklarga har xil yoshdagi bolalar qatnashishadi), unga ishning nomlanishi, muallif ismi-sharifi, bajarilgan vaqti qayd etilgan yorliqcha yopishtirish, ko'rgazma o'rkaziladigan joyni tadbirga tayyorlash, ijodiy ishlarni chiroyli qilib ilish ham alohida ma'suliyatli vazifa hisoblanadi. Ko'rgazmaning ochilishiga alohida e'tibor berish lozim, bunda imkoni bo'lsa maktab xor jamoasining chiqishini tashkillashtirish unga yanada jozibali qiladi. Hurmatli mehmonlar qirqib ochib berishi uchun lenta va qaychilarni oldindan tayyorlab qo'yish zarur. Bu ko'rgazmaning ochilishiga rasmiylik tusini beradi. Bunday tadbir o'quvchi xotirasida bir umr qoladi, unda tashkilotchilik ko'nikmalari paydo bo'la boshlaydi. Tadbirning bunday darajada tashkillashtirilishi ota-onalarni ham jarayonga jalb qiladi va ko'pincha bunday tadbirlar uchun homiylar ham topiladi. Ular ijodiy rasmlarga yopishtirilgan yorliqlar orqali o'z farzandlarining ijodiy ishlarini qidirishadi. O'quvchilar o'z ismi-shariflari yozilgan ishlar oldida o'zgacha hayajon, g'urur hissi bilan turishadi. O'zgalarning ishini ko'rish, solishtirish orqali ularda o'z ishiga tanqidiy munosabatda bo'lish tuyg'ulari paydo

¹⁰⁴ Султанов Х.Э., Пак В.Ш., Кукиев Б.Б. Использование новых информационных коммуникативных технологий на уроках изобразительного искусства // МОЛОДОЙ УЧЁНЫЙ научный журнал №4 2016. С-833.

bo'ldai. Bu esa kelgusi ijodiy faoliyatlari uchun muhim turtki beradi. Xulosa chiqarish malakalari paydo bo'ladi. Diplom, faxriy yorliq va sertifikatlar ularni yanada maqsad sari intilishga rag'batlantiradi.

Xulosa. Yosh o'qituvchilar - to'garak rahbarlari uchun foydali maslahatlar:

1. Optimist bo'ling!
2. Asosiysi, bolalar ham kattalar singari o'zgaruvchan xususiyatlarga egaligini unutmang.
3. Sizning odatiy qarorlaringizga o'xshamagan qaroringiz bu sizning haqqoniy qaroringizdir!
4. Siz bundan qo'rqmang: siz hali ham foydalanib yurgan usullaringizni tajribali xorijiy o'qituvchilar allaqachon unutishgan!
5. Ota-onalar bilan muloqot qilganda shuni esda tuting: ota-onalar bu juda charchagan kattakon bolalardir; farzandlarini ota-onalar tarbiyalamaydi, aksincha... degan tamoyilga asoslaning.
6. Mansabga shoshilmang, ma'muriyat bilan hamkorlikda ishleng, ammo o'zingiz asosiy deb hisoblagan ishni avval bajaring.
7. Bolalar bilan birinchi tanishishda sizning birinchi harakatingiz, keyingi faoliyatingiz uchun juda muhimligini unutmang.
8. Qarama-qarshiliklar qoidasini qo'llang: agar siz avval bolalarga erkinlik berib, keyin qattiqqo'llik qilsangiz - ular sizni yoqtirishmaydi, aksincha bo'lsa - sizdan minnatdor bo'lishadi.
9. Esingizda bo'lsin: bolalar bilan muloqot – bu sizning asosiy mashg'ulotingiz; Ular bilan uchrashishdan zavqlanishni o'rganing.
10. Bolalarning oldida bekor o'tirmang.
11. E'tiboringiz va mehringizni o'zingizning "yoqtimtoy" shogirdingiz emas, balki bolalar orasida bunga eng ko'p muhtoj bo'lganlarga qarating.
12. Agar biror faoliyatda qandaydir shubha bo'lsa, bunday vaziyatda shoshilmagan yaxshiroqdir.
13. Har doim bardam, ko'rkam ko'rinish va yaxshi kayfiyatda yuring!
14. "Assalomu-alaykum" deb ko'tarinki salomlashishni o'rganing, bu ham bolalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
15. Shogirdlaringizning qanday sharoitda ulg'aygan, qanday tarbiya olgan, maktabda o'qishi qandayligi haqida barcha tafsilotlarni bilib olishga harakat qiling - bu ular bilan aloqangizning yaxshi bo'lishiga yordam beradi.
16. Xatolaringizdan xijolat bo'lmang - bolalar, bizdan farqli o'laroq, har doim xatolarimiz uchun bizni kechiradilar.
17. Kuniga uch marta: ertalab, tushdan keyin va kechqurun "Men eng zo'r ustozman, hamma meni hurmat qiladi, sevadi va menga bo'ysunadi" deb o'zingizni maqtab turishga odatlaning:

18. Qanday qilib dangasa bo'lishni biling! Ko'p pedagoglarning kamchiliklari shundaki, ular jonli faoliyatni rivojlantiradilar, lekin o'ylashni unutadilar.

19. Bolalarni oldingizdan quvmang va ular bilan doimiy munosabatdan qochmang.

20. Bola bo'lishni biling! Ular bilan o'ynang, sakrang va to'garakdagi faoliyatingizni bolalikning davomi sifatida his eting!

21. Quyidagi harakatlardan o'zingizni tiying:

- Tez-tez axloqiy dashnom va eslatmalar, tanbehlar va da'volar!
- Haqorat qilish, jazolash va tahdid qilish!
- Buyruqlar va ta'qiqlar!
- Sabrsizlik va asabiylashish!
- Bolalarni masxara qilish, istehzo va kinoyali gaplar!

Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish

Yuksak innovsion texnologiyalar shiddat bilan kirib kelayotgani, axborot almashinuvining yuksak sur'atlar bilan tezlashishi natijasida ko'pchilik yoshlarning milliy urf-odatlariga zid madaniyatlar ta'siriga tushib qolish holatlari bizning davrimizda oddiy bir holga aylanib qoldi. Yangicha dunyoqarash, noodatiy fikrlashga moyil bo'lgan avlodlar almashuvi va ularning xohish-istaklari o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga yosh avlodning ma'naviyati, badiiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari o'zgarishi tasviriy san'at ta'limiga ham ulkan vazifalarni qo'ymoqda.

Bunday o'zgarishlar yoshlarning ma'naviy tarbiyasida san'atga bo'lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Insoniyat madaniy taraqqiyotida tasviriy san'at orqali yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning ahamiyati toboro oshib bormoqda. Bularning barchasi uzluksiz ta'lim tizimida bir qator jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Jamiyatning hozirgi holati bu estetik qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va anglashilmovchilikka olib keladigan nomutanosiblik bilan tavsiflanadi. Virtual aloqalar ichida yashashga o'rgangan tomoshabin, tabiiylikdan toboro uzoqlashib, milliy teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at muzeylari, galareyalarining hayotimizdagi qadr-qimmatini yaxshi anglay olmaydi. Mana shunday muhitda tarbiyalanayotgan yosh avlod ko'p jihatdan milliy madaniyatimizdagi klassik asarlarini tushunib yetmaydi va unga nisbatan bee'tibor munosabatda bo'ladi. Ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy sharoitida ilm-fan, ta'lim, madaniyat va

san'atning o'rnini tobora ortib bormoqda¹⁰⁵. Oliy ta'limda ham talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish uchun mana shunday ehtiyoj juda katta.

Tadqiqotning maqsadi. Zamonaviy texnologiyalarning bunday tezlikda rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni qayta ko'rib chiqish va zamon talablari asosida isloh qilishni talab qiladi. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, talaba bilan individual va jamoada ishlash, ularning faoliyatini to'g'ri tashkil etishning natijadorligiga erishish maqsadida Oliy ta'lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy etildi. Bunga hali ko'p bo'lmadi, lekin o'zining ijobiy natijalarini ham bera boshladi. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida yuzaga kelayotgan ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirish, har tomonlama raqobatbardosh kadr tayyorlash, aqlan yetuk, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bu faqat professor-o'qituvchi yoki alohida tyutor tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vazifa emas. Bu yerda ta'lim-tarbiyani o'zaro mutanosiblikda olib borish uchun kafedra professor-o'qituvchisi va tyutorning maqsadi talabaning ehtiyoji, qiziqishlariga monand bo'lishi kerak. Bu o'rinda ilg'or mamlakatlar tajribasiga asoslanib ushbu ta'lim-tarbiya jarayoniga klaster yondashuvini tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buni qanday tushunish kerak? Avvalombor olimlar tomonidan ta'rifini ko'rib chiqamiz:

Mavzu bo'yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili.

Maqolaning ilmiy mohiyati yuqori texnologiyalarning rivojlanishi, yoshlarning asosiy ko'pchiligining mobil telefonlari va internetga bog'lanib qolishi sharoitida ta'limdagi har tomonlama yetuk barkamol avlod tarbiyasi muammolarining yechimini topish butun dunyoda dolzarb vazifalardan bo'lib qoldi. Tinimsiz o'zgarib turgan bozor iqtisodi jarayonida faqat ta'lim xizmatlarini amalga oshirishgina emas, balki shaxsni raqobatbardoshlikka o'rgatish ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan klasterning asosiy maqsadi hisoblanadi. Mamlakatimizda alohida tadqiqot ob'ekti sifatida pedagogik ta'lim klasteri va uni amaliyotga tatbiq etish muammosini o'rganish tobora keng yo'lga qo'yilmoqda. Mazkur tushunchaga turli soha olimlari tomonidan ko'plab ta'riflar berilgan. Masalan:

Klaster - shakllanish mexanizmining o'zaro raqobatbardoshlik o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi.¹⁰⁶

Klaster - raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi.¹⁰⁷

¹⁰⁵ Алексеева С.О. Проблемы обучения изобразительному искусству в общеобразовательной школе/ <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-obucheniya-izobrazitelnomu-iskusstvu-v-obsheobrazovatelnoy-shkole/viewer>;

¹⁰⁶ Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980, 454 pages.

¹⁰⁷ Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем //Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества

Klaster - ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma.¹⁰⁸

Klaster - bu ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil hamkorlik sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan bir xil elementlar birikmasi¹⁰⁹.

Klaster - bu qo'shni va tegishli tashkilotlar umumiy faoliyati va bir-birini to'ldiruvchi sifatida tavsiflanadigan ma'lum bir sohada bir-biriga o'zaro bog'liq kompaniyalar guruhi¹¹⁰.

Olimlarning ta'riflaridan kelib chiqadigan bo'lsak klasterni bir jamoa ichida talabalar ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tashkil etishda o'zaro raqobat muhitiga asoslangan hamkorlikdagi harakat deb tushunish mumkin. Bu yerda raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan mutaxassis tayyorlaydigan kafedra jamoasi va ushbu jamoa bilan ta'lim oluvchilar o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'taydigan tyutorlarning hamjihatlikda faoliyatining tashkiliy shaklini kuchaytiruvchi mexanizm.

Talabalarining ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda o'zaro manfaatdorlikka asoslangan mustaqil hamkorlik, professor-o'qituvchi-tyutor-talaba tizimida teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma.

Demak, klaster bir maqsadga tegishli hamkorlik va ushbu jarayonga bevosita tegishli ma'suliyatli shaxslarning bir-birini to'ldiruvchi umumiy faoliyati bilan ajralib turadigan, shu bilan birga bir-birini to'ldiradigan ma'lum bir sohada harakatlar majmuidir.

Hozirgi paytda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda jamoa ichida klaster yondashuvi va san'atning ta'sir kuchidan foydalanish ko'proq samara beradi. Chunki, muammolarni hamkorlikda bartaraf etish osonroq va talabalarining ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish, hissiyotini rivojlantirishda tasviriy san'at katta ahamiyatga ega. Ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda tashkil etish kabi umumiy faoliyatda tasviriy san'at o'qituvchisi va murabbiy o'rnidagi tyutorning imkoniyatlari yanada kengayadi. Vaholanki, butun universitet jamoasining umumiy maqsadi aqliy kamoloti, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish orqali talabalarni bilim olishga, kasbiy faoliyatga qiziqtirish, ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda aniq natijalarga erishishdan iborat.

образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород, 24–26 окт. 2006 г.): в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С. 24–29.

¹⁰⁸ Беспалова Л. Что такое кластер? URL: <http://siok.rightside.ru/siok/> 2009-12-01-06-24-41. Загл. с экрана.

¹⁰⁹ Википедия: Свободная энциклопедия [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: <http://ru.wikipedia.org/wiki>

¹¹⁰ Громыко Ю.В. Что такое кластеры и как их создавать? // Альманах «Восток». – 2007. – Вып. 1 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: http://www.situation.ru/app/j_arp_1178.htm.

Hamkorlikka asoslangan klaster ta'limda zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Yoshlarining ijodiy salohiyatini faol rivojlantirish, talabaning ma'lum yo'nalishdagi iqtidorini aniqlash, barcha sohalarida o'z iste'dodini shakllantirish va ochib berishda ularga yordam beradi. Biz har qanday shaxsning bolaligida chizgan suratlari orqali atrof-borliq haqida olgan ilk taasurotlari asta-sekin tafakkurga aylanib borishini unutmasligimiz kerak. Tasviriy san'at kishini o'ziga jalb qiladigan, ajib hissiyotlar baxsh etadigan, ortiqcha stresslarni yo'q qiladigan, ma'naviy ozuqa deyish mumkin. Kishiga ilhom beradigan bunday hissiyotlarni so'ndirib qo'ymaslik uchun jamiyatda har doim mahoratli o'qituvchi-murabbiyga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Tasviriy san'at yo'nalishida esa aynan shunday mutaxassislar tayyorlanadi. Pedagog tizimlilik va bosqichma-bosqichlik tamoyili orqali o'quv jarayonini tashkillashtirib, o'z shogirdlarini ijodkorlikka yo'naltirib borishi zarur. Buning uchun birinchi poydevor Oliy ta'lim muassasasida shakllantiriladi.

Natijalar va amaliy misollar. Kasbiy ta'lim va fan mintaqa madaniyati integratorlari rolini o'ynaydigan oliy ta'lim muassasalari hududlarning innovatsion rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Bu yangi manzarada OTM, mahalliy hokimiyat idoralari yoki boshqa ta'lim muassasalarining klaster hamkorligiga vositachilik qilish, yordam berish va qo'llab-quvvatlash kabi imkoniyatlardan oqilona foydalanishi juda muhim.¹¹¹

Bu albatta, universitet ichidagi alohida jamoalarga ham tegishli. O'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot, talabalar bilan individual ishlash, reytingni oshirish kabi topshiriqlar o'qituvchilarning ancha vaqtini oladi. Tyutorlarning talabalar bilan ishlashdagi yordami ularning ishini ancha yengillashtiradi. Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, tarbiya, o'qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligi¹¹² oshiriladi.

Bugungi kunda tasviriy san'at o'qituvchilari zimmasida yosh avlodning madaniy rivojlanishi va ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishdek mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Chunki maktab faoliyatida o'quvchilar bilan madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish (ijodiy tanlovlar, ko'rgazmalar, bayramlarga tegishli badiiy-bezak ishlari) bevosita tasviriy san'at sohasiga tegishli hisoblanadi. Pedagogdagi ushbu sifatlarning shakllanishida butun OTM jamasi, jumladan: professor-

¹¹¹ Sultanov Kh.E., Marasulova I.M., Bakhriev I.S. Ankabaev R..T. The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education/International Journal of Psychosocial Rehabilitation// Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192: -P.6588.

¹¹² “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 февралдаги “Педагогик таълим соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги №ПҚ-4623 қарори

o'qituvchi va tyutorning hamkorlikdagi samarali mehnati tufayligini erishish mumkin.

Xulosa. Talaba-yoshlardagi ma'naviy dunyoqarashini tarbiyalash ta'limda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning ajralmas komponenti hisoblanadi. Chunki bugungi talaba ertaga maktablarda o'quvchilarni to'g'ri yo'lga boshlovchi murabbiydir. Shundan kelib chiqib, butun uzluksiz ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirishda tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini tatbiq etishning ahamiyati juda katta degan xulosaga kelish mumkin. Bunda oliy ta'lim muassasasidagi professor-o'qituvchi va murabbiy o'rnidagi tyutorning o'zaro uyg'unlikdagi faoliyati juda muhim. Bu ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mana shunday hamkorlik orqali talabalarning ma'naviy dunyoqarashini tarbiyalash bilan birga ta'limning kasbga yo'naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash vazifalari ham amalga oshiriladi. Ma'nau yetuk, ruhan kuchli yoshlar har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy iqtisodiy hayotning barcha jabhalari rivoji uchun o'zlarining munosib hissasini qo'sha oladigan shaxs shakllanadi.

Tavsiyalar: Tadqiqotning xulosalariga tayangan holda quyidagi amaliy takliflarni keltirish mumkin:

- oliy ta'lim muassasasidagi professor-o'qituvchi va tyutorning klaster yondashuviga asoslangan hamkorlikda ishlash mexanizmini takomillashtirish;

- tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi orqali talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda ushbu yo'nalishning o'ziga xos spesifik xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Zamonaviy klaster yondashuvi va "ustoz-shogird" an'analari uyg'unligida tasviriy san'atdagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

Bugungi yuksak texnologiyalar asrida yoshlarning innovatsion tafakkurini shakllantirish, bozor iqtisodi talablariga mos ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning axloqiy tarbiyasi, ma'naviy immunitetini kuchaytirish, dunyoqarashi, inson ongining oliy mahsuli bo'lgan intellektual-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish muammosi kun sayin dolzarblashib bormoqda. Mamlakatimizda amaliyotga joriy etilayotgan ta'lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan hujjatlarda oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish¹¹³, sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni

¹¹³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони;

qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud¹¹⁴. Bu esa o‘z-o‘zidan uzluksiz ta‘lim tizimida yangicha yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarining nafaqat kasbiy kompetensiyalarni, balki ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, badiiy tasavvurini rivojlantirish, ularning ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlashga e‘tiborni kuchaytirishni talab qiladi. Bu muammolar hal etilishining samarali yo‘llaridan biri ta‘lim-tarbiyani klaster yondashuvi va “Ustoz-shogird” an‘analari uyg‘unligida tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv o‘z navbatida uzluksiz ta‘lim tizimidagi mavjud muammolarni hamkorlikda hal etish, ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish bilan birga ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida shakllantirib kelingan milliy an‘nalarni saqlab qolish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Tasviriy san‘at va dizayn ta‘limi jarayonida klaster texnologiyalariga asoslangan yondashuvning mazmuni, strukturaviy modeli, innovatsion faoiyatning pedagogik tavsifihamda tatbiqiy mexanizmlarini ng afzalliklarini an‘anaviy “Ustoz-shogird” an‘analari bilan uyg‘unlikda qo‘llashning nazariy va amaliy xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat.

Asosiy qism

Tarixiy manbalardan ma‘lumki, insoniyat taraqqiyotida tasviriy san‘at katta ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Shuning uchun ham bugungi kunda ham badiiy ta‘lim AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Rossiya, Xitoy, Indoneziya kabi rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimining muhim jihati bo‘lib qolmoqda. Bu mamlakatlarda tasviriy san‘at orqali yoshlardagi ijodkorlik, madaniy tarbiya va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Tasviriy san‘at talabalarimizga dunyoga yangicha qarash, uni chuqurroq idrok etishni o‘rgatadi, tasvirlar orqali o‘zligini ifoda etish hamda tasviriy san‘at, dizayn san‘ati va arxitektura sohasida kelajakdagi kasbiy kererasini yaratishiga yordam beradi. Tasviriy san‘at ta‘limida klaster yondashuviga asoslangan o‘qitish texnologiyalarini joriy etishning puxta o‘ylangan uslubiy tizimi talabalarning vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, o‘quvchi va talabalarning integral idroki, badiiy tasavvuri, ijodiy tafakkuri va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Klaster yondashuvi vositasida takomillashtirilgan o‘qitish texnologiyalarini badiiy ta‘lim amliyotiga samarali tatbiq etish tasviriy san‘at ta‘limida sifat va samaradorlikning oshishining o‘ziga xos pedagogik kafolatidir.

1. Zamonaviy klaster yondashuvi: ta‘rif va tamoyillar.

Globalashuv va integratsiyalashuv sharoitida boshqa sohalarda bo‘lgani kabi, tasviriy san‘atni samarali o‘qitish uchun yangi texnologiyalarga asoslangan

¹¹⁴ (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.07.2018 й., 06/18/5483/1594-сон; 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон; 17.03.2021 й., 06/21/6188/0216-сон, 01.05.2021 й., 06/21/6217/0409-сон).

zamonaviy usul va resurslar bilan ta'minlanishi talab etiladi. Innovatsiyalar asri deb atalayotgan ushbu davrda olimlarning ta'kidlashicha shu kasbni egallagan har qanday mutaxassis, o'quv jarayonini boyitish uchun zamonaviy texnologiyalar va o'qitish usullaridan faol foydalanishi kerak¹¹⁵. Hozirda amaliyotga tatbiq etilayotgan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri yondashuvi xuddi shunday usullardan biri hisoblanib, zamonaviy o'qitish usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, klaster tizimi orqali yangi texnologiyalarning qo'llanilishi, ijodiy faoliyat shaklining xilma-xilligi talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarining oshishiga sabab bo'ladi va bu bola shaxsiyati shakllanishining muhim sharti hisoblanadi¹¹⁶. Tasviriy san'at sohasida pedagogik innovatsion ta'lim klasteri faoliyatini keng yo'lga qo'yish ham qaysidir ma'noda mazkur yo'nalishda ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borishni ko'zda tutadi hamda uzluksiz ta'lim tizimida quyidagi masalalarni hal etishda o'z natijalarini beradi:

➤ klaster yondashuvi orqali umumta'lim maktablari va san'atga ixtisoslashgan maxsus maktablarda iqtidorli yoshlarni izlab topish, oliy ta'lim tizimiga maqsadli tayyorlash va kelajakda tasviriy san'atdan malakali pedagoglar, mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi ta'minlanadi;

➤ professor-o'qituvchilar, umumta'lim maktabi o'qituvchisi hamda talabalardan iborat jamoa uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish muammolariga bag'ishlangan kompleks ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltiriladi;

➤ uzluksiz ta'lim uchun yangi avlod o'quv-uslubiy, ilmiy adabiyotlar, didaktik materiallar majmuasini yaratishda hamkorlik o'rnatiladi.

Ta'lim klasteri - turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarini bir tizimga birlashtirishga asoslangan ta'limni tashkil etishning innovatsion tadqiqot usuli hisoblanadi. Ta'lim klasteri ma'lum bir hudud yoki iqtisodiy sektordagi maktablar, kollejlari, universitetlar, ilmiy markazlar, korxonalar va boshqa ta'lim muassasalarini birlashtiradi.¹¹⁷

Bundan tashqari ta'lim klasteri talabalarga har tomonlama va xilma-xil ta'lim imkoniyatlarini taqdim etish uchun o'quv jarayoni ishtirokchilari- ning o'zaro munosabatlar tizimi hamda ta'lim integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Klaster yondashuvi asosida resurslarning integratsiyasi va muvofiqlashtirilishi tufayli talabalarning turli xil manbalardan foydalanish imkoniyatlari oshadi. Bu talabaning har tomonlama rivojlanishi hamda ta'limdagi innovatsiyalarni

¹¹⁵ Амиров С. Н., Омаров Х. Г. Обучение изобразительному искусству, проблемы и некоторые пути их решения <https://cyberleninka.ru/article/n/obuchenie-izobrazitelnomu-iskusstvu-problemy-i-nekotorye-puti-ih-resheniya>

¹¹⁶ Султанов Х.Э. Узлуksиз таълим тизимида ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш (таsvирий санъат дарслари мисолида). // “Замонавий таълим” илмий-оммабоп журнали, №4, 2016. -14 - б.

¹¹⁷ <https://alfacasting.ru/faq/cto-takoe-obrazovatelnyi-klaster>

rag‘batlantiradigan yanada moslashuvchan va xilma-xil ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi.

Tasviriy san’atdagi ta’lim klasterlarining modellaridan biri bu o‘zaro integratsiyaga asoslanuvchi ta’lim turlari hamda bir nechta badiiy yo‘nalishlar va usullarni yagona ta’lim makonida birlashtirgan kompleks yondashuvdir. Integratsiyalashgan yondashuv grafika, rangtasvir, kompozitsiya, miniatyura, amaliy san’at, haykaltaroshlik, san’at tarixi, dizayn va tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi kabi turli xil mutaxassislik fanlarini yagona ta’lim maydoniga birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bunday klaster talabalarning tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha har tomonlama chuqur bilim olishi, ijodiy jarayon va pedagogik faoliyat mazmuniga kirib borishi va tasavvurini yanada kengaytirish qulay pedagogik muhitni ayuzaga keltiradi. Olimlar bu haqda klaster yondashuvi turli fanlarni tematik guruhlariga birlashtirishni o‘z ichiga oladi, bu esa san’atni chuqurroq tushunishga yordam beradi¹¹⁸, degan fikrni bildirishadi.

Afzalliklari: Tasviriy san’at yo‘nalishida ta’lim-tarbiya jarayonini klaster yondashuvi asosida tashkil etish quyidagi **afzallik**larni beradi.

- talabalaridagi ijodiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi;
- o‘quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga nisbatan motivatsiyani oshiradi;
- tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- o‘qituvchining ustoz sifatida individual ta’limni tashkil etishi, talabalarda esa kasbiy-ijodiy bilim olish uchun faollashishini rag‘batlantiradi.

Kamchiligi:

- hamkorlikdagi barcha sub’ektlarning bir maromda ishlash imkoniyati yo‘qligi;
- klaster usulining doimiy ishlaydigan aniq mexanizmining mavjud emasligi.

Demak, klaster tizimi keng miqyosda qaralganda jug‘rofiy jihatdan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan kompaniyalar va tegishli tashkilot guruhlarining umumiy faoliyat bilan ajralib turadigan, shu bilan birga bir-birini to‘ldiradigan ma’lum bir sohadagi harakatlar majmui hisoblanadi. Torroq doirada olib qaralganda esa bir yoki bir necha ta’lim yo‘nalishlarida fanlararo yoki fanlar ichida, bir nechta jamoalar o‘rtasida yoki bir jamoaning ichidagi turli ishtirokchilarning bir maqsad yo‘lida birikuvi deyish mumkin. Hamkorlikdagi bunday faoliyat o‘zaro aloqadorlikni kuchaytirishi bilan birga kadrlar tayyorlash sifatini ham oshiradi. Fikrimizcha, pedagogik ta’limda ham uzluksiz ta’lim tizimidagi muassasalar va mahallalar hamkorligi, mahalliy va xorijiy OTMLar, universitet ichida turli yo‘nalishlar

¹¹⁸ Шмелева Н. В., Саймиждинов А. К. Современное искусство в контексте практик преподавания: проблемы и перспективы //Art history and Culture / Juvenis scientia 2019 № 8. Стр. -27-30. <https://pdfs.semanticscholar.org/3bec/9b37e215715b15564235e49c1c0ab1a588.pdf>

o'rtasidagi hamkorlik, fanlararo, bir yo'nalish ichida ta'lim-tarbiyani tashkil etishda klaster yondashuvini tatbiq etish orqali ular faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatlari mavjud.

Zamonaviy tadqiqot ishlari xorijiy tajribalar va mahalliy uzluksiz ta'limda mavjud muammolarni o'rganish, tahlil qilish ushbu tizimga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish lozimligini ko'rsatmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'limga bunday yondashuv faqatgina bitta ta'lim muasasasi yoki alohida fan doirasidagina emas, balki, butun uzluksiz ta'lim tizimi hamda fanlararo, fanlar ichidagi muammolar yechimini topishga xizmat qilishi mumkin. Biz o'z tadqiqotimizda klaster yondashuvini pedagogika universitetining tasviriy san'at va dizayn yo'nalishlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish tajribalarini o'rganamiz. Ta'limdagi o'zaro manfaatli hamkorlik tizimidagi vertikal integratsiyani mustahkamlaydi, barcha subektlarning ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi, eng muhimi barcha bo'g'inlardagi malakali kadrlar masalasining ijobiy hal qilinishiga yordam beradi.

Amaliyotda qo'llash uchun misollar.

O'tgan asrning oxirgi choragidan boshlab ko'plab mamlakatlarda ta'lim sohasida klaster dasturlarini amaliyotda qo'llash tajribasi kuzatiladi va bu muvaffaqiyatli natijalar berib kelmoqda. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimining sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ta'lim klasteri usulidan foydalanish taboro ommalashib borayapti.

Masalan: Finlyandiyada innovatsion ta'lim dasturlarini yaratish va qo'shma tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradigan ta'lim klasterlari maktablar, universitetlar va tadqiqot markazlarini birlashtiradi, bu esa ta'lim sifatini oshirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi¹¹⁹.

AQShda ta'lim klasterlari ko'pincha universitetlar va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Eng raqobatbardosh ta'lim klasterlari aynan Kaliforniya, Nyu-York, Massachusets, Pensilvaniya, Nyu-Jersi va boshqa shtatlar hududida joylashgan bo'lib, bugungi kunda ham ushbu sohada AQSh barqaror yetakchi bo'lib qolmoqda. Klaster yondashuviga asoslangan bunday hamkorlik talabalarga amaliy ko'nikma va tajriba orttirishga yordam beradi va innovatsiya hamda texnologiyani targ'ib qiladi¹²⁰. Germaniyada kasb-hunar ta'limi va sanoatni birlashtirish uchun klaster usuli qo'llaniladi. Bu talabalarga mehnat bozorida talab qilinadigan zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, korxonalariga malakali

¹¹⁹ Данилов С.В. Кластерный подход как методологическая основа управления инновационными процессами в системе образования // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2017. – № 5. – С. 42-59; URL: <https://science-pedagogy.ru/ru/article/view?id=1665> (дата обращения: 02.07.2024).

¹²⁰ Бейзеров В.А. Кластерный подход к развитию образовательных систем как способ повышения конкурентоспособности образования стран и регионов /Известия Гомельского государственного университета имени Ф. Скорины, № 5 (92), 2015. <https://core.ac.uk/download/pdf/76001331.pdf>

kadrlar tayyorlash imkonini beradi¹²¹. Yaponiyadagi ta'lim klasterlari maktablar, universitetlar va texnologiya kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga oladi. Bu ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirishga, shuningdek, yuqori texnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi¹²². Ijodiy hamda noodatiy fikrlaydigan, barkamol va to'laqonli shaxsni tarbiyalashga qaratilgan ta'lim klasterlarini shakllantirishda yirik milliy universitetlarning faol ishtirokiga katta ahamiyat qaratilishi bo'yicha Yaponiya AQSh usuliga juda yaqin yo'l tutadi. Tokio hududida Yaponiya universitetlari umumiy sonining beshdan bir qismini tashkil qiluvchi 120 dan ortiq universitetlar mavjud bo'lib, klaster hamkorligi doirasida bu mamlakatda eng yirik sanoat shaharsozlik majmuasi, jahonga mashhur moliya markazi va yangi texnologiyalar markazi yaratilishiga hissa qo'shdi¹²³. Bu yerda tadqiqotchilar va innovatsion jarayonning boshqa ishtirokchilari o'rtasida hamkorlik qilish uchun tadqiqot tarmog'ini yaratish eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Olimlar tomonidan yana bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarda (Singapur, Xitoy, Vengriya, Polsha, Chexiya va mamlakatlar) tashkil etilgan ta'lim klasterlari ham tobora shakllanib, rivojlanib borayotganligi ta'kidlanadi¹²⁴. Xitoy davlatida klaster yondashuviga asoslangan universitetlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari, turli soha kompaniyalari, venchur fondlari kabi vositachi tuzilmalar o'rtasida o'ziga xos strategik hamkorlik mexanizmi ishlab chiqilgan. O'z o'rnida mana shunday o'zaro hamkorlik mamlakat taraqqiyotida yuqori sifatli ta'lim xizmatlarining ulushini oshirdi¹²⁵. Rossiya Federatsiyasida¹²⁶ klaster siyosatini amalga oshirishda "aralash" model samaraliroq bo'lib, u bir tomondan, klasterlarni shakllantirishda mintaqalarning o'zi va mintaqaviy kompaniyalarning faolligiga, boshqa tomondan federal organlar tomonidan klaster tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashiga e'tibor

¹²¹ Синицына С.В., Зырянова Н.И. Значение кластерного подхода в профессиональном образовании https://elar.rsvpu.ru/bitstream/123456789/39206/1/avsorpo_2020_4_031.pdf

¹²² <https://nsportal.ru/shkola/administrirovanie-shkoly/library/2017/04/04/klasternyy-podhod-k-razvitiyu-obrazovatel'nogo>

¹²³ Ou Syaoszyun Исследование развития университетских кластеров высокого уровня в районе Большого залива мирового класса: на примере Нью-Йорка, Сан-Франциско и Токио // Журнал Сычуаньского университета науки и технологий (издание по социальным наукам). - 2018. - №33. - с. 83-100.

¹²⁴ Ксенофонтова О.Л. Опыт зарубежных стран по созданию и функционированию кластеров: модельный подход // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. - 2015. - №2(42). - с. 39.

¹²⁵ Ketova, N.P., & Vey, S. (2021) Educational clusters in Russia and China: formation, management, development strategies. *Creative Economy*, 15(2), 393-410. doi: 10.18334/ce.15.2.111647 (in Russian).

¹²⁶ Ketova, N.P., & Vey, S. (2021) Educational clusters in Russia and China: formation, management, development strategies. *Creative Economy*, 15(2), 393-410. doi: 10.18334/ce.15.2.111647 (in Russian).

- <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-territorialnye-obrazovatelnye-klastery-zarubezhnyy-i-otechestvennyy-opyt#:> Г. У. Матушанский, Р. Р. Гарифуллина, Р.Ф. Бакеева. Инновационные территориальные образовательные кластеры: зарубежный и отечественный опыт.

- Стенякова Н.Е., Груздова О.Г. Кластерная модель организации партнерства образовательных учреждений // Интернет-журнал «Мир науки» 2017, Том 5, номер 5 <https://mir-nauki.com/PDF/56PDMN517.pdf> (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ.

ko‘proq qaratiladi¹²⁷. Belorussiyada ham xorijiy tajribalarga asoslanib ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish uchun tarmoqdagi yetakchi oliy ta‘lim muassasasi sifatida BGPU boshqaruv yadrosi bo‘lgan o‘quv, ilmiy va innovatsion klaster yaratilgan¹²⁸ hamda mamlakatda innovatsion klaster yondashuvlardan keng foydalanib kelinayotganligini e‘tirof etish mumkin. Bu misollar klaster yondashuvi ta‘lim tizimlarini rivojlantirishga va ularning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirishga qanday hissa qo‘shib kelayotganligini ko‘rsatadi.

Albatta, ilg‘or xorijiy mamlakatlar amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan ta‘limga nisbatan innovatsion yondashuv bizning yurtimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Oxirgi besh yillikda O‘zbekistonda ham innovatsion yondashuv sifatida ta‘lim klasteri rivojlana boshladi. Ayniqsa, yangi tashkil etilgan OTMlardan biri Chirchiq davlat pedagogika universitetida qisqa muddat davomida ta‘lim klasterining nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilib, ushbu mavzuda anchagina ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi¹²⁹.

Darhaqiqat, mamlakatimizda bu borada birinchi poydevor qo‘yilib, ta‘lim klasterlari haqida umumiy tushunchalar hosil qilingan bo‘lsada, uni yanada torroq yo‘nalishlarda sinchiklab o‘rganish, uni amaliyotga tatbiq etish uchun ehtiyoj juda yuqori. Innovatsion klaster yondashuvi ta‘limdagi ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta‘minlaydi, to‘plangan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-metodik tajribalar va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta‘lim hamda ijtimoiy iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga tezkor yetib borishini samarali amalga oshiradi¹³⁰. Lekin, shuni unutmashimiz kerak-ki, zamonaviy usullar tarixiy tajribalar bilan birga qo‘llanganidagina aniq ijobiy natijaga erishish mumkin. Ilg‘or xorijiy tajribalarni yurtimizda mavjud bo‘lgan an‘analar bilan uyg‘unlashtirgan holda mamlakatimizda klaster yondashuvining milliy modelini yaratish bugungi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Bu yerda zamonaviy klaster yondashuvi va ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan “Ustoz-shogird” an‘analari uyg‘unligida bilim va tajribani o‘qituvchidan shogirdga o‘tkazish an‘analarini saqlab qolish juda muhim.

¹²⁷ Ксенофонтова О.Л. Опыт зарубежных стран по созданию и функционированию кластеров: модельный подход // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. - 2015. - №2(42). - с. 39.

¹²⁸ <https://bspu.by/klaster>;

- БЕЙЗЕРОВ В.А. Кластерный подход к развитию образовательных систем как способ повышения конкурентоспособности образования стран и регионов / Известия Гомельского государственного университета имени Ф. Скорины, № 5 (92), 2015. –стр.10-14.;

¹²⁹ Mukhamedov G., Khodjamkulov U., Shofkorov A. & Makhmudov K. (2020). Pedagogical education cluster: content and form. ISJ Theoretical & Applied Science, 1(81), 250-257. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS>;

Ходжамқулов У.Н. (2020). Педагогик таълим инновацион кластери (Ўзбекистон таълим тизими мисолида). Academic research in educational sciences, (4), 537-547.

¹³⁰ Eralievich, S. K., Mukhamatsultonovna, M. I., Saidazimovich, B. I., & Turgunovich, A. R. (2020). The Need for Creation of a Cluster of Pedagogical Innovations in the System of Continuous Education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 6586-6591.

2. Ustoz-shogird an'anasi.

Ta'limning ushbu shaklidan butun dunyoda insonlar qadim zamonlardan buyon samarali foydalanib kelishgan va ushbu faoliyat yoshlarga ta'lim-tarbiya berishning tajribali kekxa avlod tomonidan amalga oshiriladigan eng qulay usuli sifatida qabul qilinadi. Psixologik nuqtai nazardan xorijiy pedagoglarining fikricha, "Ustoz-shogird" tizimi, kasbiy tajriba va axloqiy me'yorlarni yoshlarga yetkazish uchun ikki avlod o'rtasidagi ishonchli uzviy munosabat¹³¹ sifatida qaraladi. Tajribali insonlar va hayot so'qmoqlariga endi kirib kelgan navqiron avlod vakillari, mahoratli kasb egasi va ilm olish, kasb-hunar o'rganishni maqsad qilgan yoshlar o'rtasidagi bunday munosabat o'zaro ishonchni mustahkamlaydi, ilm-fan va hunarga nisbatan qiziqishni oshiradi. Sharqda ham azaldan kasb-hunar ulug'langan, ustoz-shogird odobi va ustozning shogirdga nisbatan qattiqqo'l, shu bilan birga mehr-oqibatli bo'lishi talab etilgan. Buyuk allomalarimiz doimo kasbga ega bo'lish, ilm olish, savodli bo'lib hayot kechirishga da'vat etib kelganlar¹³². Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'", "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", "Ustozning bilimi - shogirdning ilmi", "Ustozsiz shogird – jonsiz kesak" va boshqa ko'plab maqollar ustoz-shogird munosabatining qanchalik ulug'ligini ko'rsatib turibdi. Ushbu an'ana ota-bobolarimizdan meros bo'lib, asrlar mobaynida ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib kelgan va hozirgi kunga qadar ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Xalqimizda ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida rivojlanib, ommalashib, takomillashib kelayotir. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Aynan shu yo'l bilan yosh avlod amaliy bilimlar, odo-axloq, kasbiy malaka, jamiyatda o'zini tuta bilish, mehnat qurollari bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

"Ustoz-shogird" an'alarini pedagogikadagi yangi innovatsion yondashuvlar uyg'unligida amaliyotga tatbiq etish zarurati bugungi kun uchun ham juda dolzarb hisoblanadi. Bu nodir an'ana mamlakatni, yurtni yuksaltirish, shunday bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo'ldagi sa'y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda muhim ahamiyatga egadir¹³³. Ushbu an'anadan yoshlarni tasviriy va amaliy san'at orqali ijodkorlikka yo'naltirish jarayonida ham ajdodlarimiz tomonidan samarali usul sifatida foydalanib kelingan.

Qo'llanish uslublari.

Bugungi kunda ham milliy qadriyatlar sifatida bu an'ana hukumat miqyosida qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Oliy ta'lim muassasasi strategik rejasida

¹³¹ <https://didacts.ru/termin/nastavnichestvo.html#>:

¹³² Маликова Д.К. Шарқ мамлакатларида "устоз-шогирд"лик анъаналарининг шаклланиши ва ривожланиши // "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4/ 1753 б.

¹³³ Х.Э. Султанов, Н.К. Маърифхўжаева, К. Юнусова. Устоз-шогирд анъанаси бардавом: анъана янги кўринишда/Международный научно-технический конференции "Проблемы и решения интеграции изобразительного искусства и инженерной графики с другими дисциплинами". (2020): 248-251.

belgilangan mavzular bo'yicha talabalar bilan ustoz-shogird tizimida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, ularning ilmiy-ijodiy ishlariga rahbarlik qilish, ota-onalari bilan birga ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanish¹³⁴ ga katta e'tibor qaratilganligini ko'ramiz. Chunki turli axborot xuruji kuchaygan bugungi innovatsiyalar asrida yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun ta'lim muassasasidagi ustoz – oilada ota-ona – jamiyatda mahalla rahbarlari ko'rinishidagi hamkorlik juda muhim. Ustoz-shogird tizimida natijaga erishishning muhim tarkibiy qismi bu ta'limga individual yondashuv hisoblanadi. Yangi o'qishga qabul qilingan talabaning oliy ta'lim muassasasidagi sharoitga moslashishi, vaqtini to'g'ri taqsimlashga o'rganishi, kasbiy mustaqil ijodiy faoliyatini boshlashning ilk davrida turli anglashilmovchilik va qiyinchiliklarga duch kelganda, ular uchun ustozning har tomonlama qo'llab-quvvatlashi va ko'magi zarur bo'ladi. Individual maslahatlashuvlar va tavsiyalar ulardagi qiyinchiliklarni, ijodiy to'siqlarni yengish va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, har bir ustoz talabalar bilan o'z tajribalari haqida o'rtoqlasha oladi, o'quv jarayonini tashkil etish, kelgusidagi pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan o'zaro munosabatni yo'lga qo'yish va innovatsion usullardan foydalanish bo'yicha maslahatlar berishi mumkin.

Badiiy ta'lim amaliyotiga tavsiya etilayotgan Ustoz-shogird tizimining quyidagi **afzalliklari** mavjud:

- murabbiy o'z bilimi va tajribasi bilan o'rtoqlashadi, bu esa talabaga yangi ko'nikmalarni tezda o'rganishga va keng tarqalgan xatolardan qochishga yordam beradi¹³⁵;
- qiziqishi va layoqati doirasida talaba bilan individual ishlash yo'nalishi tanlanadi, bu esa natijadorlikni ta'minlaydi;
- turli faoliyatda talabalarga iqtidorlarini namoyon etish imkoniyatini kengaytiradi;
- ustozning xayrixohligi hamda qo'llab-quvvatlashini his qilish talabada ushbu faoliyatni uddalashiga nisbatan ishonch va motivatsiyani kuchaytiradi
- ustozning qo'llab-quvvatlashi talabaning jamoaga tez moslashishini ta'minlaydi.

Kamchiligi: Talabaning barcha ishda uztoziga suyanib qolishi uning erkin fikrlashi va harakatini cheklab qo'yishi ham mumkin.

3. Integratsion yondashuv.

Eng yaxshi natijalarga erishish uchun klaster yondashuvi va ustoz-shogird an'anasini birlashtirishdagi qo'llaniladigan **usullar sinergiyasi:** tasviriy san'at o'qituvchisiga atrof-muhitni o'rab turgan tabiat, inson va uning faoliyati tufayli


¹³⁴ Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта махсус таълим вазирининг 2021 йил 30 ноябрдаги 44-2021-сонли буйруғи (рўйхат рақами 3076-1, 22.12.2021 й.) таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.12.2021 й., 10/21/3076-1/1181-сон); (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 09.10.2018 й., 10/18/3076/2007-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 22.12.2021 й., 10/21/3076-1/1181-сон)

¹³⁵ <https://practicum.yandex.ru/blog/nastavnichestvo-v-obrazovanii/>


paydo bo'lgan go'zalliklar, rang-tus va shakl uyg'unligi hamda uning inson kamolotidagi o'rni haqida bilim berish, ijodiy asarlar yaratish, badiiy obrazlarni tahlil qilish, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish vazifasi qo'yiladi. Tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvini qaror toptirish hamda o'qitish texnologiyalarini joriy etish o'qituvchining pedagogik ijodkorligini faollashtiradi. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish shartlarini yanada aniqlashtirish, oliy ta'limda yagona ijodkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Talabalardagi o'ziga nisbatan ishonch, ma'suliyatni his qilgan holda mustaqil harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, o'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish mexanizmlari, usullari, texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish uchun qulay ta'limiy muhitni yuzaga keltiradi¹³⁶.

Ustoz-shogird an'analariga asoslangan tizim barcha ishtirokchilar - o'quvchilar, talabalar, o'qituvchilar, ota-onalar, hududiy korxonada xodimlari, yosh mutaxassislarining o'z imkoniyatlarini to'la namoyon etishi uchun samarali muhit yaratadi. Tayyor bilimning berilmasligi, uni jamoa bo'lib yoki mustaqil izlanishlar, tinimsiz mehnat orqali erishish mumkinligi haqida tajribali va namuna sifatida qaraladigan ustozlar tomonidan aytilganda talabalar bu so'zlarning ma'nosini tezroq idrok etishadi.

Yuqorida qayd etilgan taklif - innovatsion yondashuv sifatida qabul qilinayotgan ta'lim klasteri va ajdodlarimizdan meros bo'lib kelgan ustoz-shogird an'anasini qanday birlashtirish mumkin? - degan savol tug'iladi. Fikrimizcha, buni quyidagi model ko'rinishida amalga oshirish maqsadga muvofiq.



¹³⁶ Султа таъминла nazariy ko



2-rasm. Klaster yondashuvi hamda “Ustoz-shogird” an’analari uyg’unligida ta’lim-tarbiyani tashkil etish modeli

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari tasviriy san’at yo’nalishidagi o’quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ijodiy va ma’naviy-tashkiliy faoliyatdan iborat ta’lim-tarbiya jarayonini klaster yondashuvi hamda “Ustoz-shogird” an’analari uyg’unligida tashkil etish mumkin. Buning uchun avvalo, “Ustoz-shogird” tizimida:

- talabalarning ma’naviy yuksalishiga ta’sir ko’rsatuvchi “tarbiyaviy muhit”;
- ijtimoiy moslashuv va pedagog hamda talaba o’rtasida o’zaro ishonch paydo qiluvchi “samimiy munosabat”;
- yuksak maqsadlarga intilishida yoshlar uchun ideal shaxs obrazini yaratishga xizmat qiladigan pedagogning “shaxsiy namuna” ko’rsatishi ajdodlar merosi an’analarini saqlab qolish bilan birga uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Klaster yondashuvi asosida esa:

- ta’lim jarayonidagi har bir ishtirokchining shaxsiy manfaatidan kelib chiqib “umumiy maqsad” qo’yilishiga erishiladi;
- o’quv, ilmiy-tadqiqot, ijodiy va ma’naviy-tashkiliy yo’nalishlar faoliyatini tashkil etishda, fanlar ichida hamda fanlararo “integratsion hamkorlik” yo’lga qo’yiladi;

- klaster yondashuvi o‘z-o‘zidan “innovatsion faoliyat”ni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, bu ikki yondashuv ham:

- ta‘lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan “ijodiy muhit”ni;

- talabaning shaxsiy ehtiyoji, qiziqishi va layoqatidan kelib chiqib ularning imkoniyatlarini kengaytiradigan, ta‘lim-tarbiya natijadorligini ta‘minlashga xizmat qiladigan “individual ta‘lim muhiti” yaratilishini qo‘llab-quvvatlaydi. Qaysidir jarayonlarda bir-birini to‘ldiradi, ustoz va talaba o‘rtasida hamda talabalarning o‘zaro tajriba almashinish imkoniyatini kengaytiradi, ta‘lim hamda tarbiya jarayonlaridagi faoliyatni biriktiradi. Ilm-fan, ta‘lim-tarbiya hamda ishlab chiqarish jarayoni sub’ektlarini birlashtirib, o‘zaro integratsion aloqadorlikni kuchaytiradi.

Ushbu yondashuv samaradorligini Chirchiq davlat pedagogika universiteti tasviriy san‘at va dizayn yo‘nalishida amaliyotga tatbiq etilayotgan klaster yondashuvi misolida ko‘rib chiqsak bo‘ladi. Universitet strategik yo‘nalishiga mos ravishda kafedra pedagogik ta‘lim innovatsion klaster modelini amaliyotga tatbiq etishni o‘zining asosiy maqsadi etib belgilagan va uning strategiyadagi missiyasi universitet xalqaro imidjini yaratish, investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda raqobatbardoshligini ta‘minlashda jamoaning munosib hissasini qo‘shishdan iborat. Kafedra faoliyati uzluksiz pedagogik ta‘lim tizimini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlariga qaratilgan:

- tasviriy san‘at, dizayn va chizmachilik fanini o‘qitishning mazmuni va maqsadlarini ta‘lim mutaxassislari kasbiy kompetentligiga doir ijtimoiy va iqtisodiy talablar asosida doimiy yangilab borish;

- klaster yondashuvi asosida pedagogik ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan fanlararo va ta‘lim tarmoqlarini integratsiyalash imkoniyatlarini tadqiq qilish, uni amaliyotga tatbiq etish;

Fanlararo va ta‘lim tarmoqlarini integratsiyalash imkoniyatlari, “Ustoz-shogird” an‘analariga asoslangan individual ta‘lim hamda mustaqil ta‘limni rivojlantirish muammolarini tadqiq qilish, uzluksiz pedagogik ta‘limning mazmun va maqsadini yangilash kafedrada amalga oshiriladigan ilmiy-ijodiy tadqiqotlar mazmunini ifodalaydi. Kafedrada **“ArtInnova” integratsion ilmiy-ijodiy tadqiqotlar markazi faoliyat ko‘rsatadi.** Yuqori salohiyatga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchi-magistr-bakalavr talaba tizimida kordinator-moderator-operator shaklida ilmiy-ijodiy yo‘nalish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan tadqiqotchilar jamoasi shakllantirilgan. Bu jamoaga shuningdek, professional rassom-dizaynerlar, umumta‘lim maktabi, musiqa va san‘at maktablarining yuqori kasbiy salohiyatga egamutaxassislari jalb etilgan.

Tadqiqot markazining asosiy vazifalari:


- klaster yondashuvi asosida fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro integratsiyasi uchun qulay sharoit, talabalarni ilmiy-ijodiy faollashtirish uchun "ijodiy muhit" yaratish, ilmiy ijodiy to'garaklar faoliyatini ko'paytirish, unga talabalarni jalb qilish ko'lamini kengaytirish;


- "Ustoz-shogird" tizimida ta'lim klasteri bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-ijodiy tadqiqot ishlarining ko'lamini kengaytirish, markaz faoliyati orqali tadqiqot natijalarini amalda sinab ko'rish va uni amaliyotga joriy qilish mexanizmini ishlab chiqish;

- nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan talabalarning o'quvchilar va ish bilan band bo'lmagan mahalla yoshlari bilan ishlashlari uchun "Art-studio" o'quv markazi faoliyatini takomillashtirish;

- "Talaba-talabaga shogird, talaba-talabaga ustoz" tamoyili asosidagi "O'rgatib-o'rganamiz" loyihasi hamda "Art-terapiya" loyihasi orqali talabalarni yangi bilimlarni egallashga faollashtirish, fan, ta'lim-tarbiya, badiiy ijod va bunyodkorlik sohasidagi tashabbus va g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydigan hamkorlikdagi ilmiy-ijodiy faoliyatini yo'lga qo'yishdan iborat.

Bu yerda klaster yondashuvining o'quv-uslubiy va ilmiy tadqiqot yo'nalishi, umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan vertikal tizim (2-rasm) ishlaydi. O'quvchi-talaba-tadqiqotchi-pedagog olim shaklida ilmiy faoliyatga yo'naltiriladi, o'quvchi-talaba-uslubchi pedagog tizimida malakali o'qituvchi tayyorlansa, ijodiy yo'nalishda esa iqtidorli o'quvchi-ijodkor talaba-pedagog-professional rassom tizimida o'qituvchi jamiyatda mustahkam o'rnini topishi uchun qo'shimcha imkoniyat yaratiladi. Ushbu model innovatsion yondashuv sifatida qabul qilinayotgan klaster yondashuvi bilan birga ajdodlarimizdan meros sifatida "Ustoz-shogird" an'analarining uyg'unligini ta'minlash tamoyiliga asoslanadi.





2-rasm. Klaster yondashuviga asoslangan talabalarni ilmiy, kasbiy, ijodiy faoliyatga yo‘naltirishning vertikal tizimi sxemasi.

“ArtInnova” integratsion ilmiy-ijodiy tadqiqotlar markazida amaliyotga tatbiq etiladigan “Talaba-talabaga shogird, talaba-talabaga ustoz” tamoyili asosidagi “O‘rgatib-o‘rganamiz” loyihasi esa klaster yondashuvining gorizontaal shakli bo‘lishi bilan birga talabalardagi ilmiy (tadqiqotchi), kasbiy (ustozlik), ijodiy (badiiy mahorat) ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi.

Kafedrada 2019 yildan buyon har yili an‘anaviy tarzda klaster hamkorligi doirasida umumta‘lim maktablari o‘qituvchilari bilan birga “Pedagogik sinergiya” ilmiy-amaliy seminarlari (oflayn-onlayn) tashkil etib kelinadi. 2020 yildan maxsus san‘at maktablari va umumta‘lim maktablari o‘quvchilari ishtirok etadigan “Kamalak-ART” ijodiy festivali o‘tkazib kelinmoqda. Universitetda maktab o‘quvchilarining, maktabda esa talabalarning tasviriy san‘at bo‘yicha ijodiy ko‘rgazmalari tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan. Bu tadbirlar birinchidan uzluksiz ta‘limdagi muamolarni o‘rganish, tahlil qilish va barataraf etishga xizmat qilsa, ikkinchidan, badiiy ta‘lim jozibadorligini oshirish, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni pedagogik kasbi hamda tasviriy san‘atga qiziqtirish vazifasini bajaradi. Klaster yondashuviga asoslangan talabalarni ilmiy, kasbiy, ijodiy faoliyatga yo‘naltirishning vertikal tizimi (2-rasm) quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- universitetga o‘qishga kirgan davrdan suhbat, kuzatuv, pedagogik-psixologik so‘rovnoma va testlar orqali qiziqishi va layoqatiga qarab talaba bilan ishlashning aniq imkoniyatlari o‘rganiladi;

- o‘quvchilik davridan ushbu jarayon ishtirokchisi bo‘lgan, endilikda universitet talabasi moyilligiga qarab o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot, ijodiy-tadbirkorlik kabi gorizontaal tizimdagi uchta faoliyatga yo‘naltiriladi hamda “Ustoz-shogird” tizimida professor-o‘qituvchilarga biriktiriladi;

- ilmiy, kasbiy yoki ijodiy yo‘nalishni tanlagan talabalar uchun ustozlar rahbarligida ilmiy tadqiqotchi, o‘qituvchi-uslubchi, ijodkor rassom faoliyat turi bo‘yicha torroq doirada bilim olish imkoniyati yaratiladi;

- o‘z iqtidori va imkoniyatiga ko‘ra talaba o‘qish davrida kelajakdagi OTM, ilmiy markazlar, maktab va kollejlarda yoki erkin ijodkor, xususiy tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha ish faoliyatini davom ettirishi mumkinligini aniq bilib boradi.

Ko‘rinib turibdiki, *“ArtInnova” integratsion ilmiy-ijodiy tadqiqotlar markazi faoliyati orqali* maktab o‘quvchisi hamda o‘qituvchisidan tortib, talaba va universitet professor-o‘qituvchilarining uzviy harakatlari zanjiri hosil qilingan. O‘qituvchi talabalarni ijodkorlikka yo‘naltirish bilan birga ularning “Art-studio” o‘quv markazida mini to‘garaklardagi rahbarligi orqali maktab o‘quvchilarini ham ijodiy, ham ma‘naviy jihatdan tarbiyalashlari uchun imkoniyat yaratib beradi. O‘quvchilar esa yuqori kurs talabalarining pastki kurs talabalariga bevosita o‘z tajribalari asosida o‘zi shug‘ullanayotgan ijodiy faoliyat bo‘yicha ma‘lumotlarni internet saytlaridan qanday topish kerakligi, ishni bosqichma-bosqich bajarish qoidalarini o‘rgatayotganining guvohi bo‘ladi. O‘quvchi ijod qilish, undagi qiyinchiliklarni his qilish, o‘z ijod mahsulini ko‘rgazmaga tayyorlash uchun badiiy bezash va ko‘rgazmalar uyushtirish ketma-ketligini o‘ziga nisbatan tajribali akalari, opalari bilan birgalikda bajaradi. Tajribali o‘qituvchilar, mahoratli rassom, amaliy bezak san‘ati ustalari ishtirokida oddiy eskizning muhokamasidan boshlangan ijodiy jarayon, iqtidorli talabalar va o‘quvchilar hamda ustoz murabbiylarning tugallangan rangtasvir kompozitsiyalari, amaliy san‘at buyumlari taqdimotigacha davom etadi. Bunda ijodkor shogird nafaqat ijod qilish sirlarini, balki, o‘z ishi va boshqalarning asarlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini mushohada qilish hamda ijodiy tafakkur qilish yo‘llarini ham o‘rganadi. OTM vakili, pedagog olim, professional rassom, talaba, maktab o‘qituvchisi va o‘quvchisi ishtirok etadigan ta‘lim klasteri asosidagi bu ijodiy muhit “Ustoz-shogird” tizimining davomiyligini ham ta‘minlaydi. “Eshitdim-ko‘rdim-bajardim” tamoyiliga asoslangan ilmiy-tadqiqot va ijodiy jarayon, undagi ishtirokchilarni ham ilmiy-ijodiy, ham ma‘naviy jihatdan tarbiyalanib borishlari uchun qulay sharoit yaratadi.

Mana shunday integratsiya qadimiy an‘analar innovatsion usullar bilan to‘yintirilgan muhitda klaster yondashuvini tatbiq etish yosh tasviriy san‘at o‘qituvchilariga tajribali hamkasblarning tajribasi va bilimlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Klaster usulining tasviriy san‘at sohasiga integratsiyalashuvi talabalarning yanada samarali ta‘lim olishi va rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ilmiy-tadqiqot, ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarni har tomonlama faollashtirish hamda sohaga oid bilimlarni egallash, ijodiy rivojlanishga nisbatan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi, ushbu jarayon ishtirokchilarini hamkorlikda ishlashga rag‘batlantiradi.

Klaster yondashuvi ta‘limni individuallashtirish, tasviriy san‘at turlarining uzviyligi va uzluksizligi hamda fanlar ichida va fanlararo mantiqiy aloqadorlikka asoslangan integratsiyani ta‘minlaydi. Ajdodlarimizdan me‘ros bo‘lib kelayotgan “Ustoz-shogird” an‘analari asosida ta‘lim-tarbiyani tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Bu jarayonda ustozlar o‘zlarining kasbiy mahoratlari, o‘qitish va

ijodiy ishlash uslublarini talabalarga bevosita yetkazadilar. Bu esa ma'lum darajada yosh o'qituvchilardagi bilim va kasbiy malakalarini oshirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari, tajriba almashish ijodiy fikrlashni va o'qitishda yangi g'oyalarni izlashga nisbatan rag'bat uyg'otadi. Tasviriy san'at va dizayn kafedrası tashabbusi hisoblangan "Pedagogik ta'lim innovatsion klaster modellarini amaliyotga tatbiq etish" mavzusi bo'yicha "pedagogik sinergiya" ilmiy-amaliy seminarlarida bir necha yillar davomida amalga oshirilgan ishlarni o'rganish, tahlil qilishga oid so'rovnomalar o'tkazib kelindi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri hamkorligi ishtirokchilari bo'lgan umumta'lim va musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari, fakultet talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada uzluksiz ta'lim tizimi hamda fanlararo integratsiyasining mazmun-mohiyati va ahamiyatini bilish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi. So'rovnoma tahlillaridan ayon bo'ldiki, respondentlarning aksariyati oliy va o'rta ta'lim maktablarining o'zaro hamkorligi, fanlararo integratsiya jarayoni umumiy ta'lim maydonini kengaytirib, ta'lim sifatini oshiradi degan fikrda ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu o'z navbatida o'zaro aloqaga kiruvchi barcha fanlar uchun manfaatli, fan o'qituvchilari uchun esa tajriba va fikr almashishlarida qulay imkoniyatlar yaratishini ko'rsatdi.

Universitet zamonaviy maktab o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi va uni takomillashtirishda ishtirok etish, yaxshi tayyorlangan abituriyentlar va talabalarni qabul qilish imkoniyati haqida haqiqiy tasavvurga ega bo'ladi.

Shunday qilib, klaster yondashuvining mohiyatini tushunish va amaliyotga tatbiq etish ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifati va raqobatbardoshligini oshirish uchun yangi resurslar va imkoniyatlarni izlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tashkiliy hamkorlik klasterning barcha sub'ektlari raqobatbardoshligini oshiradigan amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish, kasbiy o'zini o'zi anglashning individual ta'lim traektoriyalarini qurishga imkon beradi.

Xulosa: Klaster yondashuvi hamda "Ustoz-shogird" an'analari uyg'unligida ta'lim-tarbiyani tashkil etish uzluksiz ta'limni, fanlararo va fan ichidagi integratsiyani ta'minlaydi, pirovardida, amaliyot jarayonida ta'lim tizimini takomillashtirish, jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash va amalga oshirishga xizmat qiladi.

Yangi innovatsiya sifatida zamonaviy klaster yondashuvi va kasbga o'rgatish borasida qadimdan shakllanib kelgan an'anaviy ta'lim-tarbiya usullarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Ustoz-shogird" an'analari uyg'unligida talabalarning o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini rivojlantirish, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish orqali takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish mumkin. Bu yondashuv ayniqsa, badiiy ijodiyot sohasidagi kasblarga o'rgatish amaliyotida samarali qo'llanib kelingan. Demak, klaster yondashuviga asoslangan ta'lim

jarayonida yosh rassom-pedagoglarni tayyorlash, tasviriy san'at ta'limi sifatini oshirishda ustoz-shogird an'alaridan foydalanish badiiy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Qo'llab-quvvatlovchi muhit, kasbiy rivojlanish, individual maslahatlar, pedagogik va ijodiy faoliyatga moslashishga ko'maklashish va hamkorlikdagi loyihalar OTM bitiruvchilarini hayotiy faoliyatga tayyorlaydi, ta'lim berish, bilim olish va tarbiya sifati ko'tarilishiga olib keladi. Ustozlar bilan bevosita hamkorlik hamda samimiy munosabat bitiruvchilardagi o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda faollik, turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish xislatlari tarbiyalanadi.

Amaliy tavsiyalar.

Chirchiq davlat pedagogika universitetida amaliyotga tatbiq etilgan integratsion ilmiy-ijodiy tadqiqotlar markazi faoliyati hamda loyihalar innovatsion yondashuv sifatida qabul qilinayotgan klaster yondashuvi bilan birga ajdodlarimizdan meros sifatida "Ustoz-shogird" an'alarining uyg'unligini ta'minlaydi.

- Tasviriy san'at va dizayn kafedrası jamoasi tashabbusi bo'lgan klaster yondashuvi hamda "Ustoz-shogird" an'alariga asoslangan individual ta'lim uyg'unligi bo'yicha erishilgan natijalaridan boshqa turdosh OTMlar, kollejlarda hamda umumta'lim maktablari faoliyatida foydalanishi natijasida o'zaro uzviy aloqadorlikdagi ko'p bosqichli badiiy ta'lim tizimi yuzaga kelishi bu tajribadan ta'limning boshqa sohalarda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

Bu orqali talabalarning o'quv, uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay "ijodiy muhit" yaratish mumkin, tayyorlanayotgan kadrlar kompetentligini mutaxassis, buyurtmachi va jamoatchilik malaka darajasiga moslashtirish orqali ta'lim sifati va samaradorligida keskin ijobiy o'zgarishlarga erishiladi.

Talabalardagi ilmiy (tadqiqotchi), kasbiy (ustozlik), ijodiy (badiiy mahorat) ko'nikmalarining shakllantirish uchun innovatsion klaster yondashuvi hamda milliy an'analarga asoslangan "Ustoz-shogird" tizimi imkoniyatlaridan unumli foydalanish mumkin.

Bu yo'nalishda hali tadqiq qilinadigan vazifalar juda ko'p. Ushbu texnologiyalarni har bir yo'nalish va sohalarda qo'llash imkoniyatlari ustida izlanishlar olib borish, mavzuga yoshlarni kengroq jalb etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tasviriy san'at sohasida kasbiy va ijodiy rivojlanishga yordam beruvchi omillar va yondashuvlar

Ayni paytda insoniyat turli xil g'oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda. Murakkab va shiddatli globallashuv davri iqtisodiyotda

ijobiy siljishlar bilan birga har qanday mamlakatda yoshlar tarbiyasiga o'zining salbiy ta'sirini ham o'tkazmoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda yosh avlodning qadimiy an'ana va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Barkamol avlod tarbiyasining muhim yo'nalishi hisoblangan mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish va ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda badiiy ta'limning alohida o'rni bor. Zamonaviy tadqiqotchilarning asarlarida ta'kidlanishicha, aynan san'at ta'limi zamonamizning global muammolari va qarama-qarshiliklarini bartaraf etishda muhim rol o'ynashi mumkin. Darhaqiqat, boy badiiy merosi bilan jahon san'ati va madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan qadimiy sivilizatsiya o'chog'i sifatida milliy badiiy an'analarning o'ziga xosligini saqlab kelayotgani yangi O'zbekiston rivojida milliy an'analarni avlodlar va dunyo xalqlari nigohiga yetkazish¹³⁷ da badiiy ta'limning ahamiyati katta. Tasviriy san'at zamonaviy ta'lim tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lib, shaxs va butun jamiyatning rang-barang va uyg'un rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, u ijtimoiy-madaniy kompetensiyani targ'ib qiladi, xilma-xillik va turli madaniyatlarga hurmatni o'rgatadi. Tasviriy san'at yoshlarga badiiy ta'lim va ta'lim tarbiya berish uchun samarali vosita bo'lib, ijodkor uchun o'z fikri, his-tuyg'ulari va g'oyalarini tomashabinga tasvirlar orqali yetkazish imkonini beruvchi o'zligini ifoda etishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Pedagog-rassom kasbi esa ijodiy faoliyatni o'qituvchilik faoliyati bilan uyg'unlashtira olgan noyob mutaxassis sanaladi. Amaliyotdagi o'zining bilim va ko'nikmalari tufayli u o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi hamda ularni axloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalaydi. Kasbiy pedagogik mahorat qanday kerak bo'lsa, ijodiy qobiliyat ham pedagog-rassomlar faoliyati uchun shunchalik zarur. Tasviriy san'at sohasida ijodkor shaxsning shakllanishi va uning kasbiy mahoratining oshishida ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish juda muhim. Bu jarayonda pedagog-rassomning nafaqat material va usullarda ishlash bo'yicha texnik mahorati aks etadi, balki tomashabin uchun uning ichki dunyosi, tashqi olamga nisbatan munosabati ham ochib beriladi. Ijodkorlik qobiliyati kuchli rivojlangan, ushbu kechinmani o'zida his qilgan mutaxassisgina kelajakda o'quvchi iqtidorini payqaydi va ijodkor shaxsni tarbiyalay oladi. Ushbu maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan asosiy omillar va yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Albatta, ijodiy qobiliyatlar kishida ilk yoshlik paytlaridan ko'zga tashlana boshlaydi, faqat unda doimo rivojlantirishga ehtiyoj bo'ladi. B.G.Ananayev, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar kasbiy faoliyatning samarasini oshirish bilan yo'g'rilgan inson hayotining eng ijodkorlikka moyil davrlari, yetuklik bosqichlari to'g'risida fikr yuritadilar. Ular yetuk insonlarning barkamolligi, shaxs rivojlanishining gullagan davridagi psixik qonuniyatlari, professionalizmga

¹³⁷ Умаров А.С. Узлуксиз таълимда замонавий санъат мактабларини ташкил этишнинг кластер тамойиллари. Research Focus, Uzbekistan, | VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2022.

yetishdagi balandliklardan o‘ta olish masalalari bilan shug‘ullanganlar¹³⁸. Ijodiy qobiliyatlari va shu sohaga moyilligi tufayli o‘qishga kirgan talabalarda ham kasbiy pedagogik ko‘nikmalar bilan birga ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning kelajakdagi faoliyatini to‘g‘ri qurishga olib keladi. Shuning uchun barkamol avlod, yetuk mutaxassislarni tayyorlashda ta‘limni to‘g‘ri tashkil etish bugungi kun uchun kechiktirilmas zaruriyat hisoblanadi. Olimlar tomonidan talabalarining kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bir qancha omillarni ko‘rsatib beriladi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak barkamollikka, mutaxassisning ijodiy faoliyatining davomiyligiga olib keladigan sub‘ektiv va ob‘ektiv omillarini asoslab berdi. (Akmeológiya (qad.-grek. ακμή, akme - cho‘qqi, qad.-grek. λόγος, logos - ta‘limot) - rivojlanish psixologiyasining falsafiy bo‘limi, u eng yuqori darajaga erishish imkoniyatini ta‘minlaydigan qonuniyatlar va mexanizmlarni o‘rganadi) Ob‘ektiv omillarga olingan ta‘limning sifati, sub‘ektiv omillari esa insonning iste‘dodi va qobiliyati, ishlab chiqarishdagi vazifalarni samarali hal qila olish mas‘uliyati, mutaxassislikka yondashuvini kiritadi¹³⁹.

Yuqoridagi olimning aytganlarini mulohaza qilar ekanmiz, tasviriy san‘at o‘qituvchilari uchun uning fikriga qo‘shimcha sifatida quyidagilarni ta‘kidlashni lozim topdik. Talabada ko‘ringan iste‘dod nishonalari, berilgan vazifalarni bajarishdagi uquvliligi, qobiliyati, iste‘dodi, ta‘lim olish uchun oilasidagi muhit, ta‘lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar va maqsadga erishish yo‘ldidagi shaxsiy xatti-harakatini yuksak kasbiy va ijodiy barkamollikka erishishning asosiy omillari deb ko‘rsatish mumkin.

O‘qituvchining kasbiy-ijodiy individualligi quyidagilarda ko‘rinadi:

- intellektual-ijodiy tashabbuskorlik;
- bilimining kengligi va chuqurligi,
- kasbiy faoliyatida ziddiyatlarga nisbatan hushyorligi;
- ijodiy tafakkuri;
- ijodiy faoliyatiga tanqidiy yondashuv,
- yaratuvchilikka vujudan kurashuvchanlik qobiliyati¹⁴⁰;

Ushbu sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun pedagog-rassomda kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlari mujassam bo‘lishi talab etiladi. Kasbiy pedagogik faoliyat uchun tasviriy san‘at o‘qituvchilarida ta‘lim-tarbiya berish, muloqot qilish, tashkilotchilik, moslashuvchanlik ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi lozim. Ijodiy

¹³⁸ Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. – СПб.: «Питер», 2001. –С. 272.

¹³⁹ Сластенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. / Учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. – М.: «Школа-Пресс», 1997. –С. 298-301.

¹⁴⁰ Султанов Х.Э. Тасвирий санъат машғулотларида талабаларнинг иждодий қобилиятини ривожлантиришда инновацион технологиялардан фойдаланиш//Замоновий таълим/ №11,-2016.: -61 б.;

faoliyat uchun esa ularda avvalombor iste'dod, badiiy mahorat, ijodiy fikrlash, san'atga bo'lgan ishtiyoq kuchli bo'lishi kerak.

Pedagog-rassomda bo'lishi kerak bo'lgan asosiy qobiliyatlardan ba'zilari:

1. *Ta'lim-tarbiya berish ko'nikmalari:* Pedagog-rassom tarbiyalanuvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va samarali o'quv dasturlarini ishlab chiqish uchun yetarli bilim, ta'lim-tarbiya berish pedagogik qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu dars jarayonida van bo'yicha murakkab tushunchalarni tushuntirish, o'quvchilarni rag'batlantirish va ta'lim-tarbiya muhitini yaratish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

2. *Muloqot ko'nikmalari:* O'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samimiy munosabatda bo'lishi uchun yaxshi muloqot qilish qobiliyatiga ega bo'lish juda muhim. Pedagog-rassom tasviriy san'atning rivojlanish tarixi, san'atdagi so'ngi yangiliklar, badiiy uslublar hamda mutaxassislik bo'yicha kasbiy tushunchalarni erkin tushuntirib berishi va muhokama qila bilishi kerak.

3. *Tashkilotchilik ko'nikmasi:* Pedagog-rassom tartibli va tashkilotchi bo'lishi, darslarni rejalashtirish, o'quv materiallarini yaratish va vaqtni samarali boshqarishga qodir bo'lishi kerak. O'quv jarayonidan tashqari unda badiiy ko'rgazmalar, ijodiy tanlovlar, plener amaliyotini tashkil etish, muzeylar, galareyalarga ekskursiya uyushtirish qobiliyatlari ham bo'lishi kerak.

4. *Moslashuvchanlik:* San'at doimo rivojlanib boradi, pedagog-rassom esa yangi tendensiyalar va texnologiyalarga doimiy moslashishga tayyor bo'lishi kerak. Bu esa shuningdek, turli yosh guruhlari va o'quvchilarning malaka darajalari bilan ishlash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Buning uchun u doimiy ravishda ko'rgazmalarga tashrif buyurishi, internet tarmoqlari orqali yetuk rassomlar ijodini kuzatib borishiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari ijodiy mahoratini oshirib, o'z ustida tinimsiz ishlashi lozim.

Ijodiy faoliyat uchun kerakli qobiliyatlar:

1. *Badiiy mahorat:* pedagog-rassom rangtasvir, grafika, kompozitsiya, haykaltaroshlik, dizayn kabi tasviriy san'atning har xil turlari bo'yicha yetarli darajada badiiy mahoratga ega bo'lishi kerak. Badiiy mahorat esa doimiy harakat va rivojlanishni talab etadi. Pedagog-rassom sifatida u ham pedagogik va ham ijodiy sohada doimo malakasini oshirib borishi zarur. Oliy ta'lim muassasasida va hayotiy faoliyatda egallagan bilim va ko'nikmalarini talabalarga mukammal yetkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishi o'qituvchi uchun asosiy talab hisoblanadi.

3. *Ijodiy fikrlash:* pedagog-rassom ijodkor, san'at va ta'lim-tarbiya berishda yangilik va innovatsion yondashuvlarni qabul qilish, mohiyatini anglash va uni amalga oshirishga qodir bo'lishi kerak. Talabalarni faollashtirish uchun ularni yangi loyihalarga jalb qilish, ijodkorlikka yo'naltirish, yangi g'oyalar ustida ishlash uning doimiy vazifasi sanaladi. Mana shunday yondashuv orqaligina u ustoz

sifatida talabalardagi ijodiy fikrlarini rivojlantirish, motivatsiya berish hamda ilhomlantira olishi mumkin.

3. *San'atga bo'lgan ishtiyoq*: nihoyat, pedagog-rassomda tasviriy san'atga nisbatan mehr, milliy qadriyatlar, an'analarga ehtirom, ma'naviy ta'lim-tarbiya berish hamda ijodiy jarayonni tashkil etishga chuqur ishtiyoqi bo'lishi kerak. O'z kasbini sevishi, jonkuyarlik, ma'suliyat va tashabbuskorligi orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga ilhomlantirishi va ijobiy o'quv muhitini yaratishda muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Bu qobiliyatlar pedagog-rassom uchun o'z o'quvchilarini muvaffaqiyatli ta'lim-tarbiya berish i va ilhomlantirishi, ularning badiiy salohiyatini rivojlantirish hamda tasviriy san'atda muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Pedagog-rassomning ijodida ilhom va ijodiy izlanishning ahamiyati katta. Chunki, u o'zi ijod qilishi bilan birga kelajak uchun iqtidor egalarini izlab topadi, to'g'ri yo'lga yo'naltiradi, tarbiyalab yetishtiradi. Shuning uchun ilhom tushunchasi haqida aniq tasavvuri bo'lishi, o'zida va shogirdlaridagi bu holatni ilg'ay olishi, vaqtida anglab yetishi va his qilishi o'qituvchi uchun juda muhim. Har qanday san'atkorda ijodiy rivojlanish yo'li ilhomlanishdan boshlanadi. Ilhom - bu kishini ijodkorlikka undovchi ichki tug'yon va uni harakatga keltiruvchi kuchlarning to'planishi, motivatsiyaning ko'tarilishi, yuqori ishtiyoq va ijodiy asarlar yaratishdagi mahsuldorlik bilan tavsiflanadigan holat, uningsiz haqiqiy ijodiy asarni tasavvur qilish qiyin. Ilhom – bu hodisasiz haqiqiy ijodni tasavvur qilish qiyin. Ojegovning lug'atida “Ijodiy yuksalish, ijodiy ishtiyoqning o'sishi” deb ta'riflaydi. Haqiqatdan ham rassom uchun ilhom muhim rol o'ynaydi, chunki u yaratilajak asarlar uchun yangi g'oya paydo bo'lishi, o'ylangan g'oyani amalga oshirish uchun ishtiyoq va asar mazmuni uchun asosiy manba hisoblanadi. Har bir ijodkorni ilhomlantiradigan turli manbaalar mavjud. Ilhom - bu ijodkorning ijodiy ish bajarish va fikrlash jarayonida duch keladigan psixologik tajribasi¹⁴¹ - deb ta'riflaydi bu haqda Li Fan. Shu o'rinda shuni ta'kidlashni hohlardikki, bizning fikrimizcha ijodiy izlanishni ilmiy-tadqiqot bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, rassom bir asar yaratishi uchun o'z g'oyasi atrofida juda katta ma'lumotlar to'playdi, uni har tomonlama tahlil qiladi, tajriba-eksperimentlar qilib ko'radi. Rassomlar tabiatga nisbatan his-tuyg'u va kechinmalar, hayotning turli jabhalarida shaxsiy tajriba orttirish va kuzatish, madaniyat va san'atda musiqadan, adabiyotdan, jamiyatdagi voqeliklardan ta'sirlanishi oqibatida hamda boshqa rassomlarning san'at asarlarini kuzatish orqali ilhomlanadi. Pedagog-rassom

¹⁴¹ Ли Фан. О механизмах возникновения творческого вдохновения в учени и о «Небесной Тайне» и в концепции и «исступления» у Платона // Теория искусства и художественного творчества ХК 2019 № 3 С. 38-51.

bularning barchasini o'zida sinab ko'rgandagini boshqalardagi ushbu holatni ilg'ashi mumkin va ularni ijaodiy jarayonga yo'naltira oladi.

Quyidagilar rassomning ilhomlanishi uchun zarur bo'lgan turli shakl va manbalar deb hisoblanadi:

- tabiat hodisalari: rassomlar ilhomni asosan atrofdagi tabiat, uning go'zalligi, turli xil shakllar, ranglar va fakturalardan topadilar. Turli manzara ko'rinishlari, gullar jozibasi, hayvonlar, insonlar harakati, o'ziga xos xususiyatlari ijodkor uchun cheksiz badiiy g'oyalarni manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

- his-tuyg'u va kechinmalar: Ko'pincha rassomlar san'at asarlarini yaratish uchun o'zlarining his-tuyg'ulari, sezgisi va hayotiy tajribalaridan foydalanadilar. Ba'zida ijodkorda paydo bo'lgan ilhom - quvonch, qayg'u, sevgi, qo'rquv yoki hatto mavhum his-tuyg'ular bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

- madaniyat va san'atning ta'siri: turli madaniyatlar, ularning tarixi va san'atini o'rganish, boshqa ijodkorlarning asarlari bilan muloqot qilish ilhom manbai bo'lishi mumkin. Rassomlar turli xil badiiy uslublar, davrlar va harakatlardan g'oyalarni chizishlari mumkin. San'at san'atni ilhomlantirishi mumkin. Boshqa rassomlarning asarlari, ularning ish uslublari va texnikasini o'rganish ijodiy jarayonni rag'batlantirishi va shaxsiy badiiy usulni rivojlantirishga yordam beradi.

- shaxsiy tajriba va kuzatish: kutilmagan vaziyatlar, kundalik turmush tarzidagi voqealar, kishini hayratga soladigan oddiy lahzalar ham ilhom manbaiga aylanishi mumkin. Mahoratli ijodkor eng oddiy narsalarda ham boshqalar ko'ra olmaydigan go'zallik va betakrorlikni ko'ra oladi.

- jamiyatdagi voqealar: dunyoda sodir bo'layotgan voqealar, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar, tarixiy voqealar ham ijodkorlarni ilhomlantirishi mumkin. Ular asarlarida o'ziga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilgan hozirgi voqealar haqida o'z fikr va his-tuyg'ularini aks ettirishga intilishadi.

- orzu-istak va xayollar: Ilhom xayol va orzular orqali paydo bo'lgan tasavvurni kengaytiradi, fantaziyalar hosil qiladi. Ulardan ta'sirlanib rassomlar o'z asarlarida hayratlanarli va mistik olam ko'rinishlarini yaratishlari mumkin.

Ijodiy asar yaratish jarayonning boshlanishidagi o'z g'oyasini amalga oshirish uchun ishni boshlashga bo'lgan jur'at, sa'yi harakatning yetishmasligi ijodkor uchun qiyin kechishi mumkin. O'ylangan vazifalarni qog'oz yoki mato sathida ifodalash va ijodiy g'oyalarni uning mazmunini to'ldirishga bo'lgan kuchli ishtiyoq sababligina u o'z oldidagi ko'rinmas devorni bartaraf eta oladi. Turli uslublar, texnikalar va materiallarni o'rganish hamda tajriba o'tkazish ijodkorlikda o'ziga xos badiiy qarash va yondashuvning rivojlanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, ilhom har bir inson uchun individual bo'lib, u har bir rassomda bir-biridan farq qiladi. U kutilmaganda kelib, bir zumda g'oyib bo'lishi mumkin va rassomning asosiy vazifalaridan biri noyob va ilhomlantiruvchi

san'at asarlarini yaratish uchun uni vaqtida ilg'ay olish, foydalanishi va o'z asarlariga kirita olishi juda muhim.

Darhaqiqat ijodkor ilhomni turli manbalardan izlashi va hayotning turli jabhalarida topish mumkin. Mariya Bukalova ijodkorning ilhom olishi va ijodiy jarayonni tashkil etish haqida gapirar ekan "muvaqqafiyatning ajralmas qismi mashaqqatli mehnat ekanligini unutmasligimiz kerak"¹⁴² degan fikrni bildiradi. Pablo Pikasso ijodkor uchun ilhomning yaratgan tomonidan berilishiga ishongan, lekin u ish paytidagi tinimsiz mehnat tufayli kelishini ta'kidlagan. Xuddi shu fikrga yaqin ijodiy faoliyatda ilhomning o'rni haqida gapirar ekan Ilya Repin ham xuddi shunday fikr bildirdi. Juda ko'plab badiiy asarlar muallifi ilhomni mashaqqatli mehnat uchun mukofot deb atagan. Buyuk rassomlar ijodiy faoliyatiga nazar solar ekansiz, mana shu gaplarning naqadar o'rinli ekanligiga amin bo'lish mumkin. Tasviriy san'at o'qituvchisi ijodiy jarayon haqidagi ushbu ma'lumotlarni o'rganishi, kerak bo'lganda o'z ijodiy faoliyati va pedagogik jarayonda qo'llay olishi va o'quvchilarini kerak joyda ilhomlantirishi, kerak joyda to'g'ri yo'naltira olishi lozim.

Pedagog-rassomlar uchun ijodiy jarayonda texnik ko'nikmalarni rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan badiiy asarlar yaratish jarayoni, o'z o'quvchilariga mahorat darslari o'tishda tasviriy san'at asarlari yaratishning asosiy texnik ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun bu kasb egalari grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik va boshqa janrlarda ishlash amaliyot va o'z imkoniyatlarini doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Tasviriy san'at vositalari va materiallar bilan ishlashni o'zlashtirish rassomga o'z fikrlarini osongina ifodalash va ularni haqqoniy tasvirlashga yordam beradi.

Tasviriy san'at inson hissiyotga ta'sir etuvchi san'at turlaridan biridir. Shundan kelib chiqib, tasviriy san'atdagi ijodiy rivojlanish nafaqat grafika yoki rangtasvirda ishlash texnikasiga ega bo'lish, balki go'zallikka nisbatan sezgisi va his-tuyg'ularni badiiy asarlar orqali ifodalash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Hissiyotga yo'g'rilgan san'at ijodkor uchun tomoshabinlarga chuqur ta'sir ko'rsatadigan va uning ijodida aks sado beradigan asarlar yaratish imkonini beradi.

Ijodiy jarayon albatta pedagogdan ham rassomdan ham tanqidiy fikrlashni talab etadi. U o'z kasbiy va ijodiy faoliyatidagi aqliy harakat jarayonlarini (ong, fikrlash) anglab yetish, chuqur o'rganishi va bilishi (*introspeksiya*¹⁴³), faoliyatini nazorat qilish, hamda unga tanqidiy nazar bilan qarashi lozim. O'z ishini tahlil qilish hamda o'z-o'zini baholash rassomning doimiy o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash unga ijodingizning kuchli va zaif tomonlarini ko'rish imkonini beradi, bu esa yaxshilanishi va isloh qilinishi kerak bo'lgan

¹⁴² <https://dtf.ru/life/177087-v-poiskah-vdohnoveniya-po-sledam-izvestnyh-hudozhnikov>

¹⁴³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

sohalarni aniqlash hamda kamchiliklarni vaqtda bartaraf etishga yordam beradi. Binobarin, bugungi ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablarda nafaqat fandan layoqatlilik darajasi, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olishi, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyoj katta.

Shundan kelib chiqib, Pedagogika oliy ta'limiga ushbu tizimdagi ish beruvchilarning o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylaridagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan taminlash hamda xalqaro standartlar darajasiga mos oliy malumotli pedagog kadrlar tayyorlash¹⁴⁴ asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bu esa o'z navbatida sifatli kadrlarni tayyorlash uchun OTMda yaratilgan shart-sharoitlar va ijodiy muhitga ham bog'liq. Lekin, barcha sharoit bo'lsayu, ta'lim oluvchida bilim olish va o'z ustida ishlashga bo'lgan hohish bo'lmasa ham ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari auditoriyadagi mashg'ulotlardan tashqarida turli ko'rgazmalarda boshqalar ijodini o'rganish, mahorat darolarida qatnashish, boshqa ijodkorlar bilan tajriba almashishi ijodiy yuksalish uchun juda muhim ekanligini tushunib yetishlari juda zarur. Ta'lim rassom-pedagog uchun tasviriy san'atning yangi uslublari va yondashuvlarini o'rganish imkonini beradi, shu bilan birga tajriba almashish orqali turli xil yondashuvlarni o'rganadi hamda boshqa ijodkorlarning ijodidan ilhom olishiga sabab bo'ladi.

Xulosa

Demak, tasviriy san'at sohasidagi ijodiy rivojlanish ko'p qirrali jarayon bo'lib, ushbu sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun pedagog-rassomda kasbiy pedagogik va ijodiy qobiliyatlari mujassam bo'lishi talab etiladi. Tasviriy san'at sohasida kasbiy va ijodiy rivojlanish quyidagi turli omillar va yondashuvlarga bog'liq ekanligini ta'kidlash mumkin:

- ta'lim-tarbiya berish, muloqot qilish, tashkilotchilik, moslashuvchanlik ko'nikmalari tasviriy san'at sohasida kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi.

- tanqidiy fikrlash va o'rganish bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ilhom olish, ijodiy izlanish, texnik ko'nikmalarni rivojlantirish, san'at asarlaridan ta'sirlanish pedagog-rassomning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

- rivojlanish va o'z-o'zini takomillashtirishga doimiy intilish ijodkorning muvaffaqiyatli ijodiy natijalarga erishishi va shaxsiy yuksalishining kaliti hisoblanadi.

¹⁴⁴ Sultanov X.E, Sobirov S.T, Marasulova I.M. "THEORETICAL BASIS OF CLUSTER APPROACH IN FINE ARTS EDUCATION". Journal of Critical Reviews, Vol 7, Issue 9, 2020. p.108-111.

Tasviriy san'atda mavjud ta'lim klasterlari modellari va ularning samaradorligi

Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarida umumiy jihatlar va tabiiy qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu borada o'ziga xos yangi yo'llarni qidirishdan ko'ra, ba'zan rivojlangan mamlakatlardagi tayyor andozalarni olish, ulardan ijodiy foydalanish yaxshiroq natijani beradi. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida xalqaro tajribada sinalgan va mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etuvchi innovatsion tajribalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ana shunday innovatsiyalardan biri "klaster modeli" bo'lib, bugungi kunda u agrar, to'qimachilik, yengil sanoat va farmasevtika sohaslarida keng qo'llanilmoqda. Qisqa muddat ichida klaster modeli iqtisodiyotda istiqbolli innovatsion yo'nalish sifatida e'tirof etilib, uni boshqa sohalarda qo'llash tajribalari amalga oshirilmoqda.

Xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotning ishlab chiqarish tarmoqlarida samarali model sifatida e'tirof etilayotgan klaster tizimi xuddi shunday ijodiy o'zlashtirilayotgan tajribalar sirasiga kiradi. Klaster modeli bugungi kunda ta'lim tizimiga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Bugungi kunda dunyoda olimlar ta'lim sohasiga tatbiq etish uchun o'quv klasterlarining ko'plab modellarini taklif qilishadi. Olimlar va tadqiqotchilar tomonidan bu modellarda klaster yondashuvining ta'lim sifati, talabalarning ijodiy rivojlanishiga qanchalik ta'sir qilishi, samaradorligini tushunish uchun o'rganiladi. Ta'lim klasterlari o'quv jarayonini tashkil etishning o'ziga xos tuzilmasi bo'lib, unda bir nechta ta'lim muassasalari ma'lum bir sohada ta'limning turli jihatlariga e'tibor qaratadi. Ijodkorlik va uslublarning xilma-xilligi muhim o'rin tutadigan tasviriy san'at sohasida bunday klasterlar o'quv samaradorligini oshirishi, talabalarning kasbiy - pedagogik va ijodiy rivojlanishi uchun o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Ushbu maqolada pedagogik ta'limda mavjud ta'lim klasterlarining modellari tahlil qilinadi va olimlar tomonidan ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari hamda ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni ko'paytirish, ularning ilmiy salohiyatini yanada oshirish asosiy masalalardan biriga aylandi. Ya'ni, har bir oliy o'quv yurti ishlab chiqarish bilan, tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari, konstruktorlik byurolari, tajriba va innovatsion markazlar bilan bog'lanishi, hamkorlik qilishi ko'zda tutilgan. Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb

egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish¹⁴⁵ da aynan Oliy ta'lim tizimiga juda katta ma'suliyat yuklanadi. Boshqacha aytganda, oliy ta'lim tizimi sifat jihatidan tubdan o'zgarishi lozimligi bugungi davr talabi ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. "Pedagogik ta'lim klasteri - muayyan jug'rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub'ektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm"¹⁴⁶ hisoblanadi. Klaster yondashuvini qaror toptirish va o'qitish texnologiyalarini joriy etish tufayli oliy ta'lim muassasasida nafaqat mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, kasbiy motivatsiyani shakllantirish vazifalari hal etiladi, balkim, ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamining kengayishi, o'quv-uslubiy dasturlarning takomillashtirilishi, talaba va o'quvchilardagi badiiy ijodkorlik ko'nikmalarining tarbiyalanishi, ulardagi ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishlarining rag'batlantirilishiga ham olib keladi.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik oliy ta'lim sohasida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabalariga bilim berish va ularning kreativligini rivojlantirish innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu maqolada biz tasviriy san'atda mavjud ta'lim klasterlari modellari va ularning samaradorligini tahlil qilishga urinib ko'ramiz. Shuningdek, maqolada klaster usulining nazariy asoslarini, shuningdek, uning ijodkorlikni rag'batlantirish, fanlararo hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan muhitda ta'lim klasteri modellarining o'rnini haqida mushohada qilinadi. Talabalarining motivatsiyasini oshirish, ta'lim sifati va individual ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash kabi muhim omillar belgilangan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan baholanadi.

Klaster metodi o'qitish va o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion yondashuvi bo'lib, u talabalarni ta'limga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda klasterlar deb ataladigan kichik guruhlarga birlashtirishga asoslangan. Bu usul individual ta'limni tashkil etishga yordam beradi va talabalar o'rtasida o'zaro faol munosabatlarni rag'batlantiradi.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, klasterli yondashuv hududlarda ilmiy tadqiqot hamkorligini shakllantirishning istiqbolli usuli bo'lib, innovatsion jarayonda butun mamlakat salohiyatidan foydalanish imkonini beradi. Bu jihat, ayniqsa, jahon ta'lim bozori talabalariga mos kadrlar tayyorlashga intilayotgan O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikda

¹⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-6108-сонли Фармони

¹⁴⁶ Мухамедов Ғ.И., Хўжамкулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф (илмий рисола).// -Т.: "ЎзМУ". 2019. -27 б.

uzluksiz ta'limdagi innovatsion faoliyat rivojlantiriladi va institut hududiy tadbirkorlik faoliyati markaziga aylanishi uchun sharoit yaratiladi. Bu esa o'z navbatida ish beruvchilar va bitiruvchilar o'rtasidagi o'zaro aniq mexanizm sifatida ishlashi, universitet jozibadorligining oshishi, bitiruvchilarning qo'shimcha kasb-hunarga ega bo'lish imkoniyatini oshiradi.

Nigeriyalik olim Anthony Chigbu Nwagbara hech bir millatda ta'lim sifati uning o'qituvchilari bilim darajasi sifatidan yuqori bo'laolmasligini ta'kidlaydi, U o'z maqolasida sifatli ta'lim o'quvchilarning kasbiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi va ta'lim klasterida natijaga erishish uchun barcha darajadagi o'qituvchilarni qayta tayyorlash modeli¹⁴⁷ juda muhim ekanligiga urg'u beradi.

Rus olimasi A.Ye.Strelyaevaning fikricha, o'z tabiatiga ko'ra klaster ichida o'zaro gorizont va vertikal aloqalarni tashkil etuvchi klaster yondashuvidan foydalanish kerak¹⁴⁸. Olima hozirgi vaqtda umumta'lim maktablari va oliy ta'lim o'rtasidagi o'zaro aloqalar doirasida ixtisoslashtirilgan sinflarni tashkil etish, maktab o'quvchilarini universitetgacha tayyorlashni joriy etishning bir nechta an'anaviy amalga oshirish modellari mavjud ekanligini e'tirof etadi. Biroq, bu modellarda maktab buyurtmachi, universitet esa ijrochi sifatida faqat bir tomonlama ishlashinin uning asosiy kamchiligi deb ko'rsatadi va hamkorlik aloqalarni gorizont shakllantirish kerakligini ta'kidlaydi.

Birgalikda qo'yilgan vazifalarni hal qilishga asoslangan sheriklik (o'zaro ta'sir) aloqalari barcha uchun teng bo'lishi kerak. Stenyakova N.Ye. va boshqa rus olimlari "ishtirokchilarning hamkorligi bu faqat universitetga kirishga tayyorgarlik uchungina kerak emas, bu yerda har bir sub'ektning sa'y-harakatlari uyg'unlashib, boshqalarning manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishi"¹⁴⁹ zarur degan fikrni oldinga surishadi.

Badiiy hunarmandchilik va dizayn ta'lim klasterining innovatsion modelini yaratish iqtidorli va iqtidorli talabalar aniqlash va qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan ta'lim muhitini shakllantirish, samarali faoliyatni tashkil etish imkonini beradi¹⁵⁰ deb ta'kidlaydi rus olimlaridan Nikulaeva M.I. va boshqalar. Ushbu olimlar kollejlarda ekotizim, loyihalar va hamkorlar majmui, madaniyat,

¹⁴⁷ Nwagbara, A. C. The Effectiveness of Teachers and Schools Cluster Model of Primary School Mathematics Teachers Professional Development in Cross River State, Nigeria //Asia Pacific Journal of Education, Arts and Sciences | Vol. 1, No. 3 | July 2014

¹⁴⁸ Стреляева А.Е. Формирование национальной инновационной системы России на основе долгосрочной стратегии кластеризации экономики // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 1. ; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=12011> (дата обращения: 09.08.2023).

¹⁴⁹ Стенякова Н.Е., Груздова О.Г. Кластерная модель организации партнерства образовательных учреждений //Интернет-журнал «Мир науки» 2017, Том 5, номер 5 <https://mir-nauki.com/PDF/56PDMN517.pdf>

¹⁵⁰ Никулаева М.И., Третьякова Н.С., Твердынин Н.М. Перспективы создания образовательных кластеров в системе спо: теория и реальность <https://cyberleninka.ru/article/n/klasterная-model-organizatsii-partnerstva-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy/viewer>

san'at va hunarmandchilik, dizayn va zamonaviy texnologiyalar segmentidagi ixtisoslashgan infratuzilmaga asoslangan ta'lim klasterining innovatsion modeli g'oyasini oldinga surishadi. Ushbu olimlar badiiy hunarmandchilik va dizayn ta'lim klasteri hamkorligida "Restavratsiya", "Badiiy hunarmandchilik va xalq hunarmandchiligi", "Gulchilik", "Dizayn" (tarmoqlar bo'yicha), "Inkrustator" va "Zargarlik" yo'nalishlarini qamrab olishadi. Bu bizning tadqiqot yo'nalishimizga eng yaqin ilmiy izlanish desak bo'ladi. Ular ta'lim tizimida klaster yondashuvining qanchalik istiqbolli, eng muhimi real va foydali ekanligiga urg'u berishadi.

Respublikamizda U.N.Xodjamqulov o'z tadqiqotlarida pedagogik ta'lim innovatsion klasteri milliy modelini amaliyotga joriy etishni taklif etadi. Tadqiqot ishi asosan sub'ektlarni butun tizimning muvaffaqiyatiga jalb qilish, o'zgarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishi uchun sharoit yaratishga qaratiladi. Bunda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etishning hududiy mexanizmlarini takomillashtirish, o'z maqomiga teng bo'lgan boshqa sub'ektlarning muvaffaqiyatidan manfaatdorlikni ta'minlash¹⁵¹ ga qaratilgan klaster modeli uzluksiz ta'lim tizimida ma'lum darajadagi samaradorlikni e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim samaradorligini oshirish texnologiyasi S.A.Toshtemirova, N.Koshanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Ularda o'quv motivatsiyasi, ilmiy bilim va ko'nikmalar asoslarini shakllantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qiluvchi hamkorlik aloqalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotlar albatta ta'lim tizimining umumiy rivojiga katta hissa qo'shadi.

O'zbek tasviriy va amaliy san'ati hamda dizayn yo'nalishlarini yanada rivojlantirish, xalqimizning ushbu nafis san'atlarga bo'lgan estetik ehtiyojini qondirish, keng yo'nalishda faoliyat olib borayotgan mutaxassislarining ijodiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ularga shart-sharoit yaratish, badiiy salohiyatini oshirish maqsadida, badiiy ta'lim klasterini shakllantirish va zamon talablariga mos badiiy ta'lim tizimini keng yo'lga qo'yish davr talabi sifatida qaraladi¹⁵².

X.E. Sultanovning tadqiqotlarida tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuviga asoslangan o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish¹⁵³ masalasiga murojaat qilingan. Unda OTM va umumta'lim maktablari hamkorligi, tasviriy san'at ta'limida o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlar tizimi

¹⁵¹ Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим инновацион кластерининг илмий-назарий асослари // педагогика фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация иши. Чирчиқ - 2020 201 б.

¹⁵² Умаров А.С. Узлуksиз таълимда замонавий санъат мактабларини ташкил этишнинг кластер тамойиллари. Research Focus, Uzbekistan, | VOLUME 1 | ISSUE 1 | 2022.

¹⁵³ Султанов Х.Э. Тасвирий санъат таълимида кластер ёндашувига асосланган ўқитиш технологияларини такомиллаштириш Автореферат

hamda ta'lim integratsiyasini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar kiritilgan. Endilikda bu mavzuni yanada chuqurlashtirib, ma'lum bir modellardan foydalanib klaster yondashuvini mutaxassislik fanlari ichida tatbiq etish, ta'lim sifati va samaradorligiga oshirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Grevseva G.Ya. va boshqa mualliflar integratsiya yangi ta'limning istiqbolli uslubiy yo'nalishlaridan deb hisoblashadi va integrativ yondashuvga murojaat qilish, pirovardida, fuqaro shaxsining muayyan fazilatlarini tarbiyalashga olib keladi¹⁵⁴ deya ta'kidlashadi.

Har bir tomonning manfaatdorligi, axborot ochiqligi, harakatchanligi, ta'lim sifati tizimining shaffofligiga asoslangan quyidagi ta'lim klasteri modellarni taklif etish mumkin.

1. Ta'lim klasterida integratsiyalashgan yondashuv modeli.
2. Ta'limda ixtisoslashgan klasterlar modeli.
3. Boshqa OTMlar, Badiiy akademiya, umumta'lim, musiqa va san'at maktablari bilan hamkorlik.
4. Ta'lim klasterida mentorlik va maslahat berish modeli.

Integratsiyalashgan yondashuv (Ta'lim klasteriga kompleks yondashuv)

Tasviriy san'atdagi ta'lim klasterlarining modellaridan biri bu o'zaro integratsiyaga asoslanuvchi bir nechta badiiy yo'nalishlar va usullarni yagona ta'lim makonida birlashtirgan kompleks yondashuvdir. Integratsiyalashgan yondashuv grafika, rangtasvir, kompozitsiya, miniatyura, amaliy san'at, haykaltaroshlik, san'at tarixi, dizayn va tasviriy san'atni o'qitish metodikasi kabi turli xil mutaxassislik fanlarini yagona ta'lim maydoniga birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bunday klaster talabalarning tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha har tomonlama chuqur bilim olishi, ijodiy jarayon va pedagogik faoliyat mazmuniga kirib borish va tasavvurini yanada kengaytirish imkonini beradi. Bunda talaba ushbu fanlarning qanchalik darajada bir-biri bilan bog'liqligi va o'zaro uyg'unligini his qiladi. Tasviriy san'atning asl mohiyatini anglab yetadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompleks yondashuv talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va pedagogik mahoratlarini shakllantirishgaga yordam beradi, shuningdek, ularning ijodkorlikka bo'lgan moyilligi va qiziqishini oshiradi.

Samaradorlik: Integratsiyalashgan yondashuv talabalarning tasviriy san'at haqidagi yaxlit tasavvuri, badiiy fikrlashini boyitadi. Turli ijodiy fanlarda o'zlarining kuchli tomonlarini rivojlantirish va kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga ko'nikish imkonini beradi.

¹⁵⁴ Гревцева Г.Я., Циулина М.В., Болодурина Э.А., Банников М.И. Интегративный подход в учебном процессе ВУЗА // Современные проблемы науки и образования. – 2017. – № 5. ; URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=26857> (дата обращения: 15.08.2023).

Ixtisoslashgan klasterlar

Yana bir yondashuv – ilmiy-ijodiy to‘garaklar orqali ixtisoslashtirilgan ta’lim klasterlarini yaratishdan iborat. Bunda har bir ta’lim muassasasi tasviriy san’atning ma’lum bir yo‘nalishiga e’tibor qaratadi. Bu yerda muayyan badiiy ijodiyotga oid fanlar, ijodiy yo‘nalishlar bo‘yicha ixtisoslashgan mutaxassislik fanlari - bu ixtisoslashgan klasterlar hisoblanadi. Masalan, bitta to‘garak rangtasvir kompozitsiyasiga, ikkinchisi grafika va miniatyura, uchinchi esa haykaltaroshlikka ixtisoslashgan bo‘lishi mumkin. Ushbu yondashuv talabalarga ta’lim olish uchun torroq yo‘nalish tanlash, uni chuqurroq o‘rganish va asosiy qiziqishlariga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini beradi.

Samaradorlik: Ixtisoslashgan klasterlar talaba va o‘quvchilarga o‘zlarini qiziqtirgan yo‘nalishlarini chuqurroq o‘rganish, ko‘proq kasbiy-ijodiy ta’lim olish va badiiy uslublarini aniqroq tushunish imkonini beradi.

OTM, Badiiy akademiya, umumta’lim, musiqa va san’at maktablari bilan hamkorlik

Tasviriy san’at bo‘yicha ta’lim klasterining yana bir modeli – boshqa OTMlar, Badiiy akademiya, umumta’lim, musiqa va san’at maktablari bilan hamkorlik. Bunday hamkorlik talabalarga nafaqat akademik ta’lim olish, balki professional rassomlar ijodini kuzatish, tasviriy san’atni o‘qitishning zamonaviy holatini o‘rganish, ko‘rgazmalar va mahorat darslarida qatnashish, shuningdek, tajribali pedagoglar va mahoratli rassomlardan qimmatli bilim va tajriba olishlari mumkin bo‘lgan madaniy muhitga ko‘nikish imkonini beradi. Ushbu hamkorlik orqali asosan talabalardagi ijodiy qobiliyatlari rivojlantirilib, pedagogik tajribalari shakllantiriladi, o‘zini kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorlash, o‘z-o‘zini moliyalashtirish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bu orqali ular uchun o‘z ijodini targ‘ib qilish, ijodiy ko‘rgazmalarni tashkil etish, ijodiy asarlarini sotish uchun imkoniyat eshiklari ochiladi. Zamonaviy san’at yo‘nalishlari bilan tanishib, badiiy uslublar haqidagi tasavvurini boyitish, shaxsiy ijodini rivojlantirishga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Samaradorlik: boshqa OTMlar, Badiiy akademiya, umumta’lim, musiqa va san’at maktablari bilan hamkorlik o‘quv jarayonini boyitadi, talabalarining dunyoqarashini kengaytiradi, ijodiy o‘sishi, o‘z ustida ishlashini rag‘batlantiradi hamda ularni yuksak marralar sari undaydi.

Mentorlik va maslahat berish

Ta’lim klasterlarida yosh tasviriy san’at o‘qituvchilarining kamol topishi uchun ustozlik va ularning maslahatlari muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvni ming yillar davomida rivojlanib kelgan bizning milliy qadriyatlarimiz, an’analalarimizni saqlab qolish, takomillashtirish va kelajak avlodga yetkazish uchun ajoyib imkoniyati ham deyish mumkin. Tajribali ijodkorlar va pedagoglar yosh hamkasblariga ustoz

bo'lib, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda olgan bilimlarini o'quv amaliyotida qo'llashga yordam beradi. Ustoz nafaqat bilim, balki o'zlarining hayotiy tajribasi bilan ham o'rtoqlashishga qodir insonlardir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murabbiylarning bergan motivatsiyasi yosh o'qituvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi va kasbiy mahoratini oshiradi. Tajribaga asoslangan professional yondashuvsiz talabalar uchun kerakli bo'lgan bilimlarni yetkazish juda qiyin.

Mentorlikka asoslangan pedagogik yordam talabaning ta'lim va tarbiya jarayonini kuzatish, ularga maslahat berish hamda muammoli vaziyatlarni mustaqil ravishda hal qilish uchun sharoit yaratishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ustoz kelajakni ko'ra olishi lozim. U nafaqat o'zida mavjud bo'lgan bilim va ko'nikmalarni, balki yaqin kelajakdagi talab va ehtiyojlar haqidagi ma'lumotlarni yetkazib bera olishi kerak. Mana shunday malaka amaliyotdagi Ustoz bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot, kuzatish, fikr almashinuvlari orqali shakllanadi va zamon talabiga mos kadrlar tayyorlanadi. Bularning barchasini amalga oshirish uchun talabadan o'z tanlagan kasbining o'ziga xos xususiyatlarini tushunib yetish, uning ijobiy tomonlari va qiyinchiliklarini tasavvur qilish, ma'suliyatini his qilish talab etiladi.

Samaradorlik: Mentorlik va maslahat berish yosh pedagog-rassomlarning kasbiy o'sishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni o'quv amaliyoti jarayonida muvaffaqiyatli tatbiq etishga yordam beradi.

Xulosa

Tasviriy san'at bo'yicha mavjud ta'lim klasterlarining modellari tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning ijodiy rivojlanishi uchun turli yondashuvlar samarali ekanligini ko'rsatadi. Integratsiyalashgan yondashuv, ixtisoslashtirilgan klasterlar va boshqa OTMLar bilan hamkorlik, mentorlik va maslahat kabi strategiyalarning barchasi talabalarga o'z ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga va kelajakda muvaffaqiyatli pedagog-rassom sifatida shakllanishiga yordam beradi. Keng ko'lamda turli xil ta'lim olish hamda ijodkorlikni rag'batlantirish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Shuni ta'kidlash muhimki, har bir modelning samaradorligi ta'lim klasterining mazmuni va o'ziga xosligi, tashkillashtirish usuli, shuningdek, talabalarning individual xususiyatlariga ham bog'liq.

Tavsiyalar: Tadqiqotning xulosalariga tayangan holda quyidagi amaliy taklif qilamiz:

- mavzu doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi va ko'lamini oshirish uchun mavjud ta'lim klasteri modellaridan fan, ta'lim va ishlab chiqarishni o'zaro integratsiyalashda foydalanish mumkin;

- tasviriy san'at ta'lim yo'nalishining o'ziga xos spesifik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning innovatsion ta'lim klasteri modelidagi ishlash mexanizmlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va uni ommalashtirish mumkin;

- ushbu tajribalardan kelib chiqib, tasviriy san'at ta'limida klaster yondashuvi borasida metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvi asosida fanlararo va ta'lim tarmoqlarini integratsiyalash amaliyoti

Hayotning turli sohalarida xalqaro hamkorlikning jadal rivojlanishi va globallashtirish jarayoni ta'lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish zaruriyatini taqozo etmoqda. Hozirgi vaqtda Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiroki hamda ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy mehnat bozori o'qitish usullari mazmunidagi doimiy o'zgarishlar, moslashuvchanlik tamoyillariga asoslangan birdamligini talab qiladi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida klaster yondashuvi asosida o'quv jarayonini tashkil etish fanlararo va ta'lim tarmoqlari integratsion aloqadorligini ta'minlaydi, bu esa talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dolzarbligi: ushbu tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-son Farmonida belgilab berilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish¹⁵⁵ vazifalarining ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (PTIK) faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan fanlararo integratsiyani ta'minlash to'g'risidagi Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektorining 2024 yil 16-yanvardagi 01-05-sonli buyrug'i ham ushbu tadqiqot ishi uchun asos qilib olingan. San'atshunoslik fakulteti jamoasi tomonidan universitet ichida boshqa yo'nalishlar bilan integratsiyaga asoslangan bitiruv malakaviy ishlari bajarish g'oyasini amaliyotga tatbiq etish jarayoni ushbu tadqiqot ishining ob'ekti hisoblanadi. Unda San'atshunoslik fakulteti talabalarining boshqa fakultetlar bitiruvchilari bilan klaster yondashuviga asoslangan birgalikdagi integratsion mavzularda bitiruv malakaviy ishlari bajarishi va uning himoyasi jarayoni natijalari o'z aksini topgan.

¹⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8-октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ-5847-сон Фармони

Yangiligi: fanlararo integratsion hamkorligi doirasida bajarilgan bitiruv malakaviy ishlarining universitet strategik tadqiqot yo‘nalishi va ustuvorliklariga mosligi ta‘minlangan.

- klaster yondashuvi asosida universitet strukturasidagi turli yo‘nalish talabalarining tizimli integratsion faoliyati muvofiqlashtirilgan;

Bugungi kunda o‘qitish usullari mazmuni zamonaviy mehnat bozori talablariga ko‘ra doimiy o‘zgarib turishi oddiy holat bo‘lib qoldi. Shuning uchun sifat va samaradorlikka erishishda ta‘lim sub‘ektlarining moslashuvchanlik tamoyillariga asoslangan birdamligi juda muhim. Bu o‘zgarishlar fanlarning zamonaviy rivojlanishidagi muhim jarayonlar - ularning integratsiyasi va differentsiatsiyasi tufayli yuzaga keladi¹⁵⁶. Fanlararo uzviylik va uzluksizlik hamda integratsiyani ta‘minlash uchun klaster yondashuvi vositasida ular o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari mexanizmi shakllantirilishi lozim. Bundan tashqari klaster hamkorligi teng huquqli alohida sub‘ektlarning fan va dasturiy resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm sifatida ta‘lim, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari hamda fanlararo aloqadorlikka mansub tarqoqlikni bartaraf etish, raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishning amaliyotdagi tatbig‘i ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

“Klaster” atamasi jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari muhokama qilishda eng mashhur atamalardan biri hisoblanib, allaqachon rivojlangan davlatlar ta‘lim sohasida amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda. Klaster o‘zi nimani anglatadi? Avvalo bu modelning ma‘no va mazmunini tushunib olishimiz kerak bo‘ladi. Aslida “klaster” (cluster) so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, tarjima qilinganda “to‘plam”, “to‘p”, “guruh”, “konsentratsiya”, “guruhlarga to‘plash”, “to‘plamlarda o‘shish” kabi ma‘nolarni anglatadi. Dastlab bu termin statistika va kompyuter sohasida paydo bo‘lgan, keyinchalik iqtisodiyot va sotsiologiyada ham keng qo‘llanila boshlandi.

"Integratsiya" atamasi esa lotincha " integratio-tiklash", "to‘ldirish", "integer-butun", "to‘liq", "bir butun" degan ma‘noni anglatadi. Yuqorida qayd etilgan “klaster” hamda “integratsiya” atamalarining umumiy ma‘nosi va mohiyati jihatidan bir-birini to‘ldirishini anglash qiyin emas. Ta‘lim jarayonida "integratsiya" tushunchasiga jahon olimlari tomonidan ko‘plab ta‘riflar berilgan bo‘lib, pedagogika bo‘yicha katta zamonaviy ensiklopediyada integratsiya ilgari bir xil bo‘lmagan qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bog‘liq rivojlanish jarayonining bir tomoni sifatida ta‘riflanadi. Integratsiya umumiy platformaning hal qiluvchi omili bo‘lib, umumiy bilimlar monolitini yaratishga imkon beradi, bizni atrof-muhitning yagona ko‘rinishida bilim

¹⁵⁶ <https://cyberleninka.ru/article/n/integratsiya-distsiplin-v-uchebnom-protsesse>:

yaratishga yaqinlashtiradi¹⁵⁷ degan fikrni bildiradi E.S. Nazarov. Boshqa mualliflar tomonidan integratsiya elementlar o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro ta'sirlar va intensivligining oshishi, ularning tartiblanishi hamda sifat jihatidan yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan o'ziga xos yaxlit tuzilma paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi¹⁵⁸. Bizning fikrimizcha, integratsiya usuli ilmiy-ijodiy tadqiqot faoliyatini ta'lim jarayoni bilan samarali birlashtirish, ta'lim turlari o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni ta'minlash imkonini yaratadi.

Tadqiqotchilar ta'lim jarayonidagi integratsion yondashuvni quyidagi ikki turga ajratib ko'rsatadi:

Vertikal integratsiya - mohiyati turli darajadagi murakkablikdagi turli xil o'quv yillarida tematik ravishda takrorlanadigan bir mavzudagi materialni birlashtirish;

Gorizontal integratsiya - turli o'quv fanlari bo'yicha o'xshash o'quv materiallarini birlashtirish¹⁵⁹.

L.V Abakumovanning ta'kidlashicha integratsiyalashgan darslar talabalarning quyidagi kompetensiyalarini rivojlantiradi:

- fikrlash (o'rganilayotgan mavzuning maqsadi va ahamiyatini tushunish, mohiyatini anglash);

- umummadaniy (nutq madaniyati, o'rganilayotgan mavzuning alohida tarkibiy qismlari haqidagi tarixiy ma'lumotlar);

- axborot (kompyuterda ishlash, kerakli materialni mustaqil tanlash qobiliyati);

- kommunikativ (jamo bilan ishlash, tinglash, muloqot qilish, boshqa nuqtai nazarga ega bo'lgan odamlar fikrini qabul qila olish qobiliyati)¹⁶⁰.

Integratsiyalashgan ta'lim shuningdek, talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirib, ulardagi o'quv va kognitiv faoliyatini faollashtirish, tizimlashtirish, optimallashtirishga yordam beradi.¹⁶¹

